Н. АБДУЛЛАЕВ

# САНЪАТ ТАРИХИ

2/I

UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
UZBEKISTON BADIIY AKADEMIYASI

NEMAT ABDULLAYeV

# SAN'AT TARIXI

Ikki jildlik

II jild

BIRINCHI KITOB

Uzbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy yurtlari uchun uquv qo'llanmasi sifatida tavsiya qilingan
«SAN'AT» nashriyoti Toshkent —2001

Uzbekiston Badiiy Akademiyasi haqiqiy azosi **TURSUNALI KO'ZIYeV** umumiy taxriri ostida
*Taqrizchilar:*
San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institui gasviriy san'ati bo'limi; Uzbekiston Respublikasi pedagogika ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi **ASQARALI SULAYMONOV**

**Abdullev Nemat Ubaydullayevich**. San'at tarnxi: Ikki jildlik. T.K. Qo'ziyev umumiy taxriri ostida. San'at nashr. 2001- 192 b.
Sarlavhada. Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi.Uzbekiston badiiy akademiyasi
Kitob 1. XVII -XX asr boshlarida jaxon san'ati (Tasviriy san'at, memorlik va amaliy bezak san'ati). 16-6.
BBK 85. 10Z(3) ya 73
© "SAN'AT* jurnali nashriyoti, Toshkent — 2001

## MUALLIFDAN

"San'at tarixi" kitobining birinchi jildi 1986 yili chop etilgan edi. Uning ikkinchi jildi tayyorlanayotgan paytda jaxon madaniy, siyosiy va iqtisodiy xayotida jiddiy o'zgarishlar (Sho'ro davlatining inqirozga yuz tutishi va parchalanishi, kommunistik mafkuraga chek qo'yiliish tufayli sanat asarlarini baxolashda yangicha qarashlarning yuzaga kelishi, Sharq mamlakatlariga etibor ortib borishi va boshqalar) sodir bo'ldi. Bu mavzularni qayta ko'rib chiqishni davom etdi. Sharq mamlakatlari, xususan, islom davlatlari san'atini, sobiq sho'ro davlati parchalangandan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar san'atini kengroq o'rganish extiyoji kitob matni xajmining kattalashishiga olib keldi. Shuning uchun ikkinchi jildni ikki kitobga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Jildning birinchi kitobida XVII— XX asr boshlarigacha bo'lgan sanat, ikkinchi kitobida esa XX asr san'ati tarixi xaqida muloxaza yuritildi. Xar ikki kitob o'zaro uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, izox va adabiyotlar ro'yxati ikkinchi kitob oxiriga ko'chirildi.Rasmlar ro'yxati,rassom, xaykaltarosh va memorlar, xalq ustalari haqidagi ma'lumotlar esa xar kitobning o'zida berildi. Kitobda jaxon san'ati rivojining eng muxim bosqichlar bulardagi uslublar, yirik ijodkorlar va ularning yetuk asarlari xaqida muloxaza yuritilgan. Xar bir davrning o'ziga xos estetik qarashlarini yoritishda bugungi kun san'atshunosligi nuqtai nazaridan yondashishga xarakat qilingan.

Xar ikki kitob uchun rus, qisman ingliz va o'zbek tillarida chop etilgan kitob, maqola va ilmiy tadqiqotlar o'rganish manbai sifatida olindi, Ko'p tomonlik "Vseobshaya istoriya iskusstv" (1-6 t., M. 1956-1964), "populyarnaya xudojestvennaya ensiklopediya* (M. 1993), "Iskusstvo stran i narodov mira" (1-5 tom, M. 1962.1980), "Pamyatniki mirovogo iskusstva" (Vo'p. 1-7$_g$ M, 1967-1983), "Iskusstvo" (Rossiya), "San'at" jurnallari materiallariga tayanildi, Eng etiborli san'at asarlari va ularning ijodkorlariga etibor qaratildi. San'at tarixiga bag'ishlangan bunday kitob o'zbek tilida ilk bor nashr qilinmoqda. Shuning uchun unda kamchilik va xatolar bo'lshi tabiiy.

Mazkur kitob san'atshunos mutaxassislar, oliy va o'rta maxsus o'kuv yurtlari talabalari,san'at tarixi va nazariyasi bilan qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

# I. XVII-XVIII ASRLARDA JAHON SAN’ATI

## KIRISH

Ilm-fan taraqqiyoti, jo‘g‘rofiy kashfiyotlar, yangi kitalar, dengiz yo‘llari xalqlarning o‘zaro aloqasi jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jaxon xalqlarining ijtimoiy xayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqyot birmuncha tezlashdi. Ular ko‘pgina o‘lkalarni bosib olib, o‘z xukmronliklarini o‘rnatdilar. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlari uchun arzon xom ashyo, ishchi kuchi va yangi bozorlar ochilib, ular tez rivojlana boshladi. Bu davrda Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qitalarida ham qator ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, Sharq mamlakatlarida ananaviy san’at va madaniyat turlari bilan bir qatorda, san’atning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Azaliy bezak san’atiga yangi davr texnologiyasi joriy qilina boshladi. G‘arb va Shark san’’ati ananalari uyg‘unligida yangi san’at yo‘nalishlari shakllandi.

Jahon ijtimoiy, siyosiy va madaniy xayotida ro‘y bergan bu o‘zgarishlarda Yevropa muxim o‘rin tutadi. Chunki Sharq va G‘arbning san’at sog‘asidagi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan Yevropa qitasida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy xayotda dinning xukmron bo‘lib qolishiga qarshi chiqish boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, Niderlandiya va Angliyada bo‘lib o‘tgan xalq g‘alayonlari o‘rta asr tartibi va diniy cherkov xukmronligiga zarba berdi. Gollandiya Yevropada namunali kapitalistik davlat tarzida rivojlana boshladi. Lekin feodalizm Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida o‘z xukmronligini saqlab qolaverdi. Jumladan, Fransiya va Ispaniyada markazlashgan absolyut monarxiyalar vujudga keldi. Italiya va Germaniyada feodal tarqoqlik xukm surdi. Xalq absolyut monarxiya zulmiga norozilik bildirib, bosh ko‘tardi. Ilg‘or ziyolilar, ma’rifatparvarlar bu kurashlarni qo‘llab - kuvvatladilar. Ular feodalizm qoloqligini qoraladilar, fikr erkinligi rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi chiqdilar. Italiya, Fransiya, Ispaniya va boshqa Yevropa 4 mamlakatlarida eski tuzumga qarshi noroziliklar, xalq g‘alayonlari kuchaydi. Bu XVIII asr oxiriga kelib, feodalizmning uzil-kesil inqiroziga sabab bo‘ldi. Ijtimoiy munosabatlar o‘zgardi, uning yangi shakllari yuzaga kela boshladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayishi san’at va madaniyatning ijtimoiy xayotda mavqeini oshirdi. Dvoryanlar va cherkov san’at va madaniyatni o‘z manfaatlariga bo‘ysundirishga xarakat qildilar. Lekin jamiyat taraqqiyotini orqaga burish mumkin emas edi. Ziddiyat yanada keskinlashib bordi. Shular zamirida san’atning mafkuraviy kurashdagi roli ortib, uning uslubiy rang-barangligi kengayib bordi.

## 1. XVI-XVIII ASRLARDA YeVROPA SAN’ATI

Bu davrda Yevropa san’ati avvalgi ananalar, eng avvalo, uyg‘onish davri ananalari zaminida kamol topdi.Unda xam inson, uning jismi, xis tuyg‘u, xayol-o‘ylari,orzu-istaklari ifodasi asosiy mavzu bo‘ldi. San’atkorlar bu davrda inson qiyofasini yanada xaqqoniy ko‘rsatishga, uning ruxiy xolatidagi murakkabliklarni va uning yangi qirralarini yoritishga intildilar. Inson xayoti, uning turmush tarzini to‘laqonli talqin etish shu davr asarlari uchun muxim yo‘nalish bo‘lib qoldi. Xayot murakkabligi, uning ichki ziddiyat va kurashlari rassom va xaykaltaroshlar nazaridan chetda kolmadi. Ozodlik, tenglik g‘oyalari kuylandi, shakllanib kelayotgan burjuaziyaning kirdikorlari tanqid ostiga olindi. San’at sintezi masalasi bu davrga kelib yangicha talqin etila boshlandi. Tabiat relyefi shu davrda yaratilgan memorlik majmualarida xisobga olindi. Memorlik binolari ko‘cha, maydon va tabiat bilan yanada uyg‘unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralarga qiziqish ortdi. Endilikda san’at turi va janrlari orasidagi nisbatlar xam o‘zgardi. Uning yangi tur va janrlari yuzaga keldi.

Mavjud ananaviy syujetlar bilan birga, xayotiy voqealarga bag‘ishlangan asarlar xam keng miqiyosda badiiy xayotga kira boshladi. Maishiy, manzara va natyurmort janrlari mustaqil san’at turlariga aylandi. Insonning ichki dunyosiga qiziqishning ortishi portret san’atini yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga olib keldi. Grafika rivojlandi. Haykaltaroshlik imkoniyatlari yanada ortib, u
memorlik ansambllariga keng ko‘lamda kirib keldi, xiyobon-bog‘ san’atida keng qo‘llanildi. Dekorativ rangtasvir intererlarning muxim komponenti sifatida davr ruxini aks ettiruvchi vositaga aylandi. Bu davrga kelib, ijodiy metod, sanatning badiiy tili xam boyidi, rangbaranglik kasb etdi. Yaratilgan kompozisiyalarning xayotiy va tabiiy ko‘rinishiga erishish uning emosional jixatini oshirishda muxim omil bo‘ldi. San’atkorlar ijodida rang, nur-soya, faktura masalalari muxim o‘rinni egalladi. Albatta, bu davrda Yevropa mamlakatlarining iktisodiy va madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy kuchlari bir xil darajada emas edi. Bu davrda madaniyatda qator g‘oyaviy badiiy yunalishlarining paydo bo‘lishi, avvalo, ana shu xodisa bilan bog‘liqdir.

XVII asr "Barokko asri" deb xam yuritiladi. Bu esa, bejiz emas. Chunki davrning g‘oyaviy estetik qarashlari ayni shu uslubda ko‘proq o‘z ifodasini topdi. San’at tarixida XVII asr memorchiligining o‘ziga xos jixatlarini tariflash uchun ko‘llanilgan, keyinchalik tasviriy san’atga nisbatan xam ishlatilgan barokko uslubining belgilari, dastlab, Italiyada paydo bo‘lgan. Vinola, Palladio memorlik asarlarida, Mikelanjelo xaykallarida, Korrejo dastgoh va dekorativ rangtasvirlarida shu tamoyillar namoyon bo‘lgan. Barokko uslubiga xos dekorativlilik, nur-soya o‘yiniga etibor berish va xisxayajonga to‘la asarlar yaratish tamoyillari tezda ko‘pgina san’atkorlarni o‘ziga jalb eta boshladi. Bu xususiyat G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yoyildi va mahalliy san’at uslubi va an’analari tasirida o‘ziga xos milliy rux kasb eta bordi. Jumladan, Ispaniya va Portugaliyada barokko nixoyatda xashamdor, jimjimador edi. Buning sababi, bu yerda maxalliy naqqoshlik san’ati ravnak topganligidadir. Germaniyada esa barokko gotika tasirida rivojlanganligi seziladi. Flandriyada "flamand barokkosi" shakllangan bo‘lsa, Fransiyada barokko klassisizm tamoyillari tasirida namoyon bo‘ldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, keyinroq esa Rossiyaga xam kirib keldi.

Barokkoga xos fazilatlar Rim memorligida o‘zining klassik ko‘rinishiga erishdi. Barokko intererlarida dekorativ rangtasvir, xaykal va kolonnalar muxim o‘rinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi. Tasviriy san’atda barokko ko‘proq diniy mavzudagi asarlarda o‘zini namoyon qildi. Iso va avliyolarning azob chekishlari, ularni butga mixlash, Bibi Maryamning aza tutishi kabi voqealar barokko uslubida ishlangan asarlar uchun asosiy mavzu bo‘ldi. Asarning dramatik ekspressiv xolati tasvirlanuvchilarning murakkab rakurslarida, nur-soya qaramaraqarshiligi va serxarakat kompozisiyada ifoda yetiladi.

Barokko san’atida fazoviy kenglik masalasi xam o‘ziga xos talqin etiladi. U kompozisiyada yagona ansambl tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi. Barokko san’atida rang surtmalari ham muhim ifoda vositasi sifatida ishtirok etadi. Agar klassik va Renessans kompozisiyalar xam mavjud. Lekin ularda reallik va noreallik kirishib san’atida chiziq muxim o‘rin tutgan bo‘lsa, endilikda rang surmalari, ularning erkin ishlatilishi kompozisiya dinamikasini oshirishda muxim o‘rin egallab, asar badiiyligini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, kompozisiyada uzoq va yaqindagi buyumlarni tasvirlashga, obrazlarni murakkab rakurslarda joylashtirishga etibor beriladiki, (masalan, uchib ketayotgan, tepadan shiddat bilan tushayotgan kabi), bular xam barokko asarlariga xos jo‘shqinlik va xarakatni gavdalantirishga xizmat qiladi. Barokko uslubida diniy mifologik syujetlardan tashqari tarixiy va maishiy mavzularda yaratila ketadi. Ular bezovtalik, xayajonli va romantik ko‘rinishda ifoda kqilinadi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub klassisizm xam Fransiyada paydo bo‘ldi. Klassisizm vakillari aql-idrokni san’atga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi yagona mezon, deb xisoblashgan. Aql idrokni xis-xayajonga qarshi qo‘yishgan. Ularning fikricha, aql kuchi bilan yaratilgan asargina san’at asari xisoblanadi.
Klassisizm uslubi tarafdorlari xam uygonish davri san’atidan ilxomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojat qildilar. Shakllarning aniq va elastik tugalangan, kompozisiyalarning jiddiy muvozanatli va mantiqiy bo‘lishiga etibor beriladi. Antik davr mifologiyasi, Tavrot murojat qilib, ulardagi syujetlar orqali o‘z davrlarning etnik axloqiy va siyosiy muammolarni ko‘tarishga xarakat qildilar. Klassisizm san’atida xam umumlashma asar yaratish asosiy muammo xisoblangan.

Lekin Barokko vakillari yirik umumlashma mavzudagi asarlarni dinamik kompozisiyada ifoda etsalar, klassistlarning asarlari birmuncha vazmin, ritm va plastik musiqiylikka intilish asosida yaratiladi. Bu asrga kelib san’at asarlari oliy va kichik janrlarga ajratildi. Tarixiy, mifologik va diniy mavzuda yaratilgan oliy, komediya, satira va xalq maishiy xayotini aks ettiruvchi janrlar kichik yoki quyi janrlarga ajratilishi shu davrga xos mafkura maxsulidir. Klassisizm uslubining o‘ziga xos jixatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida Italiyada memorlar Vinola va Palladio ijodida sezila boshladi.Klassizmga hos xususiyatlar memorlikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi ,mantiqiy rejalashtirilishi va keng ko‘lamda antik memorlik shakllardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Klassisizm uslubida ishlangan memorlik kompozisilarida order tizimi muhim rol o‘ynaydi. Memor ko‘pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagiga xos ifodalashga xarakat qiladi. Bunda interer ham xarakterli . Unda ham yahlitlik va ulug‘vor tantanavorlik ko‘rinishiga xalaqit bermaslgi lozim. Maxobatli rangtasvir esa memorlik yechimining yetakchiligiga xalaqit bermasligi mayin nafis ranglar gammasi xonaning ulug‘vor va bahavo ko‘rinishiga xizmat qilishi kerak. Klassisizm shahar qurilishi san’atida ko‘proq. Renessana va barpokko uslubi tamoyillarini ijodiy o‘zgartirgan tarzda ko‘rindi va rivojlandi. Tabiat ko‘rinishlari memorlik kompozisiyalarida majmualarida xisobga olinib klassisizmning talablari asosida o‘zlashtirildi. Tasviriy san’atda klassisizmning o‘ziga xos jixatlari mavzu tanlashdan tashqari chiziq plastikasi va faktura xarakteriga etibor berishda ham ko‘rinadi. Chixiqlarning musiqiyligi va tugalligi fakturaning silliqligi klassisizm uslubida ishlangan asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Klassisizm o‘z taraqqiyotida boshqa uslublardan masalan, barokko uslubida ham tasirlandi. Uning ayrim tomonlarini o‘zida uyg‘unlashtirdi. XVIII asrda yunon va Rim tarixi bo‘yicha qilingan kashfiyotlar, Pompey, Gerkulanum kabi qadimiy shaxarlarning ochilishi, nemis olimi va san’atshunoslari Gyote va Vinkelm anlarning ilmiy nazariy faoliyatlari klassisizm uslubi rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Antik san’atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr oxiri va XIX asrda esa bu uslub jaxon san’atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi. Nafaqat Yevropa balki Osiyo, Amerika qitalarida xam shu uslubda asarlar yaratildi.

XVII asrdan boshlab, avvalo, Yevropa san’atida, keyinroq esa jaxon san’atida mavjud borliqni to‘laqonli aks ettirishga, davr ruxi va mazmunini ochib berishga asoslangan realistik san’at yo‘nalishi astasekin yetakchi o‘rinni egallay boshladi. San’at yangi mavzu, yangi tur va janrlar bilan boyib bordi. Ular yangi tasvir va ifoda vositalarining yuzaga kelishini ta’minladi. Demokratiyaga asoslangan mamlakatlarda bu yo‘nalish o‘zini yanada kuchliroq namoyon eta boshladi. Milliy burjuaziya madaniyati shakllangan, feodal xukumronligiga qarshi milliy ozodlik xarakatlari kuchaygan mamlakatlarda realistik san’at yo‘nalishi birmuncha yetakchi o‘rinni egallay boshladi. Jumladan, ispan absolyutizmiga qarshi milliy ozodlik kurashi Gollandiyada realistik san’atning gurkirab yashnashi uchun zamin tayyorladi. Realistik san’at asarlari kishilarning xistuyg‘ularini, insonning jismoniy go‘zalligi, uning olijanobligi va yuksak

ma'naviyatini ifodalovchi san'at sifatida shuxrat qozondi. Gollandiyada xalq xayotini to'laqonli aks ettiruvchi maishiy janr paydo bo'ldi, manzara, natyurmort, portret janrlari yuzaga keldi. Rassomlar o'z asarlarida xayotning yangi qirralarini ifoda qildilar. Bu bilan kishilarning estetik idroki yanada boyishiga xissa qo'shdilar. Ularning xayot bilan bevosita aloqador asar yaratishlari rassomlik san'atini yangi pog'onaga ko'tardi.

Albatta, yuqoridagi badiiy uslubiy yo'nalishlar o'z-o'zicha emas, balki bir-biri bilan uzviy munosabatda bo'ldi. Birining tasiri boshka birida o'z aksini topdi. Bu o'zgarish va tasirlar, eng avvalo, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumi, tarixiy sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'ldi. XVII asrda Italiya, Ispaniya, Flomandiya, Gollandiya va Fransiyada milliy badiiy maktablar mavjud edi, Angliya, Germaniya, Avstriyada esa xali yuzaga kelmagan edi. Bu mamlakatlardagi notinchlik, turli urushlar (30 yillik urush) bunga asosiy sabab bo'ldi. XVIII asrga kelib vaziyat birmuncha o'zgarib, yangi munosabatlar yuzaga kela boshladi. San'at ijtimoiy xayotning dolzarb muammolari bilan uzviy bog'liq xolda rivojlana boshladi. Voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lish, illatlarni tanqid qilish kuchaydi. Uslublarning o'rni xam o'zgara bordi. Barokko uslubi o'zining so'nggi rivojlanish boskichini kechira borib, ko'p joylarda o'z o'rnini rokokoga bo'shatdi. Realistik yo'nalish esa klassisizmga qarshi kurashda o'z mavqeini oshirib bordi. Memorlikda xam o'zgarishlar sezilarli bo'ldi. Cherkov qurilishi kamaydi. Aksincha, uy-joy memorligi jonlandi. Shaxarni rejalashtirish masalasi memorlikdagi muxim masalalardan biriga aylandi. Turar joylarning yangi tiplari vujudga keldi. Shaharda mamuriy binolarning majmualari paydo bo'ldi. San'atda san'at sintezi masalasi birmuncha susaydi. Xaykaltaroshlik va ranggasvirning maxobatli shakllari o'rnini dastgox egallay boshladi.
Amaliy va dekorativ san'ati buyumlariga extiyoj o'sdi. XVIII asrga kelib, milliy maktablar xam ko'paya boshladi. Ular orasida Fransiya badiiy maktabi Yevropa san'atkda yetakchi o'ringa chiqdi. Angliyada san'at rivojlandi, Italiyada Venesiya badiiy maktabi, Germaniyada o'ziga xos nemis san'ati ravnaq topib ular jaxon madaniyati taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi.Rossiya ham bu davrga kelib, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi.

## XVII- XUSH ASRLARDA ITALIYA SAN'ATI

XVI asr o'rtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy xarakatlari Ispaniya g'alabasi bilan tugadi. Italiyaning ko'pgina shaxarlari uning tasarrufiga o'tdi. XVII asrda Italiya iktisodiy va siyosiy jixatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi xukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari xomiyligida dabdabali xayet kechirish, serxasham, serjilo binolar, saroy va qasrlar qurish, tantanali karnavallar o'tkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. San'at vositalari orqali o'z obro'larini oshirishga intildilar. Ular cherkov binolari, saroylar, shaxardan tashqarida serjilo va serxasham qasrlar qurdilar. Bu qurilishlar, ayniqsa, katolisizm markazi bo'lgan Vatikanda serxasham bo'ldi. Papa davlati xasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jixatdan tarqoq va qaram, iqtisodiy jixatdan qashshoq Italiya XVII-XVIII asr mobaynida Yevropadagi muxim markaz sifatida don chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy-uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida xam shuxrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy xayotning muxim markazi, baynalmilal akademiya rolini o'ynadi. Antik va Renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda ko'xna va yangi san'at aralashib, maxalliy va chet el san'ati ananalari tasirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Memorlikda xajm jixatidan katta, shakl jixatidan serjilo va krkam binolar yaratildi. Interyerlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi, qurilgan binolar ko'p xollarda

gumbazli bo‘ldi.Memorlikda, asosan, barokko uslubi yetakchi o‘rinni egalladi. XVIII asr o‘rtalarida ayrim ijodkorlar asarlarida klassisizm tamoyillari sezilsa xam, lekin yetakchi emas edi. Italiya memorlari shaxar ko‘cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o‘rta asr shaxar ko‘rinishiga xos tugallik va ko‘rkamlik kiritdilar Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shaxar maydonlari badiiyligi va emosionalligini oshirdi. Shaxar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak-atrof relyefi xisobga olinib, majmualar yaratildi. Tepalik va soyliklarga xaykaltaroshlik xamda amaliy san’at asarlari o‘rnatilib, yagona memorlik majmuasi vujudga keltirildi. Barokko memorligida bino old tomoniga aloxida etibor beriladi va uning dekorativ jixatdan tasirchan bo‘lishi xisobga olinadi. Rimdagi **Del Jezu** cherkovi (1- rasm) barokko namunasidir. Uni memor **Jakomo da Vinola** (1507-73) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi **Jakomo della Porta** bu ishni tugatgan. qo‘sh plyastr, valyuta, favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar binoning old tomoniga o‘ziga xoslik baxsh etgan.

**San-Karlo** ibodatxonasi xam barokko uslubining o‘ziga xos jixatlarini to‘lik namoyon etadi. Bu binoda xam yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun shaklidagi xajmlar bino yuzasidagi nur-soya o‘yinini kuchaytirib, uning yanada ko‘rkam bo‘lishini taminlagan. Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyandasi memor **Franchesko Borrominidir** (1599-1667). U o‘z ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Bazida xatto meyoridan oshirib xam yuboradi. Bu esa u yaratgan asarlardagi yaxlitlikka salbiy tasir qiladi. Memor intererlarning badiiy yechimida xam shunday dekorativ bezak va xaykallardan keng foydalanadi.

**Jovanni Lorenso Bernini** (1598-1680). Barokko san’atining yirik vakili, memor va xaykaltarosh **Bernini Neapol** shaxrida tug‘ildi. Shu yerda otasidan san’at sirlarini o‘rgandi. 9 yoshida marmardan odam boshi xaykalini ishlab, ko‘pchilikni xayratlantirdi. 25 yoshda esa katolik Rimning maxobatli binosi - avliyo Pyotr ibodatxonasining bosh memori darajasiga ko‘tarildi. U ko‘plab memorlik va xaykaltaroshlik asarlari yaratdi. Rassomlik va san’at nazariyasi bo‘yicha tadqiqodlar yozdi. Memorlik loyixalari, ibodatxona va saroylar, qabrtosh yodgorliklari ishladi. **Bernini** xaykaltarosh sifatida, ayniqsa, mashxur bo‘lib, barokko xaykaltaroshligining tipik vakilidir. Bernini nodir portret va tasirchan ruxiy kompozisiyalar yaratdi va bezash ishlarida qatnashdi. Rimdagi avliyo Petr soborining oldidagi katta maydon va uni o‘rab turgan ustunlar qatori (2 - rasm) **Berninining** shox asaridir Memor bu asari bilan avliyo Petr ibodatxonasi qurilishiga yakun yasadi va yagona yirik maxobatli memorlik majmuasini yaratdi. Malumki bu ibodatxona XIV asrda qurila boshlangan. Uni qurishda **Moderna, Bramants, Mikelan-jelo** katnashishgan. **Bernini** ana shu mashxur ibodatxona old tomonida favvora va obeliskli maydon yaratib, uni ustunlar qatori bilan ulug‘vorlashtirdi. Natijada, ibodatxona ko‘rinishidagi tantanavorlik ortdi. Bu maydondan ibodatxona yaxlit va ulug‘vor bo‘lib ko‘rinadi. Ibodatxonaning ikki tomonidan tomoshabinga qarab kelayotgan ustunlar qatori keluvchilarni "go‘yo quchog‘ini ochib" (L. Bernini) kutib olayotgandek bo‘ladi.

Maydon badiiy plastik vizual tashkil etilishi, ayniqsa, etiborga molik. Maydon trapesiya va ellipsimon maydonchalardan tashkil topgan. Bu ikki maydoncha idrok etilganda gorizontal tekislikdagi trapesiya va ellips to‘rtburchak va aylana bo‘lib ko‘rinadi. Bundam maydon xajmi kattalashayotgandek tuyuladi**. Bernini** bunday uslubdan o‘z ijodida Vatikandagi qirol saroyi asosiy zinasida xam foydalangan. Uning orqa planidagi ustunlar oralig‘i va zina kengligi biroz qiskargan xolda ishlanib, uning fazoviy uzunligini oshirishga, zinani o‘z o‘lchamiga nisbatan yanada kattaroq bo‘lib ko‘rinadigan bo‘lishiga erishgan. Bernini fuqoro memorligida xam samarali mexnat qildi. Uning Rimdagi **Sant-Andrea del Kvirinale, Barberini** palassosi mashxurdir. Berninining dekoratorlik san’ati Avliyo Pyotr ibodatxonasiining ichki intersrlarida o‘z ifodasini topgan.

**Bernini** XVII asr Italiya xaykaltaroshligining yirik vakili va novatori edi. Uning "David", "Avliyo Tereza ja-zavasi", "Appolon va Dafna" asarlari, ayniqsa, mashxurdir. Jumladan, David xaykalida (3-rasm) Davidning jangga kirib, qo‘lidagi toshni dushmanga otish oldidagi vajoxati juda xayotiy tasvirlangan Davidning keskin burilgan gavdasi, tarang tortilgan mushaklari, kattik. sisilgan labi, tuzib ketgan sochi va bir nuqtaga tikilgan ko‘zlarida uning ruxiy xolati aks etgan. "Avliyo Tereza jazavasi" kompozi-siyasi xam tasirchan. Tereza VI asrda yashagan real tarixiy shaxs bo‘lib, u keyinchalik cherkov tomonidan avliyolar qato-riga kiritilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Tereza tush ko‘rganligi va tushida odam qiyofasidagi go‘zal farishta kelib, uning yuragiga oltin kamon o‘q bilan yuragidan urganida "oromli azob" olganligini yozib qoldirgan. Kompozisiyada Terezaning tush ko‘rayotgan paytida, farishta unga oltin o‘q otmoqchi bo‘lib turganligi tasvirlangan.

Bu kompozisiya Rimdagi Santa Mariya della Viktoriya cherkovi mexrobiga o‘rnatilgan. **Bernini** portret san’atida xam novator ijodkor edi. Uning portretlarida tasvirlanuv-chining xarakteri nixoyatda tasirchan ifoda etilgan. Uning yaratgan portretlari barokko uslubida ishlagan xaykaltaroshlar uchun taklid maktabi vazifasini bajargan. Bernini UZ ijodida barokko yo‘nalishining o‘ziga xos xamma xususi-yatlarini namoyon etgan. Voqelikni real talqin etish, uning dekorativ jixatlarini xis etish **Bernini** ishlariga betak-ror joziba baxsh etgani. **Bernini** yaratgan Kardinal Borgez xaykali barokko san’atining yuksak namunasidir. Unda plastik tarzda ayrim shaklllarni bo‘rttirish xisobiga tasirchanlikka erishilgan. Marmar, bronzada yuksak maxorat bilan ishlashi uning asarlaridagi o‘ziga xoslikni yanada oshirgan. San’atkor ijodining bu kabi jixatlari uning asarlariga qiziqish ortishiga, uning Italiyadan tashqarida xam shuxrat qozonishiga sabab bo‘ldi.

Italiya san’atida XVII asrda rangtasvir xam barokko uslubida rivojlanib, u XVI asr oxiri XVII asrda mavjud bo‘lgan manerizmga qarshi kurashda yuzaga keldi va Bolone akademizmi xamda karavajizm yo‘nalishida namoyon bo‘ldi. Ikkisida xam barokkoga xos xususiyatlar dramatiklikka qiziqish, emosional, xis-xayajon tili bilan gapirish, dinamik kompozisiya, nur-soya qarama-qarshiligidan keng foydalanish mavjud. Lekin mazkur yo‘nalishlar o‘ziga xos uslubi bilan bir biridan ajralib turadi. Masalan, Bolone akademizmi naturani o‘rganish xamda uni antik va Renessans bilan solishtirish va ular yaratgan kanonlarga o‘xshatishga asoslanadi. Karavajistlar ijodida esa realistik jixat kuchli bo‘lib, ular naturani o‘rganadilar. Ular naturaning tub moxiyatini, aniq ko‘rsatishga intiladilar. Mifologik va diniy mavzularni oddiy xalq xayoti voqeligiga, undagi obrazlarni esa oddiy kundalik turmushda uchraydigan kishilar obraziga o‘xshatishga xarakat qiladilar. Nur, soya imkoniyatlaridan unumli foydalanib, asarning emosional jixatini oshiradilar. Italiya san’atida barokko uslubi, ayniqsa, maxobatli dekorativ rangtasvirda sezilarli bo‘ldi. Saroy va cherkov binolari devorlari serxarakat, ko‘p figurali, murakkab rakursli yorqin bo‘yoqlarda ishlangan mifologik va diniy mavzudagi rasmlar bilan bezatildi. Ayniqsa, shiplarga ishlangan rasmlar o‘zining nixoyatda dinamik va xayajonli kompozisiyalari bilan kishini xayratlantiradi. Rasmlardagi fazoviy kenglik va undagi aks etgan voqealar asarga dinamik xarakat baxsh etadi.

**Pyetro da Kartona** (1596-1669) O‘Z davrining mashxur rassom va memorlaridan biridir. Uning ijodida Italiyada rangtasviriga xos barokko namoyon bo‘lgan. Uning Rimdagi Barberini palassosi shipiga ishlangan rasmlari nixoyatda tasirchan va serbezakdir. Rassom o‘z asarlarida perspektivaning illyuzion imkoniyatlari va fazoviy kenglik, nur-soyaning kuchidan unumli foydalanadi. Shu jixatdan, u keyinchalik Yevropa maxobatli dekorativ ranggasviriga sezilarli tasir o‘tkazdi. Shuni aytish kerakki, barokko asarlari tashqi tomoni-dan qanchalik tasirchan, dinamik

bo‘lmasin, ularda tasvir-langan obrazlardaga ichki tug‘yon sust ekanini qayd etmay bo‘lmaydi.

Bolone akademizmi. Italiyada tashkil etilgan badiiy maktablardan biri Bolone akademiyasi akademik yo‘nalish tamoyillarini o‘zida namoyon etadi. Bu maktabning asoschilari aka uka **Karrachilar** (Lodoviko, Agostino, Anni-bale) bulib, ular shu yangi yo‘nalish asoslarini ishlab chiqdilar. Ular XVI asr mumtoz san’atini va, ayni chog‘da, naturani o‘rganish zarurligini uqtirdilar. Ularning fikricha, natura (borliq) go‘zallik qonunlari asosida ko‘rib chiqilishi lozim edi. Ideal va go‘zallik kanonlarini esa, ular yuqori uyg‘onish davri san’atida ko‘rdilar. Ular, aniqrog‘i, **Lodoviko de Karrachi** 1585 yili Boloneda "Akademiya Inkamminati", yani turri yo‘lga qadam qo‘yayotgan Akademiya, deb nomlangan o‘kuv dargoxini tashkil etdi. **Lyudoviko** turli o‘qitish va tarbiyalash orqali rasm chizishga qobiliyati bo‘lmagan o‘quvchini xam yaxshi rasm chizadigan mutaxassis qilib tarbiyalash mumkin, deb targ‘ib qildi va O‘ZI shunga amal qildi. Bu o‘quv yurti keyinchalik Italiyada va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalarning xam ibtidosi bo‘ldi. Akademiyada amaliy mashg‘ulotlar bilan birga, nazariy fanlar yagona pedagogik tizim asosida olib borilar edi. O‘quvchilar perspektiva, anatomiya, tarix, mifologiyani o‘rganib, antik davr xaykallaridan qalam va rangda nusxa olardilar. Bular so‘zsiz, rassomlarning ixtisoslik maxoratini o‘sishiga, realistik san’at taraqqiyotiga muxim xissa qo‘shdi. Biroq davr merosga nisbatan idealistik munosabatda bo‘ldilar. O‘tmish madaniyati va san’ati erishgan yutuqlarni yetib bo‘lmas namuna, deb bildilar. Bu esa o‘tmishga taqlid qilish, ulardan nusxa ko‘chirish yetakchi bo‘lib qolishiga, realistik san’atning esa ikkinchi darajali bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi. Akauka **Karrachilar** maxobatli dekorativ va dastgox rangtasvirda samarali mexnat qildilar. Saroy va cherkovlarga diniy va mifologik mavzuda kompozisiyalar ishladilar. Karrachilar orasida, ayniqsa, **Annibale Karrachi** (1560-1604) O‘Z istedodi bilan ajralib turgan. U novatora san’atkor sifatida san’at tarixida iz qoldirgan. Uning ijodi Yevropa san’ati tarixida uziga xos urin tutadi. **Annibale Karrachining** manzara janridagi ijodi xam salmokli. Mumtoz manzara san’ati uning nomi bilan chambarchas bog‘liq. U bu san’atning asoschilaridan biri sanaladi. Aka uka **Karrachilar** ijodi, ularning izlanishlari yosh ijodkorlarni o‘ziga ergashtirdi. Ular orasida **Gvido Reni** (1575-1642) ijodi aloxida ajralib turadi. **Karrachi** asarlaridagi mumtoz manzaralarga xos xayotiylik va bevositalilik uning ijodida tashqi tasir va obrazlarning shartliligi bilan uyg‘unlashadi. Shuni aytish kerakki, Italiyada XVII asrda rasmiy uslub kdnchalik yetakchilik kilmasin, kupgina rassomlar xayotiy, realistik asarlar yaratishga xarakat qildilar. Ularning bu intilishlari keyinchalik Yevropa realistik san’ati, jumladan, rangtasvirning rivojlanishida muxim rol o‘ynadi. Bunda, shubxasiz, Mikelanjelo Merizi da **Karavajo** (1573-1610) ijodi aloxida o‘rin tutadi. "Karavajizm" deb nomlangan badiiy yo‘nalishga asos solgan bu san’atkor qisqa umr ko‘rganiga qaramay, yangi davr, realistik san’ati yetakchi tamoyillarini rivojlantirib, Yevropa realistik san’at taraqqayotiga kuchli tasir o‘tkazdi. Italiya va boshqa mamlakatlarning ko‘pgina san’atkorlari xam uning izidan ergashdilar va "karvajistlar" degan nom oldilar. Barcha davrlar rassomlari ijodiga **Karavajo** asarlari samarali tasir ko‘rsatdi. Karavajizm Yevropa realistik san’ati taraqqiyotida muxim bosqich bo‘ldi. Lombardiyaning kichik Karavajo shaxarchasida memor oilasida dunyoga kelgan bu san’atkor, tasviriy san’at asoslarini dastlab Milanda o‘rgandi. U Shimoliy Italiya rassomlari ijodidan tasirlandi. Taxminan 1590 yillarda Rimga ko‘chib keldi. Bu yerda rassomlarga yordamchi bo‘lib, ishlab kun ko‘rdi. So‘ng o‘z asarlarini xam sotishga muvaffaq bo‘lib, yirik asarlar ishlay boshladi. U O‘Z ijodida xalq xayotiga murojaat qildi, yoshlar, masxaraboz va lo‘lilar xayotidan kompozisiyalar yaratdi. Yevropa san’atida birinchi bo‘lib natyurmort ( Mevali savat", 1596) janrida mustaqil asar yaratdi. Karavajoning dastlabki yirik asarlaridan biri "Lyutna chaluvchi" (1595) bo‘lib (4 -

rasm), u rassom ijodining o‘ziga xos jixatlarini mungli romantik asarlari shu oqimning so‘nggi ko‘rinishlarini namoyon etadi.

XVII asr so‘nggi choragidan boshlab, Italiya barokkosida dekorativlilik kuchaya bordi. Murakkab rakurslar va xarakatlar suniy ko‘tarinkilik bilan yaratilgan asarlardan o‘z ustunligini ko‘rsata boshladi. Xayotiy realistik jarayonlar ayrim rassomlar ijodida namoyon bo‘ldi. Jumladan, Aleksandr **Manyaskoning** romantik rux bilan sug‘orilgan manzaralari, Juzeppe Korespining monumental va dastgox rangtasvirlari buning yorqin misolidir.

XVIII asrga kelib, Italiya tashqi xurujlar tasirida zaiflashdi. Iktisodiy jixatdan qashshoqlashib, uning ko‘pgina shaxarlari chet el bosqinchilari qo‘liga o‘tdi. Faqat Papa oblasti xamda Venesiya respublikasi o‘z siyosiy mustaqilligini saqlab qola oldi. Rim va Venesiyadagi badiiy xayot esa barokko uslubida ishlangan xashamatli memorlik bino va majmualarida (Ispaniya zinasi, 1721), tantanavor serjilo xristian bazilikalarida, ajoyib favvoralarida, xisxayajonga to‘la devoriy va dastgox suratlarida o‘z ifodasini topdi. Sanatkorlar uygonish davri san’ati xamda barokko ustalarining ilg‘or ananalarini davom ettirib, Italiya san’atining shuxratini oshirdilar. Bunda Venesiya rassomlik maktabining roli, ayniqsa, katga bo‘ldi. Bu maktab rassomlari o‘z ijodlari bilan Yevropa san’ati taraqqiyotida xam muxim rol o‘ynadilar.

**Jovanni Battisto Tepolo** (16%-1770), Venesiya rassomlik maktabining yutuqlari **Tepolo** ijodida mujassamlashdi. U Italiya san’ati yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirib, barokko uslubini yanada mukammallashtirdi. Xayotlik vaqtidayoq katta shuxrat qozongan bu rassom juda ko‘p maxobatli dekorativ va dastgox, suratlar yaratgan. Rassomning xisxayajonga to‘la, serxarakat kompozisiyalari uning vokelikning illyuzion tasvirini ishlashdagi yuksak maxoratidan dalolat beradi. Kompozisiyada odamlarning murakkab rakurslardagi xolatlari, fazoviy bo‘shlikning maxorat bilan tasvirlanishi asarning tasirchanligini oshirishda muxim rol o‘ynaydi. Rassomning ilk asarlari o‘zining nixoyatda boy fantaziyasi, besaranjom shakllar xarakati, nur va soyaning keskin olinishi va dekorativ xususiyatlari bilan esda qoladi(masa-lan. Venesiyadagi Dolfino saroyi devor va shiplariga ishlangan rasmlar turkumi). XVIII asr o‘rtalaridan rassom dastxatida erkinlik va ekspressiya kuchayadi, rang tizimida nozik qochirimlar va o‘yin paydo bo‘ladi. Asarlari yorqinlashadi. Venesiyadagi Jezuati va Skalsi ibodatxonalari shiftiga ishlangan rasmlar shu jixatdan etiborli. Tepolo boshqa mamlakatlarda xam ishladi. Jumladan, Madridda ispan qiroli saroyini bezadi. **Tepolo** san’atda xam qator asarlar yaratdi. Ular ishlash texnikasining yuksakligi, obrazlarning xis-xayajonga to‘laligi bilan esda qoladi ("Amfitrita zafari", "Munajjimlar ta’zimi" va boshk)

XVIII asr Venesiya san’atida atrof ko‘rinishlarini aks ettiruvchi manzara janri (veduta) keng yoyildi. Bu janrda ishlagan rassomlar shaxar va uning atrofi ko‘rinishini tipografik aniqlikda tasvirlashni o‘zlarining asosiy maqsadlari, deb bildilar. Ana shu janrda samarali ijod qilgan rassomlardan biri Kanalletto nomi bilan mashxur bo‘lgan **Antonio Kanale** (1697-1768) xisoblanadi. U o‘z asarlarida shaxar kanal va maydonlarni, odamlarga to‘la gandolalarni, Venesiyaning o‘ziga xos nam xavosini, nurga tula maydonlari, gandolalar xarakati bilan jonlangan kanallarni nihoyatda aniq va shoirona tasvirladi. Shaxar xayotidagi muxim voqealarni aks ettirdi (masalan, "Fransuz elchisining Venesiyaga kelishi"). Bu yillarda manzara janrida rassom **Bernaro Belotto** (1720-1785) xam ijod kyeldi. U Saksoniya va Polshada ijod qildi. Bu rassom memorlik majmualarini juda nozik xis etgan xolda, tabiat qo‘ynida tasvirladi. XVIII asr Italiya san’atining so‘ngi yirik vakili Franchesko Gvardi (1675-1757) bo‘lib, u manzara, maishiy va tarixiy janrlarda ijod qildi. Le-kin manzarachi rassom sifatida shuxrat qozondi. U ko‘proq **Konaletto** ishlagan mavzularda rasm chizdi. Bu rasmlar xajm

jixatidan katta bulmasa xam, lekin o‘zining rang surtmalarini erkin ishlatishi, yorqin ranglari va nozik poetik kayfiyat ifoda qilishi bilan chuqur taassurot qoldiradi.

XVIII asrda Rim. Vezuviy vulkanining otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompei va Gerkulanum shaxarlarining ochilishi antik san’at va madaniyatga qiziqishni oshirib yubordi.

Nemis san’atshunosi **Iogann Ioxim Vinkelmanning** (1717-1768) "Qadimgi san’at tarixi" kitobi bu qiziqishni yanada oshirdi Arxeolog, graver va memor, qalam suratlar ustasi **Jovanni Battista Piranezi** (1720-1778) ning gravyuralari xam yevropaliklarning antik san’at to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirdi. Natijada, Rim nafaqat Italiya, balki Yevropaning xam badiiy markaziga aylandi. Shu boisdan, "Rim mukofoti" ni tasis etdilar. Rimda fransuz, nemis, daniya, rus va boshqa xalqlar rassomlari o‘z malakalarini oshirdilar.

## XVII-XVIII ASRLARDA ISPANIYA SAN’ATI

XVI asrning 80-yillaridan XVII asrning 80 - yillariga qadar bo‘lgan davrda ispan san’ati o‘zining eng gullagan "oltin" davrini boshidan kechirdi. Bu rivojlanish, ayniqsa, teatr va adabiyotda (Servantes, Lope de Vega), tasviriy san’atning dastgoh rangtasvirida yorqin namoyon bo‘ldi. Memorlik va xaykaltaroshlik san’atida xam ayrim pozisiyalarini, odatda, bevosita real borliqdan etyud xolidla ishlab, uni umumlashma obraz darajasiga ko‘tarishga intiladi. Asardagi yorug‘-soya qarama-qarshiligi rassom dastxatining to‘laqonli ko‘rinishini ta’minlaydi. Rangsurtmalarining erkin va quyuq ishlatilishi uning asarlariga plastik kuch bag‘ishlaydi, obrazlardagi ulug‘vorlikni oshiradi. Bular **Riberani Karavajoga** yaqinlashtiradi. "Avliyo Varfolameyni qiynash" (1630) rassomning ilk asarlaridandir. Bu asar rassom ijodiga xos xalq vakillarini to‘laqonli ko‘rsatishi va ifodaning jo‘shqinligi bilan etiborni jalb etadi. Rassom sodir bo‘layotgan voqea fojiaviyligani aniq va tasirchan ifoda etadi. Tasvirlangan qiyofalardagi ekspressiya, rassom dastxatining xarorati asar dinamikasini kuchaytiradi. Rassom odam gavdasini yuksak maxorat bilan tasvirlash orqali o‘zining yoruk-soya imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish kobiliyatini namoyon qiladi. Uning bolalarga bag‘ishlangan asarlari xam o‘zining samimiyligi bilan ajralib turadi. "Cho‘loq bola" asari, ayniqsa, etiborlidir. Nogiron bolaga nisbatan chuqur samimiylik va xurmat bilan ishlangan bu asarda optimistik rux mavjud. Rassom sho‘x xatto, biroz qitmir bola obrazini ishonarli talqin etadi. Rassomning ijodiy kamolotga erishgan yillarda yaratgan asarlarida ranglarning bir biriga otashin mayin, ularning koloriti yorqin. Yorug‘lantirishda tabiiylik kuchayib boradi. "Avliyo Onufriy" (1627), "Avliyo Inessa" (1641) kabi asarlari shu jixatdan etiborlidir. Rassom tasvirlanuvchining ichki kechinmalarini lirik ruxda tasvirlashga xarakat qiladi. Uning kompozisiyalaridagi kenglik xavo bilan to‘la boshlaydi. Bu obrazni yanada tasirchan bo‘lishini taminlaydi.

**Franchesko Surbaran** (1598-1664). XVII asr ispan realistik san’atining rivojlanishida **Franchesko Surbaran** ijodi aloxida urin tutadi. Sevilyada tug‘ilib o‘sgan Franchesko keyinchalik o‘z yurtining bosh rassomi unvoniga sazovor bo‘lgan. Uning ijodida XVII asr badiiy ideali o‘z ifodasini topgan. U ispan realistik san’atining rivojlanishiga samarali xissasini qo‘shgan. Surbaran diniy mavzularda xam suratlar chizgan va ularda o‘z davrining xayoti to‘g‘risida xikoya qilgan. Uning kompozisiyalari sodda. Yaratgan obrazlari oddiy. Rassom kompozisiyalar uchun o‘z zamondoshlariiing qiyofasini tanlaydi. Naturadan rasmlar ishlab, tasvirlanuvchining ruxiy xolatini, tasvirlanayotgan buyumlarning fakturasini aniq ko‘rsatishga xarakat qiladi. Rassomning ijodiy metodi uning afsonaviy avliyo **Boneventuri** xayotiga bag‘ishlangan turkum asarlarida yorqin ko‘rinadi. Surbaran shu asarlar turkumini yaratish uchun o‘z davrining monastirlaridan birini tanlagan. U yerdagi xayotni tasvirlagan. Rassom portret va natyurmortdarda xam yetuk asarlar yaratgan.

**Diyego de Silva de Mariya Velaskes** (1599-1660). G‘arbiy Yevropaning yirik rassomi Sevileda qashshoqlasha boshlagan dvoryan oilasida tug‘ilgan. Shu yerda Pacheko degan rassom qo‘lida dastlabki malumot olgan. **Pacheko** romantizm vakili, **Rafael** tarafdori bo‘lgan**. Velaskesning** ilk asarlarida o‘kituvchisi tasiri seziladi. U ko‘proq realistik san’atda ijod qiladi. Uning "Nonushta", "Suv sotuvchi" asarlari juda tasirchan yaratilgan. Rassom diniy mavzularda asarlar ishlay boshlagan ("Munajjimlar ta’zimi", 1619). 1623 yili **Velaskes** Madrid shaxriga borgan. U yerda portretchilik bilan shug‘ullangan. YOSH qirol **Filip IV** portreta unga katta shuxrat keltirgan. U qirol saroyi rassomi bo‘lib tayinlangan. Portret uning ijodida yetuk o‘rin egallaydi. 1620 yilda uning ijodida erkinlik paydo bo‘la boshlagan. "Vakx" yoki "Ichuvchilar" shunday asarlaridan bi-ridir. 1629 yili Italiyaga sayoxatga borgan. Tisian, Tintoreto, **Veroneze** ijodi bilan yaqindan tanishgan. XVII asrdan boshlab, inson mexnati go‘zalligi san’atkorlarni diqqatini torta boshlagan. San’atkorlar mexnat mavzuida yirik asarlar yarata boshlagan. Yevropa san’atida **D. Velaskes** birinchi bo‘lib mexnat go‘zalligini shoirona, ko‘tarinki ruxda talqin etgan. Uning "Gilam to‘quvchilar" deb nomlangan asari ana shulardan dastlabkisidir. Rassom odsiy kundalik mexmat timsolida insonlarning baxt xaqidagi orzularini ko‘ra olgan. Kompozisiyadagi obrazlarning mexnat qilishlari, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etilgan. Xonani to‘ldirib turgan nur esa tinch osoyishta xayot go‘zalligini ko‘rsatgan. **Velaskes** tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asarlarni yaratgan. Yevropada realistik tarixiy janr rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan. Uning "Breda shaxrining topshirilishi" asari shunday tarixiy voqeaga bag‘ishlangan. Unda Gollandiya qalasining ispan qo‘shinlari tomonidan zabt etilishi tasvirlanadi. Rassom dramatik voqeani gavdalantirgan. Ispan qo‘shinlarining qo‘mondoni Spinola mag‘lubiyatga uchragan Gollandiya qo‘shinlari qo‘mondoni tomonidan ramziy kalitni olayotgan payt tasvirlangan. Gollandiyaliklarning mag‘lubiyatini tan olishgani, ispanlar jasoratiga oliyjanoblik bilan javob berishga intilayotgani aniq gavdalan-tirilgan. Rassom xar bir tasvirlanuvchining ruxiy xolatini aniq ko‘rsatishga xarakat qilgan. "Kalit topshirish" akti orqali olijanoblik ulug‘lanadi. 1630-40 yillarda Velaskes portret san’atida mashxur asarlar yaratdi. Ularda insonning boy ichki dunyosi yuksak maxorat bilan aks ettirilgan. "Innokentiy X portreti" jaxon realistik san’atining nodir yodgorligi xisoblanadi. Unda tomoshabinga qarab turgan Rim papasi Innokentiy tasvirlangan. Portretda qattiq qo‘l va ayyor, shu bilan birga, dono va ziyrak shaxs qiyofasi ko‘rsatilgan. **Velaskes** buyuk sanatkordir. U O‘Z asarlarida xalkparvar g‘oyalarni ilgari surgan, oddiy kishilarga bo‘lgan zo‘r muxabbatini shoirona talqin etgan**. Velaskes** oddiy kishilar xayotiga murojaat qilib, undagi go‘zallikni ko‘ra oldi. Shuning uchun xam bu asarlar bugungi kunda xam O‘Z qiymatini yo‘qotmagan. Rassom uz kaxramonlarini burttirmagan. Ularni qanday bilsa shunday tasvirlagan. Bu xam uning portretlarining rang-barang bo‘lishiga xizmat qilgan**. Velaskes** valyor rangtasvirida asarlar yaratgan dastlabki rassomlardandir. Uning asarlariga ilik va sovuq ranglar o‘yini, nur va rang tovlanishlari aloxida joziba baxsh etgan. O‘rinli topilgan rang surtmalari esa asar fakturasiga o‘ziga xoslik kiritgan. Uning rang va nur soxasidagi kashfiyoti keyinchalik Yevropa san’ati tarixida muxim axamiyatga ega bo‘ldi.

**Bartolome Esteban Murilo** (1617-1682). XVII asr ispan san’atining so‘nggi vakili **Murilo** diniy va xayotiy mavzularda rasmlar ishlagan, portretlar chizgan.

U ispan realistik san’atiga xos an’analarni saqlashga xarakat qilgan xolda, mungli lirik asarlar yaratdi. Muril’o realizmi ko‘proq janrli kompozisiyalarda ko‘rinadi. Lekin ular bir muncha mungli, g‘amgin ("Misr yo‘lidagi dam olish 1665-70, "Bola ko‘gargan Madonna" 1670). Rassom bolalarga atab ham kompozisiya ishlagan. Ularda bolalarga xos samimiylik, sho‘xlik va beg‘uborlik ulug‘lanadi ("Meva ko‘targan bola", 1645**). Murilo** asarlarida xikoya nafislik mavjud. Ularda xayotiy voqealar tasirchan gavdalantiriladi.

# XVII-XVIII ASRLARDA FRANSIYA SAN'ATI.

XVII asrga kelib, monarxiya tuzumi mustaxkamlandi. Viloyatlar markazga bo'ysundirildi. Absolyutizm o'zining mumtoz ko'rinishini namoyon etdi. Bu mamlakatda burjua munosabatlarining rivojlanishi, uning iqtisodiy mustaxkamlanishini ta'minlab, Fransiyani Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi Bu davr "buyuk asr" **(Volter)** nomi bilan tarixga kirdi. Monarxiya dvoryan va burjua guruxlariga tayangan xolda, shakllanib kelayotgan burjua jamiyatining feodalizm bilan kurashishida kuchli qurol vazifasini o'tadi. Milliy madaniyatda ko'tarilish yuz berdi. Dekart, Gassend kabi ijodkorlar yetishib chiqdi. Karnel, Rasin, Molyer kabi yozuvchilar Fransiyani dunyoga tanitishdi. Musiqa, tasviriy san'at, memorchilik borasidagi yutuqlar keyinchalik Yevropa san'ati rivojida muxim rol o'ynadi. 1648 yili rassomlik va xaykaltaroshlik qirol akadyemiyasi, 1671 yilda esa memorchilik akademiyasining tashkil etilishi san'at ravnaqida katta axamiyatga ega bo'ldi. Klassisizmiing rasmiy badiiy-adabiy uslub sifatida etirof etilishi san'atning ravnaq topishida muxim rol o'ynadi. Bu uslub rivojlanishiga Dekart falsafasi, **Gassend** qarashlari tasir etdi. XVII asr shaxar va shaxardan tashqarida qurilgan memorlik majmualari, qirol va zodagonlarning qarorgoh va saroylari, burjua boylarining uylari klassisizm uslubining rivojlanishida muxim omil bo'ldi. Mashxur Luvr saroyining sharqiy tomoni ko'rinishi memor **K. Perro,** 6-rasm), Versal saroy bor majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar xamda jamoat binolari qurildi.

XVII asr birinchi yarmi san'ati uslub jixatdan xam rang barang. Unda bir tomondan Italiya renesansi va barokko tasiri sezilsa, ikkinchi tomondan klassisizm paydo bo'la boshlagani bilinadi. qirolicha **Mariya Medichi** uchun ko'rilgan Lyuksemburg saroyi, ayniqsa, diqqatga loyiq Mansar, Lui Levo, Jak **Lemerse** kabi memorlar shu davr yunalishlarini o'z ijodida belgilab berdilar.

Odatda, XVII asr fransuz san'ati ikki davrga ajratib o'rganiladi. Bu Fransiyaning siyosiy axvoli va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jumladan, XVII asrning birinchi yarmida xali absolyut monarxiya to'la xukmronlikka erishmagan, keng omma jamiyatning siyosiy xayotida ishtirok etmagan edi. Bu san'at va madaniyatda turli oqim va yunalishlarni keltirib chiqardi, turli mavzu va ishlash usullari bulishini taminladi. qirol saroyi bilan borliq va rasmiy badiiy xayetda yetakchi o'rinni egallagan san'atkorlar ijodida dekorativlilik va serxashamlik xamda jimjimadorlikka intilish kuchaydi. Borlikni birmuncha ideallashtirib ishlashga intilish ular ijodida **barokko** san'atining nafislashib borayotgan ko'rinishini namoyon etdi. Bu jixatdan, avvalo, **Simon Vue** (1590-1649) ijodi muxim o'rinni egallaydi. Saroy rasmiy san'atining yirik vakili va yo'lboshchisi Vue yoshlik yillarda Italiyada yashab Karavajo tasirida bo'ldi. Lekin keyinchalik uning ijodida **Balone** maktabi tasiri yetakchi urinni egallab, kamolga erishgan davrdagi asarlarining xarakterli jixatiga aylandi. Rassom afsona va **Bibliyaga** murojaat qilib, ulardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi ("Avliyo Yevotafiyani jazolash", "Gerakl Olimp xudolari orasida"). **Vue** asarlarini o'ziga xos tasirchan qilib ishlashga intiladi. Shu maqsadda u obrazlarni ideallashtirishga, ishlatilgan buyum va shakllarning nafis va jimjimador bo'lishiga, ranglarning serjilva bo'lishiga g'oyat etibor beradiki, bu uning yaratgan asarlari kompozisiyasining ko'p so'zli, koloritini esa ralati bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin shunga qaramasdan uning asarlari ko'pchilik tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olindi, saroy va umuman fransuz rassomlari tomonidan etirof etildi. Unga taqlid qiluvchilar ko'paydi. Shu tarzda, **Vue** ijodi tasirida fransuz san'atida **barokko** san'ati tamoyillari keng yoyildi.

Realistik san'at ravnaqi bevosita fransuz jamoasining demokratik tabaqasi san'atkorlari ijodi bilan borliqdir. Fransuz realistlari o'z asarlarida xalqning kundalik

turmushiga murojaat qildilar, aloxdsa kishilarning xarak-terini ochishga intildilar. Bu rassomlarning ko‘pchiligi
fransuz viloyatlaridan chiqqan va saroy aristokratok san’-atidan bir qadar uzoqda bo‘lishgan. Bu esa ular asarlariga o‘ziga xos qaytarilmas mazmun baxsh etib, fransuz reali-stik san’atining rang-barangyayapti beyagilagan.

Jak Kallo (1592-1635) XVII-asr fransuz realistik san’atining birinchi yirik vakili, grafik va qalam suratlar ustasi, ofortchi Kallo edi. U Fransiyaning Nansi viloyatida tug‘ilgan, tasviriy san’at asoslarini boshqa ko‘pgina fransuz san’atkorlari singari Italiyada o‘rgangan. U dastlab Rimda yashagan. Sungra Fdorensiyada **Toskan Gersogi** saroyida rassom bo‘lib ishlagan. Uning asarlari mavzusi keng va rang-barang. Diniy mavzuda yaratgan asarlari salmoqli o‘rinni egallaydi. Lekin florensiyaliklar xayotiga bag‘ishlangan asarlari uning ijodining muxim jixatini belgilaydi. Florensiyada Kallo "**Kapripchi**" (1617) deb nomlangan dastlabki grafik asarlari turkumini yaratgan. Bu turkumda u florensiyaliklar turmushiga bag‘ishlangan rang barang xayotiy lavxalari tasvirlagan. Rassom o‘z obrazlarining esda qoladigan va ifodali bo‘lishiga harakat qilgan. Tilamchilar", "Bukirlar" deb nomlangan asarlar turkumi xamda italyan komediyayaari personajlarini aks ettiruvchi asarlari uning ijodining ilk namunasi sanaladi. Ular o‘zining xayotiyligi, detallarining jonliligi bilan ajralib turadi. ("Florensiyadagi yarmarka"). **Kallo** Italiyada 13 yil (1608-1621) yashab, ijodiy kamolatga erishgach, o‘z yurtiga qaytadi. Xalq xayotini aks ettiruvchi jiddiy va chukur mazmunli asarlar yaratadi. Oddiy kishilarning og‘ir tur-mushini o‘z asarlarida achinish bilan ifodalaidi. Kallo ijodining so‘nggi davrida yaratilgan asarlar ichida "Urushning katta va kichik talafotlari" (1630) asarlari turkumi ajralib turadi. Bu asarlarida rassom urush fojiasini va keltirgan talafotlarni yuksak maxorat bilan tasvirlaydi. Bu bilan u uzining real voqelikka tanqidiy munosabatlarini namoyon qiladi. Urush xalkkd jabr zulm janligini, xarbiylarning talonchiligi va vaxshiyligini qoralaydi (masalan, "Fermaga xujum", 7-rasm). **Kallo** ijodining so‘ngi davrida manzara janriga murojaat qiladi. U o‘z manzaralarida xavoga va nurga to‘lgan bepoyon kengliklarni ustalik bilan tasvirlaydi. Xavo perspektivasi imkoniyatlaridagi unumli foydalanadi. **Kalloning** realistik manzaralari keyinchalik fransuz realistik manzara rassomligi rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘pgina fransuz san’atkorlari italyan rassomlari, jumladan **Karavajo** va uning davomchilari ijodiga xurmat bilan qarab, ularning ishlash uslublarini O‘Z ijodlariga tadbiq etdilar. Ular xoh diniy, xoh xayotiy mavzuda bo‘lmasin, xalq obrazini to‘laqonli realistik yaratishga, xayot xodisalarini aniq tasvirlashga xarakat qildilar.

Bunday rassomlar orasida **Jorj de Latur** (1595-1652) ijodi aloxida ajralib turadi. U diniy va xayotiy mavzuda ko‘pgina asarlar yaratdi. Tungi oy nuri yoki suniy yorug‘lashtirishni gavdalantirib, suratlar ishladi. U ishlagan xar bir surati to‘laqonli, xajmli, salmoqli bo‘lib chiqishiga xarakat qilgan va buning uchun nur imkoniyatlaridan juda o‘rinli foydalangan.

XVII asr fransuz realistik san’atida aka uka **Lenenlar** ijodi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uch aka uka **Lenenlar** (Antuan 1588-1648, **Lui** G595-1648, **Mete** 1607-1677) xamkorlikda turli syujetlarda rasmlar ishladilar. Maishiy janr esa ular ijodida yetakchi o‘rinni egalladi. **Lui Lenen** fransuz san’atida dexqonlar xayotiga bagishlagan janrni boshlab bergan rassom xisoblanadi. Uning asarlari O‘ZINING xayotiyligi, kompozisiyasining soddaligi bilan ajralib turadi.

XVII asr o‘rtalari va ikkinchi yarmidan boshlab fransuz san’atida klassisizm asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi**. Nikola Pussen** (1594-1665) klassisizmning yirik vakili sifatida uning butun imkoniyatlarini ruy-rost namoyon qildi. **N.Pussen** Fransiyaning shimoliy shaxarchalaridan birida xarbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Tasviriy san’at asoslarini shu yerdagi rassomlardan o‘rgandi. 1610 yil boshlarida

**Pussen** Italiya bo‘ylab sayoxat qildi, Uygonish davri san’ati namunalari bilan tanishdi. Ayniqsa**, Rafael** ijodi unda katta taassurot qoldirdi. Rassomning diniy voqealarga ishlagan suratlarida **barokko** tasiri seziladi ("Avliyo Erazmanini jazolash", "Butdan tushirish"). Aksincha uning mifologiya asosida ishlagan suratlarida Tisianga xos, rang idrok qilish va xayotni to‘laqonli anglash seziladi. Bu suratlar ko‘tarinki ruxda chizilgan. Yozuv uslubi xam erkin, koloriti iliq nurga boy. Shu davrda yaratilgan mashxur asarlaridan biri "Uxlab yotgan Venera" da rassom ijodiga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topgan.1620 yil oxirlaridan boshlab, **Pussen** ijodida klassisizmning o‘ziga xos tomonlari ko‘rina boshladi. Ishlagan asarlarida obrazlarni ideallashtirish va kompozisiyani aqlidrok orqali tartibga keltirishga intilish seziladi (masalan, Termanikning o‘limi" 1627, Go‘daklarni o‘ldirish", "Tankred va Erminiya" 1630). "Tankred va Erminiya" asa-rida (8-rasm) rassom Amazonka Erminiyaning o‘z raqibi yaralagan risar Tankredga nisbatan uyg‘ongan muxabbati tasvirlanadi.

Asarda yaralangan Tankredni juda extiyotkorlik bilan ko‘tarayotgan Badrin (Tankredning do‘sti) va oq otidan tushib, o‘z qilichi bilan sochini kesib, yarador Tankredning yarasini bog‘lash uchun xarakat qilayotgan Erminiya ko‘rsatiladi. Asarda ikki qaramaqarshi obraz bir tomondan, xayotdan ko‘z yumayotgan Tankred va ikkinchi tomondan, xayajonlanayotgan Erminiya xattixarakatlari tasirchan ifoda qilingan. Tankred va uning do‘sti ustidagi temir niqob va xilpirayotgan Erminiya kiyimlari asarning dramatikligini oshiradi. Botib borayotgan quyoshning shafaq nurlari esa bo‘lib o‘tgan vokqealardagi qayg‘uni bildiradi. **Pussen** ijodiga xos muxim xususiyatlardan biri voqelikni xarakatda tasvirlashdir. Bu rassom xarakatni "gavdaning tili" deb tariflaydi. Rassom gavda xarakati, yuzda bo‘ladigan mimik o‘zgarishlar, imoishoradan shaxsning ichki dunyosini tariflashda foydalanadi.1630 yillarga kelib, **Pussen** ijodida xayot to‘g‘risidagi mungli falsafiy qarashlar namoyon bo‘la boshladi. Inson xayoti nixoyatda qiska va o‘tkinchi ekanligini achinish bilan ifodalaydi. "Arkad cho‘ponlari" (1632) asarida bu yaqqol seziladi. Surat syujeti qadimgi afsonalardan olingan bo‘lib, rassom unga falsafiy mazmun bergan. qabr toshidagi "Men xam Arkadiyada bo‘lgan edim" degan yozuv yosh cho‘ponlarni uylantirib qo‘ygan. 1640 yil oxirlariga kelib, **Pussen** manzara janriga murojaat qila boshlaydi. Tabiat ko‘rinishidagi ulug‘vorlik, bepoyonlik, sirga to‘la xolat rassomni xayajonlantiradi. **Pussen** tabiatni odamlarsiz tasavvur eta olmaydi. Rassom asarlarida tabiatni ulug‘vor va cheksizligini ifoda qiladi. Ularda inson va tabiat uyg‘unligi, inson tabiat oldida kichik zarra ekanligi talqin etiladi**. Pussen** ijodining so‘nggi bosqichi namunasi "Polifemli manza-ra","Gerkules va Kakus jangi", "Manzara" asarlari xisoblanadi.

"Gerkules va Kakus jangi" asari syujeti I asr Rim yozuvchisi Vergiliyning "Eneida" poemasidan olingan. Unda antik qaxramon Gerkulesning Kakus bilan bo‘lgan jangi xikoya qilinadi. Kompozisiyada tabiat ko‘rinishi asosiy o‘rinni egallaydi. Maxobatli tog‘, baland daraxtlar, osmondagi bulutlar ulug‘vor, tabiat ko‘rinishini yaratadi. Shu tabiat qo‘ynida tasvirlangan Gerkules va mag‘lubiyatga uchragan Kakus ko‘rinishi bu ulug‘vorlikni buzmagandek. Rassomning yil to‘rt fasliga bag‘ishlangan asarlari inson xayotining to‘rt fasl ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. **Pussen** ijodida qalamsurat xam aloxida o‘rin tutadi. Bu suratlar bo‘lajak asarning yaratish paytida ishlangan bo‘lib, rassom xar bir asari kompozisiyasi ustida uzoq vaqt ishlaganligini va kompozisiya yaratish borasida izlaganligini ko‘rsatadi. Uning qalam suratlaridagi tabiat ko‘rinishlari tasviri tasdiqlaydi. **Pussen** ijodi fransuz san’ati tarixida muxim o‘rinni egallaydi. U yaratgan mumtoz uslub fransuz san’atida keyingi asrda davom etdi, rivojlantirildi**. Pussen** vafotidan keyin shogirdlari qaramagan bo‘lsa xam, lekin XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Ko‘prina rassomlar uning ijodiga qiziqish bilan qaray boshladi. Uning xaqiqiy davomchisi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarda yashab ijod etgan **Jak Lui David** bo‘ldi.

**Klod Lorren** (1600-1682). Klassisizmning yirik vakili, klassik manzarani taniqli namoyandasi **Klod Jelle** (Lrrren uning adabiy taxallusi) yoshligida Italiyaga kelib qoldi. Keyingi xayoti Rim bilan bog‘liq bo‘ldi**.** **Lorren** asosan klassik manzarada ijod qilgan. Uning manzaralari lirik xis tuyg‘u bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular ko‘p xollarda mungli kayfiyatda tasvirlanadi. Rassom asarlarida tabiat tinch xolatda ko‘rsatiladi. Uning asarlarida yarim vayrona bo‘lgan antik yoki afsonaviy memorlik qoldiqlari ko‘rkam daraxtlar fonida g‘oyat jozibali ko‘rinadi.

**Lorren** klassik manzara san’atining vakilidir. Uning kompozisiyalari aniq tartibda ishlangan. Lekin bu uning realistik xarakteriga putur yetkazmaydi. Rassom xavoga to‘la bepoyon kenglikni ustalik bilan ko‘rsatadi. Undagi nur va soya tovlanishlarini maxrrat bilan gavdalantiradi. Rassomning Tong" (9-rasm), "Tush payti", "Kechki payt" asarlari o‘ziga xos rang tizimida yechilgan. **Lorren** qalamsurat san’atida xam samarali ijod qildi. Uning naturadan ishlagan suratlari xamda ofortlari o‘zining xayotiyligi bilan ajralib turadi va rassomning kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Rassom klassik manzara janrining mukammal ko‘rinishini yaratdi. Uning ijodi keyinchalik fransuz va Yevropa san’atiga sezilarli tasir o‘tkazdi.

**Filipp de Shampen** (1602-1674) portret san’atida samarali mexnat qilgan san’atkorlardan. Asli finlandiyalik bo‘lgan bu rassom yoshligida Parijga kelgan. Rassomning keyingi xayoti shu yerda o‘tgan. U o‘z ijodida flamand rang-tasvir yutuqlarini, **Pussen** hamda balone akademizmi ananalarini uyg‘unlashtirishga intilgan. **Shampen** temetik kompozisiyalari diniy mavzuda bo‘lib, ularda rassom xar bir asarining tashqi tasirchanligiga etibor beradi. Uning portretlari xam chuqur mazmunli, xaqqoniy ishlangan. Ayniqsa, **Kardenal Reshele** portreti mashxur. Rassomning ko‘pgina yarim belgacha chizilgan portretlari o‘zining chuqur psixologizmi, jiddiyligi va manodorligi bilan etiborni tortadi.

**Lyudovik XIV** (1661-1715) podsholik qilgan davrda xam absolyutizm o‘zining eng mukammal ko‘rinishiga erishdi, xam inqirozga yuz tuta boshladi. Dastlabki yillarda absolyutizm malum manoda mamlakatning milliy iqtisodiy jonlanishi, manufaktura sanoati rivojlanishi uchun xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik u mamlakatning iktisodiy rivojlanishiga asta sekin to‘skqinlik qila boshladi.

**Lyudovik XIV** oshib borgan urushlar xamda saroy kiborlarining xaddan tashqari serxashamlikka intilishi, tantanali bayramlari, turli marosimlari xalqnnig axolini og‘irlashtirdi, g‘alayonlarni keltirib chiqardi. **Birokq Lyudovik** XIV davri san’at va madaniyatga kuchli tasir xam ko‘rsatdi. Agar XVII asr birinchi yarmida san’atda turli oqim va yo‘nalishlar bo‘lishiga imkoniyat bo‘lsa, keyinchalik esa faqat absolyutizmny ulug‘lash va unga sajda qilish san’atning bosh yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Chunki, klassisizm bu davr mafkurasi uchun mos tushdi. va shu davrning asosiy uslubi bo‘lib qoldi. Lekin bu yo‘nalishdagi asarlarda klassisizmga xos ulug‘vorlik, tantanavorlikdan ko‘ra xisxayajonga to‘la **barokko** tasiri kuchli bo‘ldi. Klassisizm davrning asosiy yo‘nalishiga aylanishida 1648 yilda tashkil etilgan Badiiy Akademiyaning roli, ayniqsa, sezilarli bo‘ldi. Akademiya bu davrda absolyutizm targ‘ibotchisi sifa-tida mamlakat badiiy xayotiga xukmronlik qildi. U san’at ustidan nazorat olib boradigan va uni rivojlanishini boshqaradigan muassasaga aylandi.

"Yuksak" va "tuban" janrning yuzaga kelishida akademiya asosiy rol o‘ynadi. Tarixiy janrda yaratilgan asarlar yuksak janrdagi asarlar sifatida maqtaldi. Aksincha, oddiy xayotiy voqealarni ifodalovchi san’at asarlari "tuban" janrdagi asarlar qatoriga kiritildi. Mifologiya, allegorik syujetlar asosida ishlangan, diniy va tarixiy mavzudagi asarlar o‘z o‘zidan yuksak janrga mansub deyildi. Bu asarlarni antik san’at ananalariga, Rafael, Balone akademizmi, **Pussen** ananalariga shaklidan ishlash asos qilib olindi. Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan va san’atni "tartibga" solish soxasidagi bu qonun qoidalar davr san’atida yagona yo‘nalish xukmron bo‘lishiga va san’atda rang

baranglikning yo‘qolishiga sabab bo‘ldi. Bu davrga kelib, memorlik yetakchi san’at turiga aylandi. Absolyutizm xashamatli va katta memorlik majmualari orqali sharaflandi, san’atning boshqa turlari xam shu yo‘nalish bilan borliq xolda rivojlandi. Aristokratiyaning nafis amaliy buyumlarga bo‘lgan talabini qondirishga qirol Gobelen manufakturasi muxim rol o‘ynadi. Bu yerda qirol saroyini bezash uchun zarur uy anjom buyumlari, mebel, shpaler va boshqa buyumlar ishlab chiqarildi. Bu buyumlar qirol saroyi zodagonlarini buyurtmasi va talabi asosida bajarildi. Memor, xaykaltarosh, rassom va amaliy san’at ustalarining xamkorlikda ishlashlari bu yillarda san’at turlari o‘zaro uyg‘unlashini taminlab, ajoyib memorlik majmualari namunalari yaratilishiga sabab bo‘ldi. Xiyobon bog‘ (park) san’ati ravnaq topishi keyinchalik Yevropa san’atining rivojlanishiga katta tasir o‘tkazdi. XVII asr fransuz memorchiligining nafis yodgorligi Versal saroyi majmuasi (1603-1689) Lyudovik XIV ning qarorgoxi edi. **Lui Levo** (1604-1670) xiyobon bog‘ san’ati ustasi **Andre Lenotr** (1613-1700) tomonidan boshlangan va memor **Jyul Ardruyen Mansar** (1646-1708) tomonida tugallangan bu majmua absolyutizm g‘oyalari qirol xoki miyatining abadiyligini aks ettiradi. Bu G‘OYA majmu kompozisiyasining yechimida namoyon bo‘ladi. Ansambl markazida qirol qarorgoxi saroyi joylashgan bo‘lib, u tevarak atrofidagi maydonni o‘ziga bo‘ysundiradi va yaxlit lashtiradi. Uning atrofidagi tabiat aniq simmetrik reja asosida tashkil etilgan. Saroyning old tomoni serjilo va sodda, binolari esa tantanavor va sipo qilib ishlangan. Saroyning markaziy binosida qabulxona va bal o‘tkazishga mo‘ljallab qurilgan xonalar dekorativ bezakka boy. Saroyning markaziy xonasi qirolning yotoqxonasi bo‘lib. Unga boradigan zallarga nixoyatda jozibali bezaklar bilan ishlov berilgan.bezatilishiga aloxida etibor berilgan. Xiyobon bog‘ rejaga muvofiq qatiy yagona o‘k atrofida qurilgan, uning asosiy xiyoboni atrofiga favvora va xaykallar simmetrik asosida joylashtirilgan. Markazdagi katta xovuz esa unga tugallik bergan. Bronza va marmardan ishlangan xaykaltaroshlik asarlari xiyobonga ko‘tarinki rux kiritgan. Bu xaykallar dekorativ maqsadda ishlangan.

XVII asrning ikkinchi yarmida fransuz haykaltaroshligi ko‘proq dekorativ va park san’ati bilan bog‘liq xolda rivojlandi. Fransuz plastikasining ana shu rivojida yirik fransuz xaykaltaroshi, rassom va memori **Per Pyuje** (1620-94) ijodi ajralib turadi. **Pyuje** O‘Z ijodini yog‘och o‘ymakorligi bilan boshlagan. Italiya buylab kezgan, Rim va Florensiyada yashagan. Mikelanjelo, Bernini, Karana ijodidan tasirlangan. Uning ilk asari Tulondagi ratusha peshtoqi uchun ishlangan xaykalidir. Unda paxlavonning balkon balyustradasini ko‘tarib turgan payti dramatik talqin etilgan. Xaykaldagi dekorativ detallarning boyligi, xajmlarning ifodali va yoqimli nursoyasida tovlanishi uniig tasirchanligini oshirishda muxim o‘rin egalagan. Paxlavonlarning bo‘rtgan mushaklari, baquvvat gavdalari xamda qiyofalari san’atkorning o‘z kompozisiyalarining xayotiy bo‘lishiga intilganligidan dalolat beradi. "Dam olayotgan Gerakl" xaykalida xam jismoniy kuchli kishi qyofasi yuksak maxorat bilan ishlangan**. Pyujenning Versal** uchun ishlagan " Milonli Kratok" xaykalida inson azob uqubati va unga bardoshi tasirchan talqin etilgan. Daraxt yorig‘iga kirib qolgani uchun sherdan yengilib xalok bo‘layotgan paxlavon fojeasi xayajonli va dramatik talqin qilingan. Uning xatti xarakatida bu daxshatli vaziyatdan qutilishga intilish ko‘rsatiladi. Uning qiyofasi, gavda va qul mushaklarining taranglashganligi uning azoblanishi va kuch qudratini ishonarli namoyon etadi. Umrining so‘ngida yaratgan bu asari, san’atkorning yuksak asarlaridan hisoblenadi. Saroy aristokratiyasi **Pyuje** ijodini unchalik qadrlamagan. Uning ijodi faqat XVIII asrdagina ko‘pgina xaykaltaroshlar tomonidan sevib o‘rganildi. Uning yutuqlari rivojlantirildi.

Ranggasvir. **Lyudovik** XIV davri uslubining tipik vakili, qirolning birinchi rassomi, akademiyaning prezidenti **Sharl Lebryon** (1619-90) rangtasvir san’atida samarali mexnat qildi. Xaykaltarosh oilasida tug‘ilgan, Semyon Vuz ustaxonasida

so‘ngra Italiyada **Pussen** qo‘lida o‘qigan rassom tszda fransuz san’atida badiiy diktator vazifasini o‘tay boshladi va O‘Z ijodi bilan davr badiiy xayotining mazmun va yo‘nalishini belgiladi. Uning ijodida devoriy rasm yetakchi o‘rinni egallaydi. Uning kompozisiyalari o‘ta dinamik, jimjimador va manzarali. Rassom xayotiy voqealarni jimjimador rang naqqoshligi bilan uzviy bog‘lab ishlaydi. Bu uning ishlarining dekorativ manzarali jixatini yanada oshirib yuboradi. Rassom ko‘pgina saroylarni bezashda qatnashgan. **Luvr, Vofle, Vikont** va **Versal** uchun devoriy suratlar ishlagan. Bu suratlarda **Lyudovik** XIV faoliyatiga bag‘ishlangan kompozisiyalar mavjud. Rassom qalamsurat va kompozisiyaga aloxida etibor beradi. Kolorit esa uning etiboridan birmuncha chetda qoladi.

XVII asr ikkinchi yarmida tantanavor rasmiy portret soxasida ko‘pgina rassomlar (masalan, G. Rigo.NLerji-lyer kabilar) samarali ijod qildi. Ular keyinchalik Yevropa portretchiligiga sezilarli tasir o‘tkazdi Mifologik va allegorik portretlar yaratildi. Bu davr fransuz portretchiligida dekorativ tamoyillar va **barokko** kuchli bo‘lsa xam, lekin asr oxirida bu birmuncha susaygani va xayotiy va tabiiy kompozisiyalar paydo bo‘lgani seziladi. Bu davrning yirik portretchilari **Giasiot Rigo** (1659-1743) **Nikola Lerjilsr** (1656-1746) ijodi aloxida ajralib turadi. Bu xar ikki rassom ijodi keyingi asr portretchilik san’atiga katta tasir qildi. XVII asr oxiriga kelib, absolyut monarxiya O‘Z kuchini yo‘qota boshladi. **Lyudovik** XIV olib borgan siyosat xalqning kuchli g‘alayoniga sa-bab buldi. San’atda xam klassisizm O‘Z mavqeini yo‘qota bordi. Xalq xayotiga qiziqish kuchaya bordi. Bu esa realistik san’at rivojlanishiga, uning janrlari kengayishiga, mavzusining rang barang bo‘lishiga zamin yaratdi.

**Lyudovik** XV (1715-1774) xukmronlik qilgan yillardan to burjua inqilobining boshlanishiga qadar bo‘lgan davr (1789), odatda marifatparvarlik asri deb yuritiladi. Bu davrda olim, yozuvchi va faylasuflarning katta guruxi yashab, ijod etdi. Ular voqelikka tanqidiy munosabatda bo‘lishni, xar bir narsaga aql bilan yondashishni yoqlab, "azob" chekayotgan insoniyat tomonida turib kurashga otlandilar. Kishilarni xayotga ziyraklik bilan karashga chaqirib, aql qudrati bilan ijtimoiy tuzum kamchiliklarini tuzatsa bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdilar. San’at orqali "komil insonni" tarbiyalash masalasiga etibor berdilar. Ular zamonaviy san’at mavzularini shu talab esosidya taxlil etdilar. San’atning demokratik yo‘nalishi va uning tasirchanligyni maqulladilar. Uning tarbiyaviy axamiyatni kadrladilar. Marifatparvarlariing bu karahlari realizm rivojida muxim axamiyatga ega bo‘ldi.

## XVIII asr fransuz san’ati

XVIII asr fransuz san’ati taraqqiyoti xam ikkiga ajralib o‘rganiladi. XVIII asr birinchi yarmi san’ati saroy axllari va kiborlarning talabi va didi bilan bog‘liq Ko‘ngil ochish uchun muljallangan san’at asarlari, ishq muxabbat mavzusi bu davr san’atida keng o‘rinni egallaydi. Memorlik, amaliy san’atda esa nafislik va jimjimadorlikka intilish yaqqol seziladi. San’atning bu xususiyati bevosita shu davrning asosiy uslubi "**rokkoko**"(uy-noxi) da yaqqol seziladi. Lekin bu yunalish uzok, yashamadi. Burjuaziyaning mustaxkamlasha borishi, san’atning keng jamoatchilikka mo‘ljallab ishlanishi uning demokratik yo‘nalishni kuchaytirib yubordi. Realistik yo‘nalish mustaxkamlandi.

Memorlik. Absolyutizmning susayishi yirik saroy qurilishlarining deyarli to‘xtashiga olib keldi. Endilikda burjuaziya yukori tabaqalari talebi va ishtiyoqi asosida shinam binolar qurish odat bo‘lib qoldi. Binoning maqsadga muvofiq bo‘lishiga, qulayligiga aloxida etibor so‘zrila boshlandi. Burjuaziyaning uchinchi tabaqasiga mo‘ljallangan ko‘p xonali turar joylar qurilishi avj oldi. XVIII asrning 20 - yillarida yuzaga kelgan **rokkoko** uslubi 30-40 yillarda O‘ZINING eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Memorlik ansamblarida jimjimadorlikka etibor berish kuchaydi. **Rokkoko**

uslubida qurilgan binolarda klassisizmga xos anis simmetriya o‘rnini assimetriya, tartibsizlik egallay boshladi. Binolarning tashqi ko‘rinishini jiddiy va sipo figan xolda xonalarni bezashga etibor ortdi. Endilikda binolar, ularning xonalari uchun olingan nisbatlar esa yengil va nafislikka ega bo‘la boshladi. Xona ichki qismi yengnl "pastel" rangida ishlangan naqshi, mifologiyadan olingan kichik kichik suratlar bilan bezatildi. Xonalarning keskin burchaklari xam yo‘q qilinib, o‘rnini yoy shakli egallay boshladi. Memor **Jermen Bofforning** (1667-1754) intererlari bezatilishi va xarakteri jixatidan **rokkoko** uslubining shu o‘ziga xos tomonini namoyon etadi. Tanlangan buyumlar (mebel, shkaf va boshqalar) xam xona xarakteri va bezagiga moslangan. XVIII asr o‘rtalaridan boshlab**, rokkoko** uslubi kompozisiyalarining xaddan ortiq munosibligi, jimjimadorligi tankidga uchray boshladi. Memorlarni edilikda ko‘proq yunonlarning jiddiy va sodda memorlik san’atlari qiziqtira boshladi.
XVIII asr memorchiligiga xos uslublar extiyotkorlik bilan boyitilib klassisizm o‘ziga xos jixatlarini mustaxkamlay bordi.

**Jak Anj Gabriel** (1699-1782) dastlabki ijodida ilk klassisizmga xos jixatlar ko‘rina boshlaydi. Gabrielning yirik asarlaridan biri Parijdagi "Murosa maydoni" (1751-1769) bo‘lib, unda memorning novatorligi namoyon bo‘ladi. Bu dastlabki ochik maydonlardan bo‘lib, Sena daryosi yoqasiga joylashgan va katga bir ansamblni markazlash tirish va tashkil etish uchuy foydalanilgan. Maydondan uch tomonga nur singari yo‘l ketgan bo‘lib, **Gabrielning** maydon qurish uslubi keyinchalik rivojdangan klassisizm davrida memorlar tomonidan keng qo‘llanildi. Versal parkidagi "Kichik Trianon» deb nomlangan qurilma xam Gabrielning muxim asarlaridan bo‘lib, u klassisizmning dastlabki namunasi xisoblanadi. Tabiat bilan uzviy boglik xolda qurilgan bu binoda xamma narsa aniq jiddiy va sodda, detallar nisbati va xarakteri nafis va jozibador. Asr o‘rtalarida ijtimoiy binolar, jumladan teatr, savdo markazlari va shunga o‘xshash binolar ko‘plab qurildi. Parijda dastlab Parij xomiyasi avliyo **Jenevsvlar** cherkovi uchun mo‘ljallangan, keyinchalik Fransiyaning mashxur kishilari maqbarasiga aylantirilgan "**Panteon" memor Jak Jermon Sufflo** (1716-1780) ning eng katta kurilmalaridandir. Klassisizmning yorkin namunasi bo‘lgan bu bino rejasi but shaklida bo‘lib, u baraban ustiga o‘rnatilgan katta gumbaz bilan tugallanadi. Baraban atrofi ustunlar bilan o‘ralgan, binoning odd tomonida olti ustunli frontonli peshayvon qurilgan. Bino kompozisiyasi piramidal bo‘lib, tepaga ko‘tarilgan sari uning detal va qismlari kichrayib, yengillashib borayotgandek tuyuladi. Bu butun binoga vazminlik va xotirjamlik baxsh etadi. Bino devoriga aloxida etibor berilgan. Xaykaltaroshlik, monumental rangtasvir san’ati, xamda memorlik xajmlari uni ko‘rkam bo‘lishini taminlagan.

Memorlik intereri bilan botiq jarayonlar tasviriy va amaliy san’atda xam o‘z ifodasini topdi. Jumladan, rangtasvir san’atida tanlangan **rokkoko** uslubi dekorativ va dastgox. san’atida o‘zini namoyish etdi. Devor, shift tepasiga ishlangan suratlar, gobelen kompozisiyalari ko‘ngil ochishga mo‘ljallangan mavvzular bilan to‘ldirildi. Dekorativ rangtasvirda odam qomati dekorativ unsurga aylana bordi va mayinlik xislatini ifodalashga bo‘ysundirildi. Rassomlar oqish, kulrang, pushti, tovlanuvchi oltinsimon ranglarning tuslanishiga etibor berdilar. Biroq rasmlarning mavzusi birmuncha chegaralangan. Ishq muxabbat, oqsuyaklarning ko‘ngil ochishi va dam olishini tasdiqlovchi asarlar yaratildi. Pastoral janrida (tabiat qo‘ynida erkin, farog‘atda yashayotgan chupon yigit va qizlar xayotiga bag‘ishlangan manzaralarini aks ettiruvchi janr) kompozisiyayaar yuzaga keldi. Ideallashtirilgan, nafis, mifologiya qaxramonlariga o‘xshatib portretlar ishlandi. **Barokko** san’ati rivojyaanishi bilan realistik san’at xam o‘z mavqeini mustaxkamlab bordi. Portret, manzara, natyurmort, maishiy janr soxasida xayotiy tasirchan asarlar yaratildi. Fransuz san’atidagi ada shu rang-baranglik rassom va

xaykaltaroshlarni gox antik dunyoga, gox Gollandiya, gox Venesiya ijodkorlariga murojaat etishga davat etdi.

**Antuan Vatto** (1684-1721) XVIII asrning yirik ranggasvir va qalamsurat ustasidir. U o‘z asarlarida nozik tuyg‘ularni, xissiy kechinmalarni poetik ruxda tasvirladi. **Vattoning** ilk ijodi davrida xayotiy mavzuda qator asarlar yaratgan. Bular ichida "Savoyar" (1709) xamda armiyadagi kundalik turmushni ifodalaydigan asarlari diqqatga sazovordir. U 1710 yilda san’at muxlislari va xomiylari tugaragiga qabul qilinadi va butun umrini shu tugarak bilan bog‘laydi. Endilikda rassom aristokratlar xayotiga, ishq muxabbat mavzusiga bag‘ishlangan suratlar muallifiga aylanadi. Shuningdek teatr xayotiga bag‘ishlangan kompozisiyalar xam ishlaydi. Rassomning Siteru oroliga ziyorat" (1717) nomli mashhur asarida romantik manzara fonida ichkari tomon borayotgan yigit va kizlar tasvirlangan. Uzoqda esa tuman orasida jannat - farishtayu maloikalarga to‘la baxt oroli ko‘rinadi. Rassom kompozisiyadagi xar bir obrazning xis-tuyg‘u va kechinmalarini ochishga xarakat siladi. Shu maqsadda ularning xatti-xarakati, yurish-turi-shi, atrofdagilarga muomalasi, qosh, ko‘zlari ko‘rinishini aniq ko‘rsatadi. Asardagi tabiat manzarasi chuqur lirik tuyg‘u bilan sug‘orilgan bo‘lib, ularning kayfiyatlariga mos keladi. Vatto kam figurali maishiy janrga xam tez tez murojaat qiladi. Bu o‘rinda uning "Savoyar", "Jil" (1720), "Injiq qiz" (1710 yil oxiri) kabi asarlarini eslash mumkin. Kompozisiyaning bunday yechimi rassomga o‘z qaxramonlari xissiy kechinmalarini chuqur ifodalash imkoniyatini beradi. "Jil" asarida tasvirlangan obrazdagi mayuslik va g‘amginlik uning yolg‘iz turishi orqali yanada bo‘rttirilgan. **Vattoning** so‘nggi "Jersen do‘koni" (1721) deb nomlangan yirik asarida suratlar bilan savdo qiluvchi do‘sti Jersen do‘konining ichki ko‘rinishi tasvirlangan. Rassom xaridorlar qiyofasini tasvirlab, ularning san’atga munosabatini ko‘rsatgan. Vatto qalamsurat borasida xam samarali ijod qilgan. Uning qalamsuratlari bevosita xayotining o‘zidan ishlangan bo‘lib, xayotiyligi, chiziqlarining ifodaliligi va tasirchanligi bilan etiborni tortadi. **Vatto** ijodida bir tomondan realistik, ikkinchi tomondan, barokkoga xos xususiyatlar sezilsa, aksincha shu davrning boshqa bir rassomi **Fransua Bushe** (1703-1770) ijodida **rokkoko** uslubi yetakchilik qiladi. qirolning birinchi rassomi, akademiya direktori, aristokratiya san’atkori bo‘lgan Bushe kitob bezash, intererlar uchun dekorativ pannolar ishlash yo‘nalishida samarali ijod qildi. Shpaler uchun kartonlar ishladi. Parij opera teatri uchun dekorasiya kiyimlar yaratdi. O‘z ijodida mifologiya, allegoriya va gaisgoral janrlariga murojaat qildi. Uning asarlari syujetida nozik va maloxatli Veneralar, sho‘x va o‘yinqaroq maloikalar, ishq muxabbat qo‘yida yotgan yosh cho‘pon yigit va qizlar obrazi yorqin gavdalanadi. Musavvir asarlari ser» jilva, chiziq va shakllarining uzaro murakkab naqshlanishi bilan xarakterlanadi. Asarlari koloritida pushti, oqish, ko‘kish ranglar gammasi yetakchilik kiladi. Ular asarga ko‘rkamlik baxsh etadi. Rassom obrazlariing xatti xarakati, mimikasi orqali ular xolatini ochishga intiladi. Lekin bu xolatlar suniy bo‘lib tuyuladi. U o‘z obrazlarini ideallashtirishga intiladiki, bu xam uning asarlarini xayot xaqiqatidan uzoqlashtiradi. **Bushe** ijodining eng gullagan davrida yaratilgan "**Veneraning** to‘kilishi" uning asarlariga xos jixatlarini yaqqol namoyish qiladi. Bushe manzara janrida xam ijod qilgan. Ular o‘zining lirik kayfiyati bilan iliq taassurot qoldiradi. Rassom qalamsuratlari xam o‘ziga xos asar sifatida ko‘rinadi.

XVIII asr o‘rtalaridan boshlab, kiborlarning xaddan ortig‘ noziklashib, xayotdan uzoqlasha borgan san’ati **Deni Didro** boshchiligidagi burjua tanqidchilari tomonidan keskin tanqidga uchradi. Jumladan, **Didro** kiborlar san’atining xayotdan uzoqligini, xaddan tashqari suniyligini tanqid kilgan xolda, xayot xodisalarini aniq gavdalantirib, yangi zamon kishilari tarbiyasiga xizmat qila oladigan san’atni maqulladi. Didro boshchiligidagi tanqidchilar fikricha san’at chuqur mazmunli bo‘lishi, kishilarga xayot muammolarini bilishga ko‘maklashishi xamda jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi

zarur edi. Didroning san’atga bu xil qarashlari uning Luvrda bo‘lgan ko‘rgazmalarga atab yozilgan maqolalarida o‘z ifodasini topdi.

**Didro** xurmatiga sazovor bo‘lgan, o‘z ijodi bilan uning qarashlariga yaqin rassomlardan biri **Jan Batist Simeon Sharden** (1699-1779) edi. Sharden rassomlikdan tugal akademik tarbiya olmadi. Naturadan rasm chizish, xayotni sinchiklab o‘rganish uni buyuk fransuz realist rassomi darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. U oddiy turmush xodisalaridan, xunarmandlarning ustaxonalaridan, "uchinchi tabaqa" vakillarining kundalik xayotidan san’atda ifodalash mumkin bo‘lgan syujetlar ko‘ra oldi. Ulardan poeziya topa oldi. 1726 yili ana shu mavzudagi ikki asari bilan ko‘pchilik etiborini o‘ziga tortdi. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan ikki natyurmorti uchun Akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Sharden XVIII asrda Fransiya san’atida shakllana boshlagan natyurmort janrida samarali ijod qildi. U oddiy ko‘za, shisha idishlar, stakan, oddiy oshxona buyumlaridan, meva va sabzavotlar, bazan esa baliq yoki ovda otilgan o‘ljalarni tasvirlab natyurmortlar ishladi ("Mis idish", "San’at anjomlari", "Natyurmort"). U tabiat nematlarining rang-barang shakli, fakturasi, hajmi, kurinishidan zavklanib, ularni ifodalashga xarakat qildi. Ulardagi nur va rang tuslanishlarida go‘zallik kashf etdi. **Didro** uning asarlarani "Buyumlar atrofidagi xavo xarakati qanday ajoyib tasvirlangan, mana xim buyoq va reflekslar garmoniyasining kadriga yetadi deb yuksak bag‘olab, **Shardenni** Yevropa rassomlari ichidagi birinchi kalorist sifatida tan olgan edi. Xaqiqtdan xam g‘arb san’atining ajoyib kolorist rassomi Sharden o‘zining sodda, lekin ulug‘vor natyurmortlarida buyumlarning massasi, fakturasini qurdi. Ular ichida yashiringak kuchni xis etdi. Ularning xavo bilan o‘ralib, nur bilan yoritilgan xolatini moxirona ifoda etdi, Sharden maishiy janrda xam samarali ijod qilgan. Uning "uchinchi tabaqa" kishilari xayotiga bag‘ishlangan kompozisiyalari sodda va samimiy ("Ovqat oldidan ibodat", 1744, "Kir yuvuvchi", 1737). Ularda na dramatizm, na nasixatgo‘ylik seziladi. Xamma o‘z turmushi bilan band. Shulardan rassom chuqur axloqiy mazmun ko‘ra oldi. Rassom asarlarining yuksak maxorat bilan ishlanishi, ranglar uyg‘unligi uning asarlariga tasirchanlik baxsh etadi. **Sharden** XVIII asr fransuz san’atida realistik portret yaratgan dastlabki ijodkorlardandir. Uning "Avtoportret', "Kaylirin portreti" mashxurdir.

XVIII asr realistik san’atining rivojlanishi portret san’atiga qiziqish bilan bog‘liqdir. Bu davr portret san’atida ikki yunalish mavjud bo‘ldi. Biri kiborlar didi va xohishi asosida yaratilgan parad portret, ikkinchisi voqelikni to‘laqonli ko‘rsatishga qaratilgan realistik portret yo‘nalishidir. Shunday san’atkorlardan biri **Moris Kante Latur** (1704-1788) bo‘lib, u o‘z zamondoshlarining ko‘plab portretlarini yaratib qoldirdi. U o‘z portretlarini ko‘proq pastelda ishlab, bu texnikada katga muvaffaqiyatga erishgani uchun "pastel qiroli" degan nomga sazovor bo‘ldi. Davrining ilg‘or kishisi bo‘lgan Latur o‘z portretlarida tasvirlanuvchining ichki dunyosini ochishga, uning xarakteri, ijtimoiy o‘rni xamda kasbini ko‘rsatishga xarakat qildi. Odamning ichki dunyosi uning qiyofasida ifodalanishi masalasi rassomni qiziqtirdi. Odam yuzida bo‘ladigan jiddiy o‘zgarishlar (ko‘z, qosh, lab, peshona va xokazo) orqali o‘z qaxramoni ichki dunyosini yoritib berdi. Uning qaxramonlari doim faoliyatda, xarakat paytida tasvirlanadi. Volterga bag‘ishlangan portreti hamda o‘z avtoportretida shu xususiyatni ko‘rish mumkin.

San’atning tarbiyaviy rolini o‘zicha tushungan **Jan Batist Gryoz** (1725-1805) kompozisiyalarida didaktikaga ko‘prok etibor berdi. Shu maqsadda u o‘z qaxramonlarini olijanob, yuksak axloqli yaxshi niyatli qilib ko‘rsatishga harakat qildi. Bu uning asarlarida suniylikni kuchaytirib, ularning qiymatini susaytirdi. Rassom ijodiga xos bu xususiyat, ayniqsa, uning ko‘p figurali kompozisiyalarida yaqqol seziladi. Masalan, "Shol bo‘lgan odam"(1763) asarida. Grez ijodining yorqin jixati uning portretlarida namoyon bo‘ldi. Uning farishta maloikalarga atab ishlagan

"boshchalari" xam unga oʻz vaqtida shuxrat keltirdi. Grez qalamtasvirlari xam realistik xarakterga ega.

**Bushe va Sharden** ustaxonasida taxsil koʻrgan **Onore Fragonar** (1732-1806) ijodi xam XVIII asr fransuz san’atida muxim Urin egallaydi. Uning moybuyoqda ishlagan maishiy janrdagi asarlarida, qalam va sanginada ishlagan suratlarida shu davr fransuz san’atida mavjud bulgan yunalishlar oʻz ifodasini topgan. Jumladan, uning ilk ijodida ("Argimchok." 1767, "Yashirincha boʻsa" 1760) **baroko** uslubiga yaqinligi seziladi. U real borliqning rang barangligini, nurning boy oʻyinini tasvirlashga xarakat qiladi. U asta sekin oddiy xayotga murojaat qila boshlaydi (masalan, "Kir yuvuvchilar"). Tabiat koʻrinishlari oʻzining ulugʻvorligi bilan unga ilxom baxsh etadi. Fragonar portret san’atida xam samarali ijod qildi. Uning portretlarida inson qalbidagi xayajon, bezovtalik xolatlari talqin etildi. Fragonar intimlirik plandagi portretlari bilan keyingi asr romantizmiga xos xususiyatlarini boshlab berdi.

Xaykaltaroshlik. Xaykaltaroshlik xam koʻproq intererlarni bezash san’atiga xos **rokkoko** uslubiga asoslandi. Mifologik va allegorik syujetlarga qiziqish ortdi. Bu mavzular shu davrda keng yoyila boshlagan mayda plastikada koʻp ishlandi. Lekin burjuaziyaning did va qarashlari oʻzgarishi bilan shu davr xaykaltaroshligining mavzu va xarakteri oʻzgara boshladi. Ishlangan xaykal kompozisiyasining sodda va jiddiy boʻlishi, kam detallardan foydalanib, asar yaratishga intilish sezilarli boʻldi. Yaratilgan asarlarda realistik jixat kuchaya bordi. Bu yangi shakllanib kelayotgan jarayonlar dastlab portret san’atida, keyinroq monumental xaykaltaroshlikda koʻrina boshladi. Ana shu izlanishlar yirik fransuz xaykaltaroshi **Eten Moris Falkone** (1716-1791) ijodida oʻz yorqin ifodasini topdi. Fal’kone oʻz ijodini intimlirik plandagi xaykallar ishlash bilan boshladi. Chinni manufakturasiga badiiy raxbar boʻlgandan keyin (1757) mayda plastikada ijod qilib, fransuz chinni san’ati rivoj topishida katga rol oʻynadi. 1850 yil oxirlaridan boshlab, **Falkone** ijodida antik davr san’atiga qiziqish orta bordi. U asar mazmunini chuqurlashtirish, uning badiiy tili sodda va jiddiy bulishiga etibor bera boshladi. Bu uning keyinchalik yirik monumental xaykaltarosh usta darajasiga koʻtarilishiga asos boʻldi. Uning Peterburgdagi "Mis chavandoz" (1766-1782) xaykali shundan dalolat beradi. (Bu xaykal xaqida kitobning "Rus san’ati" boʻlimida batafsil tasif berilgan.)

XVIII asr fransuz haykaltaroshligiga xos realizm **Jan Antuan Gudon** (1741-1828) ijodida, ayniksa, uning portretlarida yorqin namoyon buldi. U uz ijodi bilan noziklashib ketgan **rokokkoga** xam, klassisizmning ortiqcha ritorikasiga xam qarshi chiqib, voqelikning oʻziga murojat qildi. U antik san’atni va oʻz davrining mashxur xaykaltaroshlari asarlarini qunt bilan oʻrgandi. Ammo ular tobe boʻlib qolmadi. **Gudon** uzoq vaqt odam anatomiyasini oʻrganib, oʻzining mashxur anatomik xaykalini (terisi olib tashlangan erkak xaykali) yaratdi. San’atkorning yigirma olti yoshda yaratgan bu xaykali keyinchalik tasviriy san’at asosini oʻrganuvchilar uchun koʻrgazmali namuna boʻlib qoldi. **Gudon** oʻz ijodini monumental xaykaltaroshlikdan boshladi, lekin portret san’atida uning xaqiqiy istedodi namoyon boʻldi. U oʻz qaxramonlari tashqi kiyofasini juda oʻziga oʻxshatgani xolda, ularning ichki dunyosi, oʻychan kayfiyatini xam aniq ifoda qoldi. Uning qaxramonlari xarakatchan, otash qalbli kishilardir. **Gudonning** portret sanatidagi ijodi 1770-1780 yillarda tamom boʻldi. U juda koʻp portretlar ishladi. Ayniqsa, ilgʻor kishilar, marifatparvarlar, mutafakkirlar, eskilikka qarshi kurashuvchilar, prodali va xarakatchan tashabbuskorlarge atab ishlagan portretlari etiborlidir. Bu asarlari uni Vatanparvarlarga yaqinlashtirdi. Ularning mafkurasini targʻib etuvchi san’atkor darajasiga koʻtardi. Bu xaykaltaroshning yirik asari "Volter xaykalida (1781) yaqqol namoyon boʻladi. Ushbu xaykalda buyuk faylasuf Volterning kresloda oʻtirgan payti tasvirlangan. Uning biroz bukilgan qomati va oʻtirishida xorgʻinlik va qaysarlik alomatlari seziladi. Lekin uning oʻtkir qarashlarida, yengil tabassumida

yurakli, ziyrak, oʻz suxbatdoshi bilan baxslashishga tayyor turgan shaxs qiyofasi gavdalanadi.

## XVII ASRDA FLAMANDIYA SAN’ATI

XVI asrda Niderlandiyada boʻlgan inqilob uning shimoliy viloyatlarida Gollandiya burjua respublikasining tashkil topishiga olib kelgan boʻlsada, uning janubiy qismidagi Flamandiya Ispaniyaga qaramligicha qolaverdi. Maxalliy, dvoryan va ruxoniy feodallari ispanlarga yon berib, xalq milliy ozodlik kurashini bostirishda qatnashib, oʻz mavqelarini mustaxkamlab oldilar. Ular bosqinchilar xomiyligida dabdabali xayot kechirdilar. Cherkov, yirik aristokratiya va burjuaziya shu davr san’atining asosiy buyurtmachisi boʻlib qoldi.

XVII asrda flamand san’ati rangtasvirda realistik san’atning yangi qirralarini kashf etib, jaxon san’ati tarixida yangi saxifa ochdi. Cherkov san’atning asosiy buyurtmachisi sifatida yangi qurilayotgan yoki tamirlanayotgan kichik va katta ibodatxonalarni katta-katta devoriy suratlar bilan bezattildi. Mexroblar uchun yirik suratlar ishlatdi. Bu suratlar oʻzining dramatizmi va tasirchanligi bilan ommani oʻziga jalb etishi va cherkov gʻoyalarini targʻib etishi zarur edi. Aristokratiya va shakllanib kelayotgan burjuaziya xam buyurtmalar berishda cherkovdan qolishmaslikka intildi. Ular xam oʻz qasr va saroylarini serxasham va goʻzal boʻlishiga katta etibor berdilar. Diniy, mifologik va dunyoviy mavzuda suratlar ishlatdilar, portretchilikka qiziqib qaradilar. Bu XVII asr flamand san’ati uslub va mavzu rang-barangligini belgilashda muxim rol oʻynadi. Yevropa **barokkosi** bu yerda oʻziga xos koʻrinish kashf etdi. Rangdor, kompozisiyasi yuksak professional maxorat bilan ishlangan tulakonli asarlar yaratildi. Shu davrda flamand **barokkosi** oʻzining gullagan davrini boshidan kechirdi.

**Piter Paul Rubens** (1577-1640). Flamand rangtasvir san’atining yoʻlboshchisi, Yevropa san’atining yirik vakili **Rubens** asli germaniyalik boʻlib, yoshlik yillarida ota-onasi bilan Flamandriyaga koʻchib keldi. Shu yerda lotin maktabida oʻqidit, soʻngra rassom Otto van Veyey ustaxonasida tasviriy san’at asoslarini egalladi. Rubensning rassom boʻlib yetishishida uning Italiya boʻylab qilgan safari ayniqsa, muxim boʻldi. Antik va Uygʻonish (Renessans) san’ati vatani Italiyada Rubens buyuk san’atkorlar asarlari bilan yaqindan tanishdi. **Ayniqsa, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Tisian, Veroneze va Karavajo** ijodi unga qattiq tasir qildi. Ularni yosh rassom qunt bilan oʻrgandi. 1608 yili **Rubens Antverpenga** qaytib kelgach, ijodga shoʻngʻidi. Turli mavzularda asarlar yaratdi, portretlar ishladi. Rassomning dongʻi keng yoyila boshladi. Buyurtmachilarning koʻpayishi unga ustaxona tashkil etish imkoniyatini yaratdi. U oʻz atrofiga istedodli yoshlarni toʻpladi, graverlar maktabi tashkil etdi. Rassomning il k ijodi 1610 yillarga toʻgʻri keladi. Shu yillarda uning ijodida Gresiya maktabi xamda Karavajo tasiri seziladi. Lekin rassom asarlari dinamik joʻshqin, ichki kuch qudratga toʻlaligi bilan etiborni jalb etdi “Butdan tushirish", 1610-11). Rassomning mifologik va allegorik mavzudagi asarlari xam oʻziga xos. Ular xajm jixatdan katta, rangi yorqin va dekorativ, xis-xayajonli, obrazlari esa toʻlaqonli, zabardast, kuchquvvatga toʻla. Rassom qaysi mavzuga murojaat qilmasin, u oʻz qaxramonlarini jismoniy baquvvat qilib gavdalantiradi Vakxanaliya", "Levkip qizlarining oʻgʻirlanishi", "Sher ovi", "Choʻchka ovi"). 1620 yildan **Rubens** ijodining eng gullagan davri boshlanib, asarlarining emosional jixati yanada kuchaydi. Endilikda rang uning asarlarining tasirchanligini belgilovchi va kompozisiyasini tashkil etuvchi asosiy vosita boʻlib qoldi. Shu yillarda yaratgan dastlabki etiborli asarlaridan biri "Persey va Andromeda" (1620-21) kompozisiyasi xisoblanadi. Kadimgi yunon afsonalaridak olingan syujet asosida ishlangan bu asar oʻzining obrazli plastik yechimi xamda tasvirlanuvchilarning psixologik xolati yorqin ifodalanishi bilan tomoshabin daxshatini oʻziga tortadi.

Rasshmning Mariya Medichi xayotiga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi asarlar turkumi (1622-25) san'at tarixida muxim voqea bo'ldi. Lyuksemburg saroyini bezash uchun mo'ljallangan bu rasmlar Fransiya qirolichasi xayoti va faoliyatini yoritishga qaratilgan. Rassom bu turkumdagi asarlarni ishlashda real ko'rinishlarni narsa, obrazlar bilan uyg'unlashtirib ishlaydi. Real shaxs, sharoit, muxit tasviri arxeologiya va mifologik obrazlar qurshovida o'ziga xos yangi dunyo sifatida ko'rinadi. **Rubensning** shu yillarda yaratgan portretlari o'zining chuqur lirikasi, g'ayritabiyligi va tasirchanligi bilan ajralib turadi. Rassomning mashxur asarlaridan biri "Izobella portreti" (1625) dir. Tasvirlanuvchining mungli nigoxi va ochiq chexrasida uning sof qalbi, nafosatli ayol qiyofasi yorqin ifodalangan. 30-yillar rassom ijodining so'nggi davri bo'lib, endilikda **Rubens** katta bo'lmagan xajmli asarlar ishlashga ko'proq etibor bera boshladi. O'zining ko'p vaqtini shaxardan tashqarida o'tkazdi. Shu davrda yaratilgan asarlari mazmunan chuqur, ularning kompozisiyasida xotirjamlik seziladi. Shu yillarda rassom oddiy xalk xayotiga ko'proq murojaat qila boshladi, tabiat manzaralarini ishladi, O'Z yaqinlarining portretlarini chizdi. Ayniqsa, o'z oilasi Yelena Fourmen va bolalarini tasvirlab, qator kompozisiyalar yaratdi. Rassomning qishloq xayotiga bag'ishlangan asarlari xam diqqatga sazovor. Xush-chaqchaq serzavq dexqonlarning o'yinlariga bag'ishlangan asarlari nixoyatda jo'shqin va tasirli ishlangan. Rubens ijodi Yevropa san'ati tarixida muxim o'rin tutadi. Uning keyingi taraqqiyotini **Rubens** ijodi tasirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Flamand rangtasviri ravnaki xam **Rubens** ijodi bilan chambarchas bog'liq. Kupgina flamand rassomlari uning ijodidan tasirlandilar, uni davom ettirdilar. Rassomning ko'pgina shogirdlari flamand rangtasviri shuxratini oshirishga o'z xissalarini qo'shdilar.

**Van Deyk** (1599-1641). Rubens shogirdlaridan biri mashxur rassom Antonis **Van Deyk** xisoblanadi. Dastlab **X. Van Balen,** sunfa **Rubens** ustaxonasida tasviriyot asoslarini o'rgangan bu rassom O'Z ijodini diniy-mifologik plandagi asarlar yaratish bilan boshladi. Kompozisiyasi dinamik, obrazlari to'laqonli, ranglari yorqin yuksak maxorat bilan ishlangan uning bu asarlarida **Rubens** tasiri yaqqol ko'rinadi. Lekin asta sekin **Van Deyk** asarlarida bu xislatlar kamayib, obrazlarning plastik yechimi noziklashib, ko'tarinkilik ruxi lirik kayfiyat bilan almashib, ishlash uslubi xam nafislashib boradi. Rassom dramatik mavzularga murojaat qiladi, o'z diqqatini psixologik xolatga qarata boshladi. Bu uni portret janriga murojaat qilishga davat etdi. U kiborlar portreta ustasi sifatida tanildi. Uning portretlarida kiborlar muxitida tarbiyalangan, nafis didli, xotirjam va O'Z kuchiga ishongan olijanob kishilar qiyofasi ko'rinadi. Uning ilk portretlari flamand burger va zodagonlari xamda ularning oila azolariga bagishlangan oilaviy portret. 1618-1626). Keyinroq u Gresiyada yashaganida xam kiborlarning sevimli portretchisiga aylandi. Bu yerda uning portretchilik san'ati ravnaq topdi. U ishlagan obrazlar baland bo'yli, turishlari mag'rur. Ularning liboslari portretlarini yanada ko'rkam bo'lishini taminlagan. **Van Deyk** umrining sunggi O'N yilini Angliyada Karl 1 saroyida o'tkazdi. Shu yerda qirol va uning oilasi azolari portretini chizdi. U ishlagan portretlarda dekorativlilik birmuncha kuchaydi, rassom tez tez ko'kimtir kumushrang gammaga murojaat qila boshladi. Angliyada yaratgan asarlari ichida "Karl 1 ning parad portreti" (1635) aloxida o'rinni egallaydi. **Van Deyk** portreti chizilgan shaxsning o'ziga xos jixatlarini malum darajada ideallashtirgani xolda, uning yengiltabiat, maqtanchoq va irodasi kuchsiz davlat arbobi ekanligini xam ustalik bilan ochib beradi.

**Yakob Iordans** (1593-1626) xam Flamandiyaning yirik rassomlaridan biridir. Uning diniy va mifologik planda ishlangan kompozisiyalari o'z xarakteri jixatidan xayot lavxalarini eslatadi. **Rassom Rubens** asarlaridagi singari to'laqonli, jismoniy baquvvat dekxonlar obrazlarini yaratadi. **Iordane** O'Z ijodida turli maqol, masal va afsonalarga murojaat qildi. Jumladan, uning "Fatir dezdonlar xuzurida" (1620) asari syujeti qadimgi

yunon dramaturgi Ezop yozgan masaldan olingan bo‘lib, unda o‘rmonda yashaydigan satir (yarim odam, yarim echki shaklidagi afsonaviy maxluq) bilan dexkon do‘st bo‘lganligi va satir dexkonning issiq ovqatni puflab sovutgani va sovuqda muzlagan qo‘lini puflab isitganini ko‘rib, xayron bo‘lgani va uni ikkiyuzlamachilikda ayblab, aloqasini uzganligi xikoya kilinadi. **Iordane** ijodiga xos xususiyat uning katta va kup figurali kompozisiyalarga murojaat qilishida kurinadi. Kompozisiyada tasvirlangan odamlar yirik va jismoniy baquvvat. Ularning rug‘iy kechinmalari tasvirlanuvchilarning mimik o‘zgarish, xatti xarakati orqali ko‘rsatiladi. Shakllarning to‘laqonli plastik yechimi asar kompozisiyasining dinamik xolatida muxim rol o‘ynaydi va tasvirlanayotgan syujetning ishonarli va xayotiy bo‘lishiga xizmat qiladi. **Iordansning** "Loviya qiroli bayrami" (1636) asari shu jixatdan etiborlidir.

Flamand san’atida realistik yo‘nalish muxim o‘rin egallaydi. Natyurmort va maishiy janrlarda xam ana shu xislatlar aniq o‘zini namoyon etadi. Katta xajmdagi natyurmort va maishiy janrdagi kompozisiyalar flamand san’atida o‘ziga xos janr sifatida xalqning tinch xayot go‘zalligi, farovonlik, to‘kin sochinlik xaqidagi uylarini tasirchan ifoda qiladi. Flamand san’atida katta xajmdagi monumental dekorativ planda sermaxsul ijod qilgan rassom **Frans Sneyders** (1579-1657) bo‘lib, uning "Dukon" deb nomlangan natyurmorti diqkatga sazovordir. Turli meva, ovda otilgan qush va xayvonlar, ovlangan baliqlar do‘kon peshtaxtalarini to‘ldirib yuborgan.Ularni xarid qilayotgan odamlar ko‘rinadi. Asar yorqin buyoqlarda yuksak maxorat bilan ishlangan.
**Adrian Brauver** (1605-1638) va Tenirs Kichik David (1610-1690) maishiy janrda ijod qilib, flamand san’ati ravnaqiga o‘z xissalarini qo‘shdilar.Oddiy xalq xayotiga bag‘ishlangan asarlari bilan san’at tarixida o‘z nomlarini qoldirdilar. Ularning gog‘ yengil yumor, gog‘ satira bilan sug‘orilgan asarlari odamlar orasidagi turli munosabatlar shaklda xikoya qiladi ("Karta o‘ynash vaqtidagi mushtlashish"). **David Tenirs** ijodida xayvonlar, jumladan, maymunlarga bag‘ishlangan yumoristik asarlar uchraydi ("Karta o‘ynayotgan maymunlar") va xokazo.

## XVII ASRDA GOLLANDIYA SAN’ATI

Bu asrda Gollandiya garbiy Yevropada iktisodiy jixatdan yetakchi o‘ringa chiqib oldi. Fan va madaniyat rivojlandi. Kitob bosish va kitob savdosi, gazeta chiqarish keng yo‘lga qo‘yildi. Bular suzsiz, davr madaniyati ravojida muxim o‘rin egalladi. Memorlik, amaliy bezak va ayniqsa, tasviriy san’atda jiddiy o‘zgarishlar sodir buldiki, bu keyinchalik jaxon madaniyati ravnakiga samarali tasir ko‘rsatdi. Bu davrda qurilgan katusha, birja, savdo markazlari, byurgerlarning ko‘p qavatli uylari nixoyatda ko‘rkam, xashamatli ekanligi, o‘ziga xos ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Bu uylarning kupchiligi qizil g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, ular oq g‘isht bilan pardozlangan. XVII asr o‘rtalaridan boshlab, golland memorligida xam klassisizm usuli keng yoyildi. Amaliy dekorativ san’at borasida o‘o‘ziga xos yo‘nalish vujudga kelib, unda qo‘llangan rang barang shakldagi delf fayanslari yevropaliklarning olqishiga sazovor bo‘ldi. Golland san’atida raosomlik, aynikra, rangtasvirda katta yutuklarga erishdi. Mazkur san’at o‘zining gullagan davrini boshidan kechirdi va keyingi jaxon realistik san’ati rivojlanishiga samarali tasir o‘tkazdi. Golland rassomlari Yevropada birinchi bo‘lib, saroy kiborlarining injik talablariga qarshi chikdilar, ular erkin ijod k.ilish va bozor iktisodi bilan kun kechirish mumkinligini boshlab berdilar. San’atga bunday yangicha karashlar uning rivojlanishiga, undagi tur va janrlarning kengayishiga tasir qildi. Kundalik turmush, xalq xayotidan olingan voqealar rassomlar diqqatini o‘ziga jalb etdi.Tabiat ko‘rinishi, undagi buyumlar, xayvonlar xayoti ular ijodining asosiy mavzusiga aylandi. Golland rassomlari realistik san’at ananalarining yanada chuqurlashishiga, janrlarning kengayishiga, yangi janrlarning paydo bo‘lishiga katta xissa qo‘shdilar. San’atning

ifoda vositalari, yorug‘, soya, fazo munosabatlari, faktura masalalari borasida xam katta yutuqlarga erishdilar. XVII asr birinchi o‘n yilligida golland san’atida **Karavajo** tasiri sezilarli bo‘ldi. Asr urtalaridan kiborlar xoxishi tasirida san’at xaddan ortiq dekorativ, serxasham bo‘lib bordi. Bu davrda yaratilgan asarlar quproq teatr saxnasidagi ko‘rinishlarni eslatadi. Odamlar kimxob kiyimlarda tasvirlanadi. Shoyi, duxoba va mayin junli liboslar ijodkorlar tomonidan zo‘r maxorat bilan ko‘rsatiladi. Golland san’atida tarixiy janr birmuncha yetakchi o‘rinni egalladi. Mifologiya, Bibliya va tarixiy vokealarga atab ko‘prina asarlar yaratildi va ular realistik talim etilganligi bilan etiborni tortadi. Golland san’atida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar dastlab portret va maishiy janrda ko‘rina boshladi.

**Frans Xal’s** (tax. 1560-1666). Golland realistik portret san’ati asoschisi, xarakteri jixatidan maishiy janrda gurux portret janrini yaratib, jaxon portretchilnk san’atini boyitgan novator san’atkor **Frans Xals** Antverpen shaxrida tushilgan. Keyinchalik Garlem shaxriga ko‘chib kelib, butun umr shu yerda yashagan. Uning ilk ijodi xaqida aniq malumot saqlanmagan. Shuning uchun rassomning ilk ijodi xaqidagi muloxazalar uning XUN asr 10-30 yillarida yaratgan portretlari turisida fikr bildirishdan boshlanadi. Bu yillarda u ayniqsa, gurux portret yaratish borasida ko‘p ishlagan. Ular asosan o‘qchi ofiserlarga bag‘ishlangan. "Avliyo Georgiy rotasi o‘qchi ofiserlari portreti" (1627), "Avliyo Adrian rotasi ofiserlari portreti" (1627-1bZZ),ayniqsa, mashxur. Rassom gurux portretlarining xayotiy bo‘lishiga xalaqit qilmadi. Tasvirlanuvchilarning yuz mimikasi va gavda, oyoq - qo‘l xarakatlariga etibor beradi. Kompozisiyaga xayotiy lavxalar kiritadi. Bularning xammasi portret janri imkoniyatlarini kengayatirib, uni maishiy
janrga yaqinlashtiradi. "Avliyo Georgiy rotasi o‘qchi ofiserlari" portretida ofiserlar bazmi paytida tasvirlangan. Ular quvnoq, biroz xazilkash kayfiyatda. Asarda bosh qaxramon yo‘q . Tasvirlanganlar xammasi teng xukukli, erkin, o‘z kuchiga va ertangi kunga ishonch bilan qaragan. Ularning bu xolatlarida yosh burjua respublikasining erkinlik, ozodlik, tenglik va birodarlik shiori O‘Z ifodasini topgan. Rassomning gurux. portretlari kompozisiyani eniga keng olish xisobiga qurilgan. Yuksak maxqorat bilan ishlatilgan rang surtmalaridagi sariq qizil, ko‘k va shunga o‘xshash yorqin ranglar ritmi asar tasirchanligini kuchaytirib, tasvirlangan voqeaning monumental xarakterini oshiradi. **Xals** aloxda shaxslar portretlari ustida xam ko‘p ishlagan. Ularda xam janrli xususiyatlar mavjud. Rassom tasvirlanuvchini malum muxitda tasvirlaydi, ularning xatti xarakatlari, mimik xolatlari ishonarli bo‘lishiga etibor beradi. "Luli qiz portreti" (1620 yil oxiri), "Vallem van Xeytxeyzen portreti" (1630 yil oxiri) asarlari, shular jumlasidandir. XVII asr o‘rtalaridan boshlab, rassom ijodiga xos bo‘lgan jo‘shqinlik, ko‘tarinkilik mayuslik kayfiyati bilan almasha boshlagan. Asar koloriti xam jiddiylashib sovuq ranglar gammasi uning asarlarida keng o‘rin ola boshlagan, ranglar bir-biriga nozik tuslanish orqali o‘tgan va kompozisiya monoxrom koloritga yaqinlashib borgan. Ayni ana shu davrda **Xals** o‘zining barkamol psixologik asarlarini yaratgan. Uning asarlarida tanqidiy qarashlar yaqqol ko‘rina boshlagan. U umrining so‘nggi yillarida qariyalar uyida yaratgan "Regent va regentshalar gurux portreti" mashxurdir. Rassom ularda o‘ziga zeb bergan manman lekin birodarlik, insonparvarlik qo‘laridan maxrum qariyalarning qiyofasini aks ettiradi.

**Rembrandt Xarmens van Reyn** (1606-1669). Golland san’atining eng gullagan davri XVII asr 40-60 yillariga to‘g‘ri keladi. Bu buyuk golland rassomi Rembrandt ijodida namoyon bo‘ldi. Rembrandt golland san’atining yutuqlarini umumlashtirib, uni yangi yuksak pog‘onaga ko‘tardi. Uning ijodi teran,g‘oyaviylik va chuqur mazmun, obrazlarning g‘oyat maxorat bilan ishlanganligi bilan etiborni tortadi. **Rembrandt** o‘z davri san’atkorlaridan asarlari mavzusining rang barangligi bilan xam, ranggasvir, gravyura(ofort) va qalam suratda yuksak asarlar yarata olishi bilan o‘zib ketdi.

Rembrandt ijodining asosiy mavzusi inson xayoti, uning ichki manaviy dunyosi, xis tuyg‘u va kechinmalarining rangbarangligidir. Uning qaxramonlari kuchli irodaga ega, manaviy boy, og‘ir shart sharoitda xam insoniylik fazilatlarini saqlay oladigan shaxslardir. **Rembrandt** 1606 yili Leyden shaxrida tegirmonchi oilasida turilgan. Shu yerda lotin maktabini tugatgach, Leyden universitetiga qabul qilingan. Lekin Rembrandt u yerda bir yilcha o‘qigan, xolos. Rassomlikka bo‘lgan qiziqish tufayli Yakov Svanenbyurx degan o‘rtaxol rassom ustaxonasida uch yil, keyinroq esa Amsterdamda Piter Lastman ustaxonasida bir yarim yilcha tasviriyot asoslarini o‘rgangan. Sung o‘z shaxriga qaytgan. 1625 yili o‘z ustaxonasini tashkil eti. Uning ijodining dasotlabki boskichi 1632 yilgacha davom etgan. Bu yillarda rassom xayotiy, maishiy va diniy mavzularda asarlar yaratgan, portret ustida ishlagan, avtoportretga etibor bergan. Bu asarlarida gox Lastman, gox karavajilar tasiri seziladi. 20-yillar so‘nggi va 30-yillar boshlarida rassomning o‘ziga xos dastxati paydo bo‘la boshladi. Uning qaxramonlar manaviy dunyosini ochishga intilishi orta boshlagan. Rassom nursoya imkoniyati, rang surtmalarining emosional kuchiga etibor bergan. Ular obrazning xajmli va fazoviy tasviriga xizmat qilibgina qolmay, Salki asarning tasirchanligini oshirishda xam muxim vositaga aylangan. Uning bir figurali "Apostol Pavel" (1629), ko‘p figurali "Simeon ibodatxonada" (1631) kompozisiyalarida bu xususiyatlar ko‘rinadi. Rassom bu yillarda, ayniqsa, avtoportret soxasida ko‘p mehnat qilgan. U inson mimikasi va uning kishi ichki dunyosi bilan alokasini tushunib yetishga xarakat qiladi. Ofort san’atida dastlabki mashqlarini boshlaydi. San’atkor 1632 yili Amsterdamga kuchib keladi va tezda eng mashxur rassomga aylanadi. Buyurtma ishlarning ko‘payib borishi uning moddiy mustaqil bo‘lib, atrofiga shogirdlarni to‘palanishiga imkoniyat yaratadi. Amsterdamlik bir boy zodagonning Saskiya ismli qiziga uylanishi uning moddiy jixatdan mustaqilligini yanada mustaxkamlaydi. Rassomning bu yillarda yaratgan asarlari ko‘tarinki ruxda ishlangan. U kompozisiyalarini yorqin buyoqlarda tasvirlaydi. qimmatbaxo buyumlar, gul va billurlar, liboslar uning yaratgan asarlarga quvonch va shodlik tuyg‘ularini kiritadi. Rembrandt qizlari Saskiyani gul va kimxob liboslarda tabiat va go‘zallik mabudasi Flora obrazida tasvirlaydi. Rassomning shu yillardagi baxtli damlarini uning "Saskiyani tizzasida olib o‘tirgan xolda ishlagan avtoportreti" (1636) asari aks ettiradi. Rembrandgning Amsterdamda yaratgan dastlabki yirik asari "Doktor Tyulpning anatomiya darsi" (1632) unga katta shuxrat keltirdi. Doktorni o‘rab olishgan vrachlar guruxini aks ettiruvchi bu asar kompozisiyasi xayotiy chiqqan. Rassom tasvirlanuvchi xar bir obrazning o‘ziga xos qiyofasini yaratish bilan birga, ularning anatomiya darsi mashg‘ulotlaridagi psixologik Xolatini xam ochishga muvaffaq bo‘lgan. Tasvirlanuvchilar orasida doktor Tyulpning keng silueti va qo‘lining erkin xarakati ko‘rsatilgani kompozisiyami markazlashtirishga va xamma obrazlarni yagona g‘oya atrofida birlashtirishga yordam bergan. Kompozisiyaning yaxlit va tugal bo‘lishida nur-soya xam muxim o‘rin tutgan. Nur kompozisiya markazini yanada aniq bo‘lishiga, doktor Tulp atrofidagilarning xolat va xarakteri tabiiy bo‘lishiga imkon bergan. Rassom 1630 yidda grafika bilan jiddiy shug‘ullandi. Uning ofortlari Injil va Tavrotdan olingan syujetlarga ishlangan qalamsuratlari xam o‘zining nafis va yuksak maxrrat bilan ishlanishi jixatidan ajralib turadi. Shu yillarda rassom ijodida realispos tamoyillar chuqurlashib borgani seziladi. Bu aynvdsa, mifologiyadan olingan syujetga ishlangan "Danaya" suvratida yaqqol namoyon buladi. Inson qomati plastikasini, duxoba singari mayin ayol badani terisining go‘zalligini yuksak maxorat bilan tasvirlaydi. 1640 yillarshsh boshlab, Rembrandt ijodida yangi davr boshlandi va 1655 yilgacha davom etdi. Xayot xaqiqatini to‘liq ko‘rsatishga intilish, psixologik masalalarga qiziqishning oshib borishi rasoomning erkin uslubda ijod qilishiga va uni yirik, o‘ziga xos uslubga ega ijodkor darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. Biroq bu rassom va buyurtmachilar orasidagi munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘la boshladi.

Silliq chiroyli buyoqlarda ishlangan rasmlarga urgangan burjua vakillari yangi uslub va qarashlarni tushunmadi. Bular so‘zda, buyurtmalarning kamayishiga olib keldi. Rassom moddiy jixatdan qiyinchiliklarga uchray boshladi va bu umrining so‘nggi damigacha davom etdi. Muxtojlik 1642 yillaridan keyin sezilarli bo‘ldi. Gap shundaki, shu yil rassom o‘qchi rotasi askarlarining guru* portetini ishlashga buyurtma oladi. Bu buyurtmani rassom erkin xayotiy kompozisiyada, maishiy janrga yaqin xolda bajaradi. O‘qchi rota askarlari realistik kompozisiyada turli xolatda rassomga nisbatan yaqin va uzoqda joylashgan tarzda tasvirlanadi. Bu realistik tasvirga xas fazoviy kenglik va perspektiv qisqarishlar xar bir tasvilanayotgan obrazni joyiga qarab katta va kichik (oldingi va orqa planda) xolda bo‘lishini taqozo etadi. Ana shu narsa bir qiyofaning oldingi planda katta, boshqa birining uning orqa tomonida kichikroq bo‘lib ko‘rinishi buyurtmachilarga ma’qul bo‘lmaydi. Ular buyurtmani olishmaydi. Tungi bozor" deb nomlangan ana shu kompozisiya rassomning keyingi xayotiga katta tasir etdi. Sevimli qaylig‘i Saskiyaning vafoti (1642) rassomni yanada nochor axvolga soladi. Lekin qiyinchiliklar rassom irodasini buka olmaydi. Rassom shu yillarda ijodiy kamolot cho‘qqisini egallab, insoniylik g‘oyalari bilan sug‘orilgan chuqur falsafiy asarlar yaratishga erishdi ( "Muk.addas sila" (1645), "Deraza oldida turgan Xendrike" (1645), "Yan Siks portreti"). Shu yillardan rassom Qalamsuratda xam ajoyib asarlarini yaratdi. Biroq rassom xayotining so‘nggi O‘N yili nixoyatda qashshoqlik va xorlikda O‘TDI. Qarzlarni o‘zvaktida to‘lay olmasligi tufayli o‘zi yashab turgan joyini tashlab, kambag‘allar yashayadigan kvartalga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi. Bu yillarda uning O‘GLI Titus va ikkinchi xotini xam vafot etishdi. Shunday xorlik va zorlikda qolganida xam san’atkor "Sindilar" (Sukno ishlab chiqarish syexining boshliqlari), "Assur Omon va Esfir", "Adashgan ugilning qaytishi" (1669) kabi yuksak maxorat bilan ishlangan o‘tkir psixologik asarlar yaratdi. "Adashgan ugilning qaytishi" rassomning so‘ngti yetuk asaridir. Bibliyadan olingan syujetga rassom ko‘p murojaat qilgan. Mazkur mavzuda ofortlar xam ishlagan. Lekin uning ranggasvirdagi asarlari o‘zining psixologizmi va insonparvarlik ruxiga yo‘g‘rilgani bilan ajralib turadi. Otasi oyog‘iga yiqilgan O‘G‘IL va uni otalik mexri bilan qarshilayotgan ota obrazi chuqur xayajon uyg‘otadi. Otaning o‘z o‘g‘li qilmishlarini kechirib, unga mexr va achinish bilan boqishida rassom xayot yo‘li nixoyat mashaqqatli ekanligini zo‘r maxorat bilan ochib beradi. Otaning sullari xara-katida uning mexribonligi sezilib turadi. Aksincha, ugilning yalangoyoq kir, yirtilgan, juldur kiyimda tiz cho‘kkan xolatda tasvirlab, afsuslanishni aks etiradi. Kompozisiyada tasvirlangan boshqa obrazlarning sokin, osoyishta, chuqur xayolga cho‘kkan xolatlari aniq ko‘rsatilishi bo‘layotgan voqea mazmunini yanada to‘liqroq xis etishda muxim axamiyat kasb etadi.

Rembrandt qalamsurat va ofortchi sifatida xam mashxur. Uning ofortlari o‘zining g‘oyaviy yo‘nalishi, yuksak maxoratni namoyon etishi jixatidan uning rangtasvirda yaratgan asarlari bilan bir qatorda turadi. U ofort san’atida kichik zajmli lirik planda ishlangan suratlarni xam, ko‘p figurali maishiy janrdagi asarlarni dam yaratdi. Ofortda ishlagan portretlari xam uning ijodida alohida o‘rin egallagan. Rembrandt ijodining xammasini Gollandiya uchun beqiyos bo‘ldi. Rembrandt realizmining qudratli kuchi shu davr rassomlarini o‘ziga jalb etdi. Keyingi san’at taraqqiyotada muxim rol o‘ynadi.

XVII asr ikkinchi yarmi va uchinchi choragida burjuaziya xokimiyatining mustaxkamlanishi shu davr Gollandiya ijodkorlariga xam tasir eta boshladi. Xususan, detallari aniq suratlarga bo‘lgan talab demokratik yo‘nalishidagi asarlarining birmuncha kamayishiga olib keldi. Shunga karamasdan, ilg‘or ijodkorlar xayot xaqiqatini ifodalovchi asarlar yaratishga intildilar. Shunday rassomlardan biri **Delftli Yan Vermer** (1632- 1775) maishiy janrda asarlar yaratdi. Uning asarlari mavzusi chegaralangan. Bu rassom ko‘proq ayollarining xat o‘qiyotgan paytlari, rasm chizayotganliklarini, xayol

surib o‘tirgan xolatlarini tasvirlaydi. Uning asarlari kolorita nixoyatda nafis. Shu jixatdan u Yevropa san’atida utkir koloristlardan biri xisoblanadi. Rassomning xuddi impreseionistdar singari rang surtmalarini erkin ishlatish uslubi uning asarlarini nur va xavoga to‘ldirayotganga o‘xshab, asarlarining emosional kuchini oshiradi. Rassom ijodiga xos bu xususiyat uning manzaralarida xam ko‘rinadi ("Delft shaxri ko‘rinishi").

**Emanuel de Vitte** (1617-1692) maishiy janrda samarali mexnat qilgan. U o‘z asarlarida xayot ziddiyatlarini tulaqonli tasvirlagan. Bu uning bozor manzaralariga bag‘ishlangan asarlarida yakkol ko‘rinadi. Masalan, "Baliq bozori", "Portdagi bozor" va boshqalar.

XVII asr o‘rtalaridan boshlab, golland tasviriy san’ati maishiy janrida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Rassomlar oila, uy ichidagi xayot, kundalik turmushni ikir chikiri bilan tasvirlashga etibor berdilar.

**Piter de Xoox** (1629-1689) shunday mavzuda ijod qilgan rassomlardan biridir. Byurger xonadonidagi kundalik turmush, xo‘jalik ishlaribilan shug‘ullanish ("Uy bekasi va xizmatkor ayol" (1657), "Xovlidagi bola yetaklagan xizmatkor ayol" (1688), "Karta ishhibozlari" (1658) va boshqalar) uning asarlari mavzusini belgilaydi. **Piter de Xooxga** o‘xshash rassomlarni , odatda, "kichik gollandlar" deb atashadi. Bu nom ular asarlarining xajm jixatdan kichikligi va mavzusi xarakteridan kelib chiqqan. Terborx, Metsyu, Sten, Ostade kabi rassomlar "kichik gollandlar" toifasidandir.

**Adrian van Ostade** (1610-1685) dexqonlar xayoti, qaxvaxonadagi voqealar, ustaxonadagi ishga bag‘ishlangan asarlar muallifidir. Bu suratlar yengil yumor va lirik kayfiyat bilan sug‘orilgan ("Qishloqdagi qaxvaxona",1b60, "Rassom O‘Z ustaxonasida",1663, va b.). Aksincha, Yan Sten (1626 27-79) xalq sayillari va bazmlar, byurgerlar xayotidan olingan syujetlarga suratlar ishladi. Xatto, Bibliyadan olingan syujetlarga suratlar ishlaganida xam ularni go‘yo yerdagi xayotga o‘xshatadi. Ularga xayotiy yumoristik epizodlar kiritadi. U kompozisiyadagi xar bir obraz va epizodlar xarakterini ochishga intiladi. Bu xususiyat, ayniqsa, intim mavzudagi kichik asarlarida yaqqol seziladi. Masalan, "Bemor ayol va vrach" (1660).

**Gerard Terborx** (1617-1681) maishiy va portret janrlarida samarali ijod qildi. U ko‘proq burjuaziya va zodagonlar xayotiga bag‘ishlangan asarlar yaratdi. U shoyi, atlas, tiniq shisha buyumlar va boshqa narsalar yuzasi fakturasini nixoyatda ustalik bilan tasvirlaydi. Uning obrazlari aristokratik rux bilan sug‘orilgan. Ko‘p xollarda kumushrang kolorit uning asarlari asosini tashkil etib, unga o‘ziga xos poetik rux beradi ("Limonadli qadax." 1655-1660).

**Gabriel Metsyu** (1629-1667) xam mavzu tanlash, buyumlarni fakturasiga etibor berishda Terborxga yaqin. Lekin koloritni birmuncha yorqin olishi bilan ajralib turadi.XVII asr golland rassomligida realistik manzara janri keng tarqalgan. Rassomlar bu janrda jonajon o‘lkalarining tabiatini o‘ziga xos koloritini tasviriy san’atda badiiy ifodalab, jaxon realistik manzara san’atini yuksaltirdilar.

**Yan van Goyen** (1595-1656) - golland manzara san’atining yetuk vakili. U real borliqni o‘rganish asosida asarlar yaratgan. Birinchi bo‘lib tonal rangtasvirda asarlar ishlagan, tabiatning xam xavosini ustalik bilan tasvirlagan. **Yakob van Reysdal** (1626 - 1692) manzaralari o‘zining xistuyg‘u va kayfiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlari mavzusi keng. Qishloq ko‘rinishlari, tekislik va qumtepaliklar, o‘rmon botqoqliklari va dengizlari turli ko‘rinishda tasvirlanadi. Reysdal ijodining gullagan davrida dramatik manzaralar xam yaratdi. Bu yillarda **Reysdal** ko‘pincha tabiatning avzoi uzgarishi paytlarini tasvirlaydi. Osmonni ko‘ra bulutlar egallaydi. Ularning oralaridan tushgan yorug‘lik u yoki bu yerni yoritadi. Atrofga notinchlik, bezovtalik va sirli ko‘rinish kiritadi. Rassom tabiatni doimiy xarakatda ko‘rsatadi. Uning asarlarida daraxtlar shamoldan silkinayotgandek, daryo va dengiz to‘lqinlari mavj urayotgandek, quyuq bulutlar osmon uzra suzib borayotgandek tuyuladi. Bu xususiyat uning

manzaralariga dramatik xolat baxsh ztadi. Rassom ijodiga xos bu xususiyat "Qish", "Yaxudiylar qabristoni", "Jushqin daryo" asarlarida yaqqol ko‘rinadi. Rassom nur imkoniyatlaridan foydalanib, asarning tasirchanligini oshirishga erishadi. Reysdal ofort san’atida xam samarali ijod qildi.

**Meyndert Xobbema** (1638-1709) ijodida o‘rmon ko‘rinishlari, suv tegirmonlari manzarasi aloxida o‘rin tutadi. Uning asarlarida osoyishtalik xukm suradi. "Midselxarnis yo‘li" asarida rassom perspektiva qonuniyatidan foydalanib, fazoviy kenglik va cheksizlikni ishonarli tasvirlaydi.Golland rassomlari o‘z ijodlarida xayvonlar tasvirini ishlashga xam katta etibor berdilar. Ular xayvonlar ko‘rinishi, anatomik tuzilishini nixoyatda ustalik bilan tasvirlashga erishib, animal janr rivojiga xissa qo‘shdilar. Jumladan**, Paulus Potter** (1625-1654), Albert Keyp (1620-95) xayvonlar podasini ochiqlikda, tabiat qo‘ynida, o‘tlab yurgan yoki dam olayotgan paytida tasvirlaydilar.XVII asr golland san’atida dengiz manzaralarini tasvirlash xam aloxida o‘rin tutadi. Rassomlar bu mavzuda, ayniqsa, marina janrini rivojlantirdilar. **Vde Velvde**, **XSe-gers, Ya.Porsellis** va boshqa golland rassomlari shu borada samarali ijod qildilar va manzara janrini boyitdilar.

XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab boshka yurtlar, eng avvalo, Italiya manzaralarini aks etgirishga intiluvchi golland rassomlari guruxi shakllana boshladi. Bu rassomlar Italiya tabiatini chizish bo‘yicha mutaxassislashdilar. Ularning bir qismi Italiyada bo‘lib, bevosita manzaralar ishlagan bo‘lsalar, yana bir qismi O‘Z xamkasabalari ijodidan ilxomlanib, ularga taqlid qilib manzaralar ishladilar. Bular ichida **Klas Berxem** (1620-73), **Felips Vouverman** ( 1619-1668) ijodi birmuncha ajralib turadi. Jumladan, **Berxem** kun botish chog‘idagi odamlar, xayvonlarni tasvirilab tasirchan manzaralar yaratadi. **Vouvermen** asarlari xam shu jixati bilan diqqatni tortadi. U detallarni tugal, koloritini tasirchan bo‘lishiga xarakat qiladi. Lekin Italiya manzaralarini ishlagan bu rassomlar asarlarida chuqur xistuyg‘ular, xayotiylik yetishmaydi.XVII asr golland san’atida natyurmort mustaqil janr darajasiga ko‘tarildi. Golland natyurmortida, ayniqsa, nonushta tayyorlangan stol usti ko‘rinishi keng o‘rinni egallaydi. Ular nonushta stoli ustidagi pishgan oq non, sharobga to‘ldirilgan nozik shisha qadaxlar, kumushdan yasalgan turli choy va sharob idishlarini maxorat bilan tasvirladilar. Bu mavzuda **Billem Klas Xeda** (1594-1682) samarali ijod qildi"Pirogli nonushta").**Avram van Beysren** (taxm. 1621-1690) va **Billem Kalf** (1622-1693) balis va dengiz qisqichbaqalaridan, turli uy anjomlari va mevalarini tasvirlab, ajoyib natyurmortlar yaratdilar. O‘z natyurmortlariga fayans idishlar, kumush buyumlar, qimmatbaxo qadax va turli chig‘anoqlar kiritib, ularning tasirchan bo‘lishiga erishdilar. Ularning natyurmort kompozisiyalari murakkab, koloriti boy va yorqin **V.Kalfning** "Ertalabki nonushta",Beyerenning "Desert" asarlarida shu xususiyatlar mavjud.

XVII asr 70-yillaridan Golland san’ati inkderozga uchray boshladi. San’at dunyosiga kirib kelayotgan yangi yosh ijodkorlar golland burjuaziyasi talablariga moslashib, san’atning demokratik prinsiplaridan chekina boshladilar. Bu xususiyat portret san’atida obrazlarni ideallashtirishga, ularni **barokko** parad portretlariga uxshatib ishlashda, tashqi effektga etibor berishda seziladi. Buni natyurmort va manzara janrida xam ko‘rish mumkin. Maishiy janrdagi asarlarda xam xayot xarorati yo‘qolib borishi shu inqirozga olib keldi. Gollandiya bilan Angliya orasidagi urush Gollandiyaniig dengiz savdo – sotiq ishlaridan maxrum bo‘la borishiga mamlakat mavqeining yanada pasayishiga olib keldi. Bu golland san’ati inqirozini tezlashtirib, undagi demokratik yunalishga barxam berdi.

## XVIII ASRDA GERMANIYA VA AVSTRIYA SAN’ATI

XVII asrda bo‘lgan 30 yillik urush (1618-1648) Germaniyani yanada tarqoqlashtirib, uning iqtisodiy zaiflashuviga sabab bo‘ldi. XVIII asrda bo‘lib o‘tgan Prussiya va Avstriya orasidagi nizolar xam Germaniya va Avstriya ijtimoiy xayotiga salbiy tasir ko‘rsatdi. Ana shu ijtimoiy tarixiy sharoitda yangicha san’at o‘ziga yo‘l ochib bordi. Bu dastlab adabiyot va musiqada o‘zini namoish etdi (Lessing, Gyote, Shiller, Bax, Gendel). Memorlik va tasviriy san’atdagi jonlanish dastlab, Italiya xamda Fransiya tasirida yuz berdi. XVIII asr birinchi yarmida **barokko,** ikkinchi yarmida esa klassisizm uslubi ustuvor bo‘ldi. Germaniya san’atida **barokko** O‘Z ko‘rinish va xarakteri jixdgidan Italiya barokkosiga o‘xshab ketsa xam, lekin unga nisbatan detallarining birmuncha mayda va sovuq ko‘rinishi bilan farklanadi. **Barokko** mavzusi kupincha **rokoko** motivlari bilan aralashib ketadi. Bu xususiyatlar **Vyursburg** saroyi binosi va undagi intererlar (unga J. B. T’yepola suratlar chizgan) boy dekorativ bezagida namoyon bo‘ladi. Drezdendagi yirik cherkov binolari, **Potsdamdagi San-Susi** saroyi xam o‘zining nozik badiiy bezatilishi bilan etiborni tortadi. XVIII asr ikkinchi yarmida klassisizm Germaniya memorligida yetakchi o‘ringa chiqa boshladi. Berlindagi **Brandenburg darvozasi** (memor K.Langgans) o‘zining jiddiy ko‘rinishi va tantanavorligi bilan keyinchalik nemis memorligining o‘ziga xos uslubiy ko‘rinishini belgilashda muxim axamiyat kasb etdi. Germaniya va Avstriya tasviriy san’atida XVIII asr birinchi yarmida asosan **barokko** tasiri kuchli bo‘ldi. Tepolo xamda Berinining ijodiga taqdid qilish sezildi. Ayrim rassomlarning real borliqni tasvirlashga intilishlari malum darajada realistik jarayonning xam jonlanib borishiga imkoniyat yaratdi. Bu xususiyat portret san’atida sezilarli bo‘ldi. Germaniyalik rassom **Baltazar Denner** (1685-1749), slovakiyalik rassom **Yan Kupeskiy** (1667-1740) yaratgan portretlari, ayniqsa, diqqatga sazavordir. XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Germaniya antik san’atni urganish markaziga aylandi. Uning asosiy targ‘ibotchisi **Iogan Ioxim Vinkelman** (1717-1768) bo‘ldi. Uning "qadimgi san’at tarixi " (1764) antik san’atga bag‘ishlangan birinchi kitob bo‘lib, yangicha san’atshunoslikka asos soldi. U qadimgi yunon san’ati taraqqiyotining asosiy zamini yunon shaxar-davlatlari (polislar)dagi ijtimoiy sharoit ekanligini ko‘rsatdi. Vinkel’man kitobi yosh Gyote dunyoqarashining shakllanishiga xam kuchli tasir qildi. Shuningdek, u boshqa mamlakatlarning klassik estetikasining rivojlanishida xam muxim o‘rin egalladi. Nemis ranggasviri va grafikasida xam olimning tasiri sezilarli bo‘ldi. Natijada, XVIII asr ikkinchi yarmida klassisizm yetakchi Urinni egallab, shu uslubda ishlovchi qator yirik san’atkorlar yetishib chiqdi. Bular ichida **Anton Rafael Mengs** (1728-1779) ijodi alohida urinni egalladi. U Yevropa san’atidagi mashxur va tasirli rassomlardan biriga aylandi. Mengs o‘z ijodida antik san’atning ideal go‘zallik yaratish borasidagi kanonlariga sodik. qolgani xolda, uni Balon’ye akademistlarining yutuqlari bilan boyitishga, shaklning ifodali, jushkin bo‘lishiga aloxida etibor berdi. Shu bilan birga, Mengs naturani o‘rganish zarurligini unutmadi. Bu uning portretlaridagi realistik jixatni belgilaydi. Nemis san’atidagi realistik yo‘nalish **Daniyel Xodoveski** (1726-1809) ijodida to‘liqroq O‘ZINI namoyon etadi. Asli pol’shalik bo‘lgan bu san’atkor angliyalik rassom Xogart tasirida nasixatgo‘ylik yo‘nalishida qator gravyura va ofortlar ishladi. Jamiyat xayotida sodir bo‘layotgan kamchiliklarni tanqid qildi. Uning "Dansigga sayoxat " (1773) deb nomlangan albom uchun ishlangan suratlari bevosita O‘Z ona yurtiga silgan safari paytida yaratilgan bo‘lib, ular nemis reapistik san’ati taraqqiyotida muxim o‘rin egalladi.

## XVIII ASRDA ANGLIYA SAN’ATI

Angliya san’ati taraqqiyotidagi yangi bosqich XVII asr ikkinchi yarmidan memorlikda namoyon bo‘la boshladi. Memor **Inigo Jons (1573-1620)** mumtoz

memorlikni dastlab A. Palladio yajodini targ‘ib etishdan boshladi va bu bilan ingliz klassisizmi prinsiplari shakllanishida muxim rol o‘ynadi. Bu xususiyat binoning funksional tomoni qulayligi xamda uning badiiy bezatilishini uyg‘unlashtirib yuborishga, klassik shakllarni aniq va erkin ishlatishga intilishda namoyon bo‘ldi. Jons boshlagan ishni keyin mashxur memor **Kristofer Ren (1632-1723)** davom ettirdi. U mumtoz shakllarga milliy, o‘ziga xoslik kiritishga xarakat qildi. Uning masdur va yirik asarlaridan biri Londondagi ulug‘vor va tantanali Avliv Pavel ibodatxonasi binosidir. Uning inter’yerlari, kompozisiyasi o‘rta asr memorligiga yaqin. U lotin butiga o‘xshaydi. Lekin bino konstruksiyasi va, ayniqsa, undagi orderlar, katta gumbaz ishlanishi jixatdan mumtoz memorlik tamoyillarini eslagadi va ingliz klassisizmi-ning o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiladi. Klassisizm XVIII asr Anglii memorligida yetakchi o‘rinni egalladi. U shaxar va uning chekkasida torilgan shaxsiy imoratlarda xam o‘z ifodasini topdi. Klassisizmning rasionalistik qatiy uslublaridan chekkaga chiqishga intilish dastlab ingliz bog‘-park san’atida boshlandi. qatiy, geometrik reja asosida qurilgan fransuz bog‘lari o‘rniga Angliyada tabiiy bog‘-parklar yaratish, past-baland joylar, soy va jarliklarda erkin rejalashtirilgan shakllar yaratishga xarakat qildilar. Bunda so‘qmoq yo‘llar, daraxtlardan foydalandilar. Ana shunday parkning yuksak namunasini **Uilyam Kent (1684-1748)** yaratdi. XVIII asr o‘rtalaridan esa park ko‘rinishiga romantik notalar kiritiyaa boshlandi. Parklarda qadimiy memorlik yodgorliklarini eslatuvchi, turli kompozisiyalar masalan, ustunli ibodatxona, kolonnayaar, maqbaralar, pagoda va boshqalar qurila boshlandi.

Rassomlik va xaykaltaroshlik. XVII asrga kelib, ingliz rassomligi va xaykaltaroshligida muxim asarlar yaratildi. Ayniqsa, ingliz rassomlarining rangtasvir borasida erishgan yutuqlari keyinchalik Yevropa san’ati taraqqiyotida muxim bo‘ldi.

**Uilyam Xogart (1697-1764)** Angliyaning yirik rassomi, ingliz realistik rangtasvirining asoschisidir. Uning rangtasvir va gravyuralarida mavjud tuzum, uning illatlari o‘z ifodasini topdi. O‘ziga xos novatorlik bilan ishlangan, xikoyanavislik xarakteriga ega Xogart asarlari davrning ilg‘or g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular ingliz san’atida realizm tamoyillarining mustaxkamlanishiga xizmat qildi. Xogart nazariyotchi sifatida xam samarali mexnat qildi. “Go‘zallikni taxlil etib” (1753) kitobida Xogart san’atning g‘oyaviy jixatiga etibor berib, demokratik estetikaga xos tamoyillarni ilgari surdi. U rasmiy badiiy nazariyalarni, tashqi jixatidan chiroyli, lekin ichki moxiyati jixatdan bo‘sh, xayotdan uzoq san’at asarlarini, birinchi galda rasmiy portretlarni tanqid qildi. Kishilar turmushi, jamiyat tarakkiyotini o‘zida tulik aks ettira oladigan maishiy janr yetakchi o‘rinni egallashi kerak, dedi. O‘zi shu tamoyillarga sodiq xolda asarlar yaratishga intildi. Xogart ijodi 1780 yillardan boshlan-i. Uning ilk asarlaridayoq rassom ijodining o‘ziga xos xususiyatlari paydo buldi. U odatda, turkumli asarlar, yani bir-biri bilan boglik bir necha mustaqil kompozisiyalar yaratishni sevadi. Rassom O‘Z fikr va g‘oyasini turkum asarlarida sekinlik bilan bayon etib, ochib boradi. Masalan, uning "Zamonaviy nikox" (1735) asarlari turkumi olti tugallangan suratdan iborat bulib, unda qambag‘allashib qolgan zodagon O‘Z O‘G‘LINI boy savdogar qiziga uylantirishi va shu org‘ali boyib olishga intilishi ko‘rsatiladi. Asarning so‘ngtida esa uning natijasi-kuyov kelinning o‘ynashi tomonidan uldirilishi, qotilning dorga osilishi, kelin esa alam va uyatga chiday olmay O‘Z-O‘ZINI o‘ldirishi tasvirlanadi. Rassom xar bir kompozisiyani tugal, tasvirlangan vokeaning tushunarli bo‘lishiga aloxida etibor beradi. Shu maksadda, qatnashuvchilarning xatti-xarakatidan, yuzidagi mimik o‘zgarishlaridan, ularni o‘rab turgan buyum va detallardan keng va o‘rinli foydalanishga xarakat qiladi. Xogartning xayotga tanqidiy qarashlari uning grafika asarlarida xam O‘Z ifodasini topdi. U shaxar xayotiga bag‘ishlangan grafikalarida axloqiy masalalarni ko‘tarib chiqadi. Turmushning og‘irligi tufayli odamlar insoniylikdan chiqib borayotganligini ochib ko‘rsatdi. "Pivo sotiladigan ko‘cha" (1751) asarida tasvirlangan ona obrazi shu-lardan

biridir (19- rasm). Xogart portret san'atida xam samarali ijod qildi. U o'z portretlarida zamondoshlari obrazlarini yaratib, ularga bo'lgan samimiy xurmatini izxor etdi. Xogart XVIII asrning yirik rassomlaridan biri sifatida ijodi bilan ingliz san'atida ilg'or an'analarni boshlab berdi. Uning ijodi Yevropa realistik san'ati tarakkiyotida muxim axamiyatga ega bo'ldi. Uning ijodi nemis, rus va boshqa xalqlar rassomlik san'atida maishiy janr taraqqiy etishiga tasir o'tkazdi. Keyinchalik Yevropa realizmining yirik vakili Goyya uning g'oyalari tasirida ijod qildi.

XVIII asrda ingliz portret san'atida xam katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda ijod qilgan ko'pgina rassomlar rasmiy portret an'analarini davom ettirgan xolda, o'z zamondoshlarining to'laqonli, xayotiy obrazlarini yaratishga xarakat qildilar. Ana shunday rassomlardan biri **Joshua Reynolde** (1723-1792) dir. Ingliz akademiyasining tashkilotchisi va birinchi prezidenti Reynolde asosan, yuqori tabaqa vakillari portretlarini yaratdi. U o'z ijodida rasmiy portret ananalariga sodiq qolgan xolda, uni aniq psixologik mazmun bilan boyitishga intildi. Shuningdek, Italiya va Fransiyaga kilgan sayox.ati uning ijodiy o'sishida katta rol o'ynadi. Erkin rang surtmalaridan foydalanishga intilishi uning asarlariga qaytarilmas o'ziga xoslik baxsh etdi. Reynolde allegorik xamda romantik rux bilan ishlangan rasmiy portretlar xam yaratdi.Tarixiy voqea va afsonalardan olingan syujetlar asosida rasmlar ishladi. Lekin ijodiga xos muxim fazilat uning naturadan ishlangan portretlarida, aynikra, yorqin namoyon bo'ldi. Ular rassomning eng barkamol asarlari xisoblanadi. Shunday portretlardan biri "Nelli Brayen portreti" (1762) dir. U o'zining to'laqonliligi, portretlanuvchining o'tirishi, asarning nur va rangga boyligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

**Tomas Geynsboro (1727-1766)** asarlari o'zining musiqiyligi, nafis va jozibadorligi bilan ajralib tu radi. Rassom ko'p xollarda yengil, beg'ubor, o'zaro nozik tuslanuvchi ranglar gammasidan foydalanadi. Bu uning asarlariga, ayniqsa, portretlariga poetik rux kiritishda muxim rol o'ynaydi. Shu jixatdan uning "Gersog ayol Bofor portreti" (tax.1770 i) etiborga loyiq. Portretda tanlangan nafis ranglar o'yini obrazning yanada tasirchan ko'rinishiga xiz-mat qilada Topilgan kompozisiya ayolning o'tirishi, boshini biroz yonga burgan xolda dadil qarashi va qo'llari xarakati zodagon ayollariga xos xususiyatni ochishga xizmat qilsa, tanlangan nafis ranglarning tovlanishi uni yanada tasirchan etadi. Geynsboroning manzara san'atidagi asarlari xam ingliz manzarachilik san'ati taraqqiyotida muxim rol o'ynadi. Rassom tabiat ko'rinishini xayotiy lavxalar bilan boyitish orsali o'z xis-tuyg'u va fikrlarini bayon etadi. Rassomning bu janr rivojiga qo'shgan xissasi ingliz tabiatiga xos xususiyatni (ingliz tabiatining biroz nam xavosini) ishonarli Tallin eta olishida, fazoviy bo'shliqni xavo bilan to'ldira olishida xdmda nur mo'lligida namoyon bo'ladi. Geynsboro ijodining ana shu kabi jixatlari XIX asr ingliz realistik manzara janri taraqqiyotida muxim o'rin tutadi.

## XVII ASR OXIRI VA XVIII ASR BIRINCHI YARMIDA RUS SAN'ATI

XVII asrda Rossiyada feodal-krepostnoylik tuzumi xukm surar, feodalizm va antifeodal kuchlar orasidagi ziddiyatlar nixoyatda keskinlashdi. Bu esa Rossiyani larzaga keltirgan g'oyat katta dexqonlar urushlari va g'alayonlarini keltirib chiqardi. Stepan Razin (1670-1671), Kondratiy Bulavin (1707-08), Yemel'yan Pugachev (1773-1775) boshchiligidagi g'alayonlar yuz berdi. Bu ziddiyat va qarama-qarshiliklar rus ziyolilariga, badiiy ijodga tasir etmasligi mumkin emas edi. Shu feodal qoloqlikka qarshi kurashda rus milliy madaniyati shakllandi. Bu madaniy jonlanish ildizlari XVI-XVII asrlarda yuzaga kelgan bo'lsa-da, lekin Rossiyani "yevropalashtirish" jarayoni buyuk Petr I (1672-1725) faoliyatn bilan uzviy bog'liqdir. U podsholik qilgan yillarda Rossiya Yevropaning ijtimoiy, g'oyaviy va madaniy tasiri to'xtovsiz o'sib bordi. Petr I

ning davlatni boshqarish, dvoryan va savdogarlarning imtiyozlarini oshirish, maorif soxasidagi isloxrtlari Rossiyani o‘rta asrchilikdan qutilishga va Yevropadagi yirik davlatlardan biriga ayla-nishiga olib keldi. Rus dvoryanlari Rarbiy Yevropa ilm-fani va madaniyatini chanqoqlik bilan o‘zlashtira boshladilar. Shuning uchun X xam VIII asr boshlaridagi rus san’at va madaniyatda XVII-XVII asr G‘arbiy Yevropa san’ati va madaniyati tasiri mavjudligini va ular ma’lum darajada maxalliy an’analar bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xoslik kasb etganini ko‘rish mumkin. G‘arbiy Yevropa san’atidagi barokko, rokoko va klassisizm kabi uslublar rus san’atida xam rivojlandi. Klassisizm uslubi esa XVII asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida asosiy uslubga aylandi. Shuni ta’-kidlash kerakki, rus klassisizmi Rarbiy Yevropa badiiy uslubidan O‘ZINING mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishi milliyligi bilan ajralib turadi. Agar yevropalik ijodkorlar yunon-rim afsonalari mavzulariga murojaat qilsalar, rus ijodkorlari kuprok. milliy tarix voqealarini O‘Z asarlarida ifodalashga intilishlari bilan ajralib turadi. Agar o‘rta asr san’ati, (xatto uning sunggi bosqichi bo‘lgan XVII asr san’ati) cherkov bilan bog‘liq bo‘lib, uning buyurtmasini bajargan bo‘lsa, endilikda san’atkorlar dunyoviy xayot bilan bog‘liq kundalik turmushni ifodalashga ko‘proq etibor bera boshladi. Natijada, san’atning tur va janrlari kengaydi, ifoda vositalarining tasirchanligi ortib bordi. Bu Rossiyaning yangi poytaxti Peterburg va boshqa shaxarlar kurilishi bilan yanada avj oldi. Ijtimoiy va ma’muriy binolarning ko‘plab qurilishi dekorativ va dumaloq xaykaltaroshlik, relyef san’atining rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Bu san’at turlari shu davr memorlik majmualarining serxasham, salobatli va savlatli bo‘lishida muxim o‘rin egalladi va Peterburg qurilishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Dastlab qal’a va port sifatida qurilgan **Peterburg** shaxri tezda Petr I davlatining poytaxtiga aylandi. Uning qurilishida butun Rossiya qatnashdi. Mamlakatning xamma joylaridagi qurilishlar to‘xtatildi. Butun kuch Peterburg qurilishiga jalb etildi. Xukumatning "qurilish bo‘yicha xay’ati butun qurilish ishlariga rahbarlik qildi. Shahar qurilishinyng boshlanishidanoq uning joylashuviga aloxda etibor berildi. Peterburg shaxrining bosh rejasi ishlab chiqildi. Fransiyalik memor **Leblon Jan Batist** (1679-1719) xamda shvesariyalik **Domeniko Trezinilar** tayyorlagan shaxar bosh rejasi loyixasi kamchiliklardan xoli bo‘lmasa xam u shaxar qurilishi va uning keyingi rivojida muxim o‘rin egalladi. Shaxarda bir vaqtning o‘zida ma’muriy-ijtimoiy, savdo, sanoat, ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan binolar qurildi. Antik davr memorchiligi tez va jiddiy qayta ishlandi. Xatto eng nafis saroylar xam o‘zining kambezakligi bilan xarakterlanadi. Shaxar qurilish ishlariga chet el memorlari va muxandislari xam jalb etildi. Rus memorlari ilg‘or Yevropa mamlakatlariga o‘qishga yuborildi. Ular Rarbiy Yevropa memorligi yutuqlarini o‘rganib, XVIII asr rus memorchiligi ravnaqiga o‘z xissalarini qo‘shdilar. qurilishnimg avj olishi va kengayishi bu davr memorchiligida qator yangi memorlik shakl va tiplarining paydo bo‘lishiga olib keldi. XVII asr rus memorchiligi an’analari, jumladan, cherkov qurish san’ati an’analari ilg‘or Yevropa (Italiya) san’ati an’analari bilan chatishib, yangi kurinishlar kasb eta boshladi. Bu xususiyat memor Domeniko Trezinining asarlarida, jumladan, uning Peterburgdagi Petropavlovsk ibodatxonasi (1712-1733), Petrov darvozasi, Menshikov minorasida namoyon bo‘ldi. **Trezini Domeniko** (1670-1734) Shveysariyada tug‘ilgan, Daniyadan Rossiyaga taklif qilingan. U yaratgan mashxur Petropavlovsk sobori uch nafli bazilika tipidagi kompozisiyada qurilgan bo‘lib, u g‘arb tomondan baland shpilli (nayzali) minora bilan tugallangan (20 - rasm). Trezini binblari shu davr memorligining yangi uslubi shakllanishida muxim o‘rinni egalladi. Rus cherkov memorligining yangi davr memorligi bilan uyg‘unlashuviga quruvchi I.D.Zarudniy ijobiy rol o‘ynadi.

Petr I xukmronlik qilgan yillarda realistik san’at yo‘nalish dastlab grafikada namoyon bo‘ldi. Shu san’atning yirik vakillari **A.F.Zubov** (tax.1662-63-1749) va **M.I.Maxayev** (1716-1770) O‘Z gravyuralarida yangi poytaxt Peterburg ko‘rinishlarini,

uning memorlik majmualari go‘zalligini ifodaladilar. Bu san’atkorlar zamondoshlar portretlari, jang maydonlari manzaralari gravyuralari, dikiy rasmlar, xayotiy lavxalarni xam yaratdilar.

XVIII asr boshlarida rangtasvir san’atida portret janri yetakchi o‘rinni egalladi. Buning boisi bor edi, albatta. Davlat va sanoat korxonalarining o‘sishi, madaniyatning rivojlanishi aklli, ziyrak, ishbilarmon odamlarga bo‘lgan talabni ortgirib yubordi. qobiliyatli shaxslar e’zozlandi. Jamiyatnining shaxsga bulgan bu munosabati portret san’atiga etibor qaratilishiga olib keldi. O‘Z mexnati, aql zakovati, davlat oldidagi xizmatlari bilan xurmatga loyiq bo‘lgan kishilar qiyofasi portret san’atida O‘Z ifodasini topdi. Rus portretchiligi rivojlanishi "qirollar palatasi ustaxonasi" rassomlari faoliyati bilan bog‘liq Bu yerda rus va chet el rassomlari ishlagan portretlar o‘z qurinishi va xarakteri jixatidan ko‘proq parsunaga yakinlashib ketadi. Rassom-lar parad portret ishlashni ma’qul qurishadi. Bunday portretlarda fon shartli ishlanib, unda turli tushuntirish yozuvlari uchraydi. Portretlanuvchilarning liboslari, bezaklarini aniq ko‘rsatishga intilish xam portretning dekorativ jixati ortishiga xizmat qiladi. Parsunada fazoviy kenglyk va xajm masalasi xam to‘liq yechilmagan. Obraz xarakteri to‘liq ochilmagan. Rus san’atida mavjud bulgan parsuna san’ati yo‘nalishi asosan XVII asr 80-90-yillarida paydo bo‘ldi. Rus badiiy xayotiga rassom-pensionerlarning ko‘plab kirib kelishi xamda chet el rassomlari safining kengayishi XVII asr oxirlaridan boshlab rus san’atidan parsuna san’ati yo‘nalishini siqib chiqara boshladi. Rus san’atida to‘laqonli portret asarlari yuzaga kela boshladi. Endilikda tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasinigina emas, balki uning murakkab ichki ruxiy dunyosini xam yoritishga intilish boshlandi. Rassomlar Andrey **Matveyev va Ivan Nikitin** portret san’ati texnikasini chuqur egallab, uni milliy, o‘ziga xos rux bilan sug‘ora oldilar.

I.Nikitin. Rus realistik portret san’ati asoschisi, **Ivan Nikitin** (tax. 1660-1724) ijodida Petr I davrining ilg‘or G‘OYA va intilishlari o‘z ifodasini topdi. Uning mashxur asarlaridan biri "Getman portreta" xisoblanadi. Rassom tasvirda xajm, kenglyk va tasvirlanayotgan buyumlar fakturasini yuksak darajada moxirona bajara olishini namoyish etadi. Uning inson ruxiy dunyosini yoritishga intilishi seziladi.

Portretlanuvchi dastlab O‘ZINING oddiyligi bilan ajralib turadi (bu oddiylik kiyinishi, to‘zg‘igan sochlari va tabiiy o‘tirishida ko‘rsatilgan). Lekin uning o‘tkir qarashi va O‘ZINI tutishida jasur, ishbilarmon qo‘mondon qiyofasi gavdalanadi. Asar koloriti portretning to‘laqonli bo‘lishida muxim o‘rin egallaydi. Noeik rang tovlanishi yoshi o‘ta boshlagan, ko‘z qarashlarida xorg‘inlik va charchash sezila boshlagan, shuncha qaramay bardam bo‘lgan getman qiyofasini ishonarli ifodalaydi. Koloritdagi sariq, pushti va to‘q ko‘k ranglar o‘zaro tovlanib, asarning tasirchanligini kuchaytiradi. Petr I Nikitinni juda qadrlab, uning yutuqparidan g‘ururlandi. Vir necha marta bevosita o‘ziga qarab, rasmini chizishga ruxsat berdi. Rassomning "Aylana ichida ishlangan Petr I portreti" xamda so‘nggi "O‘lim tushagida yotgan Petr I portret" mashxurdir. Birinchi portretning kompozisiyasi sodda. Unda Petr I ning boshi va qisman yelkasi ko‘rsatilgan. Nur podshox yuzi va uning o‘tkinchiga qarab turgan o‘tkir ko‘zini yoritgan. Bu bilan rassom tomoshabin uchun tasvir-lanuvchining kayfiyatini tushinishga imkoniyat yaratgan. Ras-som Petrning xorrin, lekin utkir qarashi, boshini magrur tutishida uning yirik isloxotchiga xos qiyofasini yarata olgan. Asar koloriti asosan iliq ranglardan tashkil topgan. Bu uning tasirchanligini belgilashda muxim o‘rin tutgan. (O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida xam I. Nikitin asarlaridan nusxa mavjud).

Petr I davri rangtasvirida rassom **Andrey Matveyev** (tax. 1701-1739) ijodi xam aloxida o‘rinni egallaydi. Matveyev o‘z zamondoshlarining portretlarini yaratdi, allegorik kartinalar va ikonalar ishladi. qurilish konselyariyasiga qarashli "Rassomlar guruxga raxbarlik qildi. Rassomning asarlaridan xam namunalar saqlanib qolgan. Shunday asarlaridan biri uning o‘z qaylig‘i bilan birga ishlangan avto-portretidir (1729).

Asar oʻzining xayotiyligi bilan etiborni tortadi. Unda shirin xayollar orushida boʻlgan yosh ayol va oʻz xayotidan mamnun rassom qiyofasi koʻrsatilgan.

**Xaykaltaroshlik.** XVIII asr xaykaltaroshligi davr san'ati va madaniyatining umumiy ravnaq bilan bogʻliqdir. Bu davrda dumaloq xaykaltaroshlik realizmga oʻta boshladi. Yogʻoch oʻymakorligi oʻzining gullagan davrini boshidan kechirdi. Monumental va dekorativ xaykaltaroshlik keng yoyila boshladi. Bu san'atning rivojlanishi, avvalo, Peterburg qurilishi bilan bogʻliq. Peterburg va uning yaqinnidagi saroylarni qurishda dekorativ xaykaltaroshlik, ayniqsa, buyurtma tasvir-rel'yefdan foydalanish muxim oʻrin tutdi. Bu ishlarni rus ustalari bilan birga, chet eldan kelgan san'-atkorlar bajardilar.1716 yili Parijdan kelgan, asli italiyalik **Karlo Bartolome Rastrelli** (tax. 1675-1744) portret, monumental va dekorativ xaykaltaroshlik asarlari bilan rus san'atini boyitdi. Uning mashxur asarlaridan biri bronzadan yasal-gan Petr I portretidir. (1723 -1729) Rarbiy Yevropa plastikasi maktabida uqigan Rastrelli yaratgan obraziga Gʻarbiy Yevropa barokkosiga xos xususiyatlar -koʻtarinkilik, obraz yechimining shakl boyligi, yorugʻ-soya keskinligini kiritib, asarga emosional kuch baxsh etadi. Xaykaltarosh bu asarida Petr I ni oʻziga oʻxshatish bilan chegaralanmay, unda shijoatli, kuch va qudratga toʻla davlat arbobi obrazini gavdalantirdi. Bu san'atkor Petr I ning safdoshi A. Menshikov portretnoʻy xam yaratgan. Bu asari xam toʻlaqonligi bilan Petr I portretiga oʻxshaydi. Rastrellining monumental xaykaltaroshlik asarlaridan "Otga min-gan Petr I xaykali", ayniqsa, mashxurdir. Antik va Uygʻonish davrida yaratgan otliq yodgorliklari tasirida yara-tilgan bu asarida san'atkor isloxotchi, zafar quchgan podsho obrazini yaratishga muvaffaq boʻldi. Xaykal birmuncha kutarinki va tantanavorlik ruxda ishlangan bulishiga kara-may, unda Petr I ga xos shijoat, intilish va iroda ustalik bilan ochib berilgan.

Xaykaltaroshning janrli kompozisiyalaridan "Anna Ivanovna arab bolachasi bilan" xaykali mashhurdir. Unda nafis liboslarga oʻrangan xukmdor ayol obrazi gavdalantirilgan. Ivanovnaning ma'nosiz qarashlarida oʻzboshimcha xrkimning ichki dunyosi ochiladi. Rastrelli bu xaykalda avvalgi asarlaridagi singari xar bir detalning aniq boʻlishiga xarakat qiladi.

Anna Ivanovna (Petr I jiyani) podsholik qilgan davrda (1730-1740) rus san'atida koʻplab chet ellik rassomlar, jumladan, Rotari, Tannador, Groot, j-l de Velli, Torelli ijod qilishdi. Yelizaveta (1740-1762) xamda Yekaterina 11 (1762-1792) podsholik qilgan yillar esa rus san'atining eng gullagan davri xisoblanadi. Shu yillarda Moskva universiteti va Peterburg **Badiiy Akademiyasiga** asos solinishi rus san'ati va madaniyati rivojini tezlashtirdi.

**Memorlik.** XVI11 asr 40-50 yilarida rus memorchilik san'atida saroy va ibodatxonalar qurilishi yetakchi oʻrinni egallab, binolar oʻzining sergʻashamligi, bezak ishlarining nafisligi va yorqinligi bilan keskin ajralib turadi. Shaxar chekkasi va atrofida qurilgan saroylar aniq rejaga eta juda koʻp va xilma-xil dekorativ qurilma va xaykallar bilan bezatilgan bogʻ-parklar bilan oʻral-di. Ular saroy koʻrinishining yanada ulugʻvor va koʻrkam boʻlishini ta'minladi.

Memorchilikda sodir boʻlgan bu oʻzgarishlar xaykaltarosh K.Rastrellining oʻgʻli Franchesko Bartolomeye Rastrelli (1700-1771) ijodida yorqin namoyon boʻldi. Bu san'atkor yaratgan asarlari xajm jixatidan katta, kirish eshiklari serxasham va tantanavor, old koʻrinishi buyurtma tasvirga boy. Ustun, yarim ustun va plyastrlar, Xaykallardan keng foydalanilishi binoning tashqi xashamatini orttiradi. Rastrelli binolari yorqin ranglar, oltin xallar bilan bezatilgan va rus memorligidagi barokko uslubini oʻzida namoyon etadi. Inter'yerni bezashda yogʻochlardan ishlanib, oltin suvi yuritilgan oʻymakorlik va xaykaltaroshlik, toshoyna, rangtasvir vstavkalaridan keng foydalangan.

Rastrellining shunday uslubda ishlagan asarlari orasida xozirgi Pushkin shaxridagi (Sarskoye selo) Yekaterina saroyi, Peterburgdagi qishki saroy (21-rasm) va Smolniy ibodatxonasi, M.Voronsov va S.Straganovlarning saroylari, ayniqsa, mashxurdir.

XVIII asr o‘rtalarida ko‘pgina memor va quruvchilar Peterburg va Moskva shaxri kurilishlarida mexmat qildilar. Ular ichida Peterburgdan **S.I.Chevakinskiy,** moskvalik memor **D.V.Uxtomskiylar** mashxurdir. Bu davr san’ati o‘z xarakteri jixatidan dekorativ bulib, uning asosiy vazi-fasi Yekaterina davrida qurilgan binolarni bezash edi. Xaykaltaroshlik va rangtasvir san’ati o‘z mustaqilligini yo‘qota boshladi. Plafonlar ishlash, devor va eshiklarni suratlar bilan bezash usullari keng yoyildi. Xatto, xaykaltaroshlik asarlari xam asosan xonani bezash makradlari uchun ishlatildi. Bunday asarlar g‘oyaviy yo‘nalish, mazmun talab etmas. Bu esa Petr I davri san’atidagi g‘oyaviylikdan orqaga chekinishni bildirar edi. Qurilishlar konselyariyasi guruxda to‘plangan rassomlar nozik dekorativ rassomlik bilan shug‘ullanar edilar.

XVIII asr o‘rta va ikkinchi yarmi tasviriy san’atida portret janri yetakchi o‘rinni egallab, o‘zida Petr I davri an’a-nalarini davom ettirdi. Portret ustalaridan biri Ivan Vishnyakovning "Ko‘zcha Sarra Fermer" portreti XVIII asrda bolalarga atab ishlangan eng yaxshi asarlardan sanalgan "Unda rassom bolalarga xos fazilat – beg‘uborlik, ishonuvchanlik va xayotga qiziqish bilan qarashni yuksak maxorat bilan aks ettira olgan. Tanlangan mayin rang gammasi asar mazmuniga mos tushgan. Vishnyakov devoriy suratlar xam ishlagan. Matveyevdan keyin "Rassomlar guruxini boshqargan, milliy rassomlarni tarbiyalashga xissa qashtan. Rassom **Aleksey Petrovich Andropov** uning shogirdlaridan biridir. U Peterburgda qurilayotgan binolarga tasvir ishlash, bezashda qatnashish bilan birga, realisgik portretlar ishlagan. Uning ilk portretlarida parsuna uslubi sezilsa xam (obrazni qotib qolgan xolda tasvirlash, libosdagi naqshlar yorqinliga va nafisligaga ko‘p etibor berish), lekin ularda kompozisiyaning erkin va tabiiy bo‘lishiga, obrazning real bo‘lishiga intilish seziladi. Uning ijodiga xos bu jixatni "Petr III portreti" da ko‘rish mumkin. Rassom Petr III ni qimmatbaxo buyumlar orasida turgan paytida tasvirlagan. Uning mag‘rur turishi, bir nuqtaga tikilgan ko‘zi va soxta tabassumida kaltafaxm, maktanchoq odam qiyofasi gavdalanadi. Yelkalari tor, qorni kattaligi, ingichka uzun oyoqlari uning jismoniy xunukligini ifodalasa, aksincha befaxm, mag‘rur turishi, ma’nosiz boqishi uning ma’naviy zaifligini ko‘rsatadi. Bu xunuklik uning o‘rab turgan serxasham buyumlar fonida yanada bo‘rtib turadi.

"Rus kostyumi kiygan dexqon ayoli" portretining muallifi Ivan Petrovich Argunovdir. Uning portretlari xam realisgik xarakterna ega. Bu rassom o‘z qaxramonlarini tashqi qiyofasi va ruxziy dunyosini yoritishga intiladi. Yuqorida eslab o‘tilgan asar xam shunday portretlaridan biri bo‘lib, unda oddiy dexqon qizining jismoniy go‘zalligi, tiniq xis tuyg‘ulari ifoda etiladi.

XVIII asr ikkinchi yarmida va uchinchi choragi so‘nggida rus san’ati va madaniyati yangi o‘ziga xos milliy xususiyat kasb etdi. Bu kamolot rus imperiyasining Yevropadagi eng kuchli davlatlaridan biriga aylanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Davrning bu o‘zgarishlari ko‘zni qamashtiradigan darajadagi serxasham san’at asarlarida o‘z ifodasini topdi. Lekin ayni shu davrda rus madaniyati va san’atida krepostnoylik tuzumi inqirozi bilan bog‘liq yangi xususiyatlar xam paydo bo‘la boshladi. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi xalq noroziligini kuchaytirib, g‘alayonlar keltirib chiqardi. Yemel’yan Pugachev raxbarligidagi g‘alayonlar butun dvoryan davlatini kattik larzaga keltirdi. Bu koroley bostirilgan bo‘lsa xam, lekin u pomeshchiklar sinfining ilkor vakillarini krepostnoylik tuzumi to‘g‘risida o‘ylashga majbur etdi. Rossiyada ma’rifatparvarlik falsafasi paydo bo‘ldi. Bu davrning muxim tarixiy voqeasi ma’rifatparvar A.N.Radishchevning faoliyati bo‘ldi. U o‘zining "Petyerburgdan Moskvagacha sayoxati" kitobida krepostnoylik va chor samoderjaviyasini qattik; krraladi. Krepostnoy tuzum qoloqligi ko‘pgina dvoryan ilg‘or

ziyolilarini xam to‘lqinlantirdi. Birinchi bor xalq bilan xisoblashish zarurligi tuo‘g‘risidagi fikr ko‘pchilikni o‘ylantirdi.

Memorlik. Bu davr memorligida klassisizm yetakchi Lrinni egalladi. Bu uslubda shoxrna asarlar yaratdi. Memor **Matvey Fedorovich Kazakov** (1738-1812) ijodi bevosita Moskva bilan bog‘liqdir. Uning mashxur asarlaridan biri Kremyadagi Senat binosi xisoblanadi. XVIII asr 70-yillarida odilgan bu bino UZINING tantanavor ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Moskva universitetining eski binosi, boyagi kasalxonasi xam shu memor ijodiga mansub. Kazakov bosh rus klassisizmiking yirik vakilidir. U qurgan binolar o‘zining yaxlit kurinishi bilan ko‘zga tash-lanadi. Bu davrda surilgan tantanavor eng katta saroylardan yana biri Peterburgdagi Tavriya saroyidir. Bu bino rus memori **I. Ye. Staroye** (1745-1808) loyixasi asosida turli tantana va bayram marosimlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallab qurilgan. Peterburgdagi Smol’niy instituti binosi, memor **D. Kvarengining** (1744-1817) yetuk asarlaridan biridir.

Rus klassisizmining yorqin namunasi bo‘lgan bu bino tashqi ko‘rinishi salobatli. Tekis sarik devor fonida oq ustun plyastr va dekorativ karnizlar binoga aloxdda fayz kiritadi. Bu xususiyat memorning boshqa kompozisiyalarida, xususan, Peterburgdagi Fanlar Akademiyasi, Davlat Banki, Aleksandr saroyi binolarida xam namoyon bo‘ladi. Peterburg yakinida joylashgan Sarskoye selo (xozirgi Pushkin shaxri) va Pavlovsk shaxridagi ko‘pgina binolar memor **Ch. Kameron** (tax. 1740-1812) nomi bilan bog‘liq. Uning Pavlovskdagi saroyi, Pushkin shaxridagi Kameron galereyasi sodda kompozisiyasi va nafis pardozlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Sarskoye selodagi Yekaterina saroyining Yekaterina II shaxsiy xonasi inter’yerlari uzining bezatilishi, buning uchun turli materiallardan o‘rinli foy-dalanganligi bilan etiborni tortadi.

Bu davrda shaxarda va shaxar tashqarisida qo‘rg‘on qurilishi xam jonlandi. Ularda qadimgi kal’a ko‘rinishi xususiyatlari, xalq memorchiligi an’analaridan foydalanildi, memorchilikning yangi usullari xam ko‘llaniddi. Qurilish san’atida sintez masalasi ko‘pgina rassom, xaykaltaroshlar diqqatini o‘ziga tortdi. Park-bog‘ qurish san’ati bu davrga kelib, yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Parklarni tabiiy ko‘rkam bo‘lishiga etibor berildi. Gatchina, Pavlovsk (Peterburg yaqinida) parklari shu jixati bilan diqqatga sazovordir.

**Rangtasvir.** XVIII asr ikkinchi yarmida portret san’atida xam katga yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda yashab, ijod etgan yirik rassomlar: Rokotov, Leviskiy va Borovikovskiy o‘z zamondoshlarining ajoyib portretlarini yaratdilar. Ularda insoniy olijanoblik, samimiylik ulug‘lanadi, yoshlik go‘zalligi kuylanadi. Ular asarlarida inson va tabiat uyrunligi tasirchan ifoda qilinadi.

Rassom **Fedor Stepanovich Rokotov** (tax. 1735-1806) qurshab intim psixologik portretlar muallifidir. Uning ijodi 1766 yili Moskvaga ko‘chib kelganidan so‘ng jadal rivojlandi. Rassom kaxramonlarini tabiiy tasvirlashga, uning ichki xolatini ochib ko‘rsatishga intildi. Uning portretlarining ko‘pchiligi yarim belgacha bo‘lib, ular yengil, mayin yorug‘lashtirish asosida ishlangan. "Shoir V. I. Maykov portreti" (1765), "V. N. Surovsev portreta", "Novoselsyeva portreti" rassomning mashxur psixologik portretlaridan xisoblanadi. Bu asarlarda Rokotovning rang tanlash, qiyofa tuzilishini moxirona tasvirlash qobiliyati namoyon bo‘ladi.

**D. G. Leviskiy** (1735-1822) xam realistik portretlar turkumini yaratib qoldirgan rassomlardan biridir. 1770 yili Badiiy Akademiya ko‘rgazmasida Dmitriy Grigoryevich Leviskiy bir necha portretlari namoyish etilib, u ko‘zga ko‘ringan san’atkorlar qatoridan o‘rin oldi. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan taniqli memor Kokorinov portreti uchun esa u akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Bu portretda memor Kokorinov O‘Z kabinetida ish stoli oldida turgan paytda tasvirlangan. Stol ustida esa akademiya binosining plani va muxri ko‘rinadi. Rassom 1773-1776 yillarda Smol’niy instituti talabalarining suratlari turkumini yaratdi. Institut qizlari mashg‘ulot paytida, dam olayotgan, raqsga

tushmoqchi bo‘lib turgan xolatida tasvirlangan, Rassom ko‘zlar obrazida yohlik go‘zalligini yuksak mayorat bilan ifodalagan. 70-80-yillarda rassom yetuk portretlar yaratdi (M. Lvova, I. Golisina, M. Dyakova va boshqalar portreti). Xar bir portret rassomning tasvirlanuvchiga bo‘lgan munosabatini aniq bildirib turadi. Rassom odamlar ichki kechinma-larini yuksak maxorat bilan tasvirlash bilan birga, asarida ishlatilgan xar bir buyum va materialning o‘ziga xosligini xam aniq kursatishga intiladi. Masalzn, mayin duxoba, yengil va yorug‘likda tovlanuvchi jarangdor chinni, okir metall yeki paxmoq soch kabilarni nixoyatda tasirchan tasvirlab beradi. Bu rassom asarlarining tasirchanligini oshirib- ularga aloxida joziba baxsh etadi.

**V L. Borovikovskiy** (1757-1825) ning ayollarga bag‘ishlangan portretlari diqqagga sazovordir. Ular tabiat qo‘ynida, olma yoki gul ushlagan xolda ishlanadi. Atrof tabiati go‘zalligi ularning nozik xis-tuyg‘ulariga xamoxang keladi. Rassom tabiatni, inson va tabiat go‘zalligini kuylashga xarakat qiladi, toza tabiat teran fikr manbai deb biladi. "M. I. Lopuxina" portreti (1797) rassomning yetuk asarlaridan biridir (22 - rasm).

Ko‘tarinki ruxda yaratilgan bu asarda rassomning estetik-falsafiy qarashi, uning yuksak professional maxorati O‘Z ifodasini topgan. Portretda tasvirlangan kizning noz bilan kdrashi, uning O‘ZINI erkin tutishi tanlangan yengil va mayin ko‘k, yashil, to‘q pushti va gunafsha ranglari gammasiga mos keladi. Birmuncha romantik planda ishlangan tabiat ko‘rinishi asar mazmunini yanada chuqurlashtirib, uning badiiy estetik jixatini kuchaytiradi.

XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida rassomning ishlash uslubida o‘zgarishlar sezila boshlandi. U yaratgan obrazlarda so‘nggi klassisizmga xos shakl to‘laligi, rang gammasidagi dastlabki mayin rang tovlanishlari seziladi. Rassomning "A. I. Bezborodka O‘Z qizlari bilan" portreti (1803) shu davrda yaratilgan mashxur asarlardan. Borovikovskiy ijodi Rokotov, Leviskiy asarlari bilan birga XVIII asr oxiri portret san’atini yuksaklikka ko‘targan. Uning ijodi shu asr portretchilik san’atiga yakun yasagan.

**Maishiy janr.** Maishiy janrda xam sezilarli jonlanish bo‘ldi. qator rassomlar oddiy xalq xayotiga murojaat qilib, ularning og‘ir va mashaqqatli xayotini aks ettirdilar. Ivan Firsovning " YOSH rassom " deb nomlangan asari maishiy janrda yaratilgan dastlabki mashxur asarlardandir. Unda oddiy kundalik xayot mexr bilan tasvirlangan. Dexdonlar xayotiga bagishlangan asarlar yaratishga intilish XVIII asr ikkinchi yarmidan, ayniqsa, Pugachev boshchiligidagi dexqonlar qo‘zg‘olonidan keyin kuchayib ketdi.

Krepostnoy rassom Mixail Shibanov (tug‘ilgan yili noma’lum - tax. 1789 yiddan keyin vafot etgan) ning "Dexqon nonushtasi" (1774) asari oddiy xalqg‘ning kundalik turmushini ishonarli gavdalantiradi. Ivan Yermenev (1746-tax. 1797) xalqning og‘ir axvolini tasvirlashda uz zamon-doshlaridan ilgarilab ketdi. Uning "Ko‘r ashulachilar", Tilamchilar" kabi asarlarida davr ruxi ishonarli talqin etilgan.

Bu davrga kelib, manzara janri xam mustaqil janrlardan biriga aylandi. Badiiy Akademiyada manzara janri bo‘yicha rassomlar tayyorlaydigan sinfning tashkil etilishi esa bu janr rivoji uchun muxim bo‘ldi. Rassomlar shaxar memorlik majmualari, shaxardan tashqaridagi bor va parklar manzaralarini ishladilar. Bu tasvirlarda rassomlarning ona Vataniga bo‘lgan samimiy muxabbati O‘Z ifodasini topdi. Ayniqsa, Peterburg va uning atrof ko‘rinishi ko‘pgina rassomlar tomonidan sevib ishlandi. Shunday janrda samarali ijod qilgan Semen Fedorovich Shchedrin (1745-1804) Pavlovsk, Gatchina, Pitergof ko‘rinishlarini, park memorligining o‘ziga xos jig‘atlarini zur sizikish bilan tasvirlagan bulsa, **Fedor Yakovlevich Alekseyev** (1753-1824) Moskva, Voronej, Xerson shaxarlariga atab ko‘pgina rasmlar yaratdi. Uning Peterburg

saroylari, maydon va ko‘chalari tasvirlangan suratlari O‘ZINING xayotiyligi va chuqur lirizmi bilan ajralib turadi.

**Xaykaltaroshlik.** Rossiya Badiiy Akademiyasida xay kaltaroshlik bo‘limining ochilishi rus xaykaltaroshligi taraqqiyotida muxim o‘rin tutadi. Bu bo‘limda birinchi kunlardanoq xaykaltaroshlik bo‘yicha mashg‘ulotlarni fransuz xaykaltaroshi, professor Nikola Jille olib bordi. U xaykal-tarosh sifatida qator portret va dekorativ xaykallar ishlagan va O‘Z ijodi bilan barokko uslubiga yaqin turgan. Ayrim asarlari esa yangi shakllana boshlagan klassisizm tasirida yaratilgan. Jille rus san’ati tarixida MOXIR murabbiy sifatida nom qoldirgan. Ko‘pgina mashxur rus xdykaltaroshlari (F. I. Shubin, F. G. Gordeyev, M. I. Kozlovskiy, I. P. Prokofъyev, F.F. Hedrin, I. P. Martos va boshkalar) uning ustaxonasida xaykaltaroshlik sirlarini o‘rganishgan.

XVIII asr ikkinchi yarmida xdykaltaroshlikning xamma tur va janrlari rivojlandi. Monumental va dastgox xaykaltaroshlik, portret, dekorativ va dekorativ monumental xaykaltaroshlikda mashxur asarlar yaratildi. Shunday yodgorliklardan biri Peterburgdagi Senat maydonida 1782 yili Petr I ga atab urnatilgan xaykaldir. Fransuz xaykaltaroshi **E. M. Falkone (**1716-1781) tomonidan ishlangan bu yedgorlik shu davr rus badiiy xayotida muxim voqea buddi." Mis chavandoz" deb nom olgan bu xaykalda san’atkor O‘Z ta’biri bilan aytganda," xar qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan qaxramon " obrazini yarata oldi (23 - rasm). Xaykal postamenti jarlik yoqasidagi katta qoyani eslatadi. Petr I oti shu jarlik yoqasiga kelib to‘xtab, yuqoriga sapchiyotgandek tuyuladi. Xukmdor xotirjam turib, qiyinchiliklarni yengish rejalarini tuzayotgandek va tevarak-atrofdagilarni xam xotirjam bo‘lishga chorlayotgandek ko‘rinadi. Petr I ning katta ochilgan kuzlari tevarakka o‘tkir boqadi (xaykal bosh qismni Fal’kone shogirdi Anni Kallo bilan ishlagan). Boshidagi chambari uning g‘olib ekanligini, qiyinchiliklarni mardlarcha yenga olishini bildiradi. Otning oyog‘i ostida majaqlanayotgan ilon esa (ilonni xaykaltarosh F.Gordeyev ishlagan) Petr I istilolaridan norozi, uning ma’rifat va taraqqiyot sari intilishiga qarshilik qilgan kuchlar ramzi sifatida tasvirlanadi.

XVIII asr rus xaykaltaroshligining cho‘qqisi **Fedot Ivanovich Shubin** (1740-1805) komi bilan bog‘liqdir. Shubin Rossiyaning shimolidagi Arxangelsk guberniyasida tug‘ilgan. Uning aka-ukalari suyak o‘ymakorligi bilan shug‘ullanishgan. Shubin 19 yoshida Peterburgga kelib, Badiiy Aka-demiyaga ishga kirgan. O‘QISHNI "a’lo" baxrlar bilan tamomlab, chet elga tajriba urganishga yuborilgan. U Italiya, Fransiyada bo‘ladi. Ijodda erishgan muvaffaqiyatlari uchun, xatto, Balonye (Italiya) Akademiyasining a’zosi etib saylanadi. F.I.Shubin rus xaykaltaroshligida portret san’ati yutuqlarini umumlashtirgan va yuksak cho‘qqiga ko‘targan ijodkorlardan biri bo‘ldi. U UZ zamondoshlarining portretini real gavdalantirib, ularga xos fazilatlarni, ichki dunyosini ishonarli va yuksak ifodalaydi. Uning marmarda yaratgan porteti ishlanish texnikasining nozik va yuksak maxorati bilan ajralib turadi."Golisin portreti" da (1775) Shubin O‘Z davrinikg katta amaldori, aqlli diplomati, shu bilan birga, kiborlarning tipik obrazini yarata oddi, Xaykaltarosh O‘Z maqsadini tushuntirishga Golisinning bosh va mimik xarakatdan o‘rinli foydalanadi. Boshini yon tomonga burilib, biroz tepaga ko‘tarilganligida, yuzidagi yengil istixzoli tabassumida Golisinning dimog‘dorligi va aristokratiyaga xos fazilati seziladi.

**Mixail Ivanovich Kozlovskiy** (1753-1802), Peterburg Badiiy Akademiyasida o‘qigan. Parij va Rimda yashagan. Kozlovskiyning "Suvorov" va, ayniqsa, "Samson" deb nomlangan xaykallari mashxurdir. Pitergofdagi markaziy favvora uchun ishlangan Samvon xaykalida sher jag‘ini ayirib tashlayotgan afsonaviy qaxramon Samson tasvirlangan. Bu xaykaltaroshlik kompozisiyasida Petr I nnvg Shvesiya ustidan erishgan galabasi tarannum etiladi (Sher tasviri Shvesiya gerbining ajralmas qismi xisoblanadi). Samson obrazi juda tasirchan ishlangan. Suvorov xaykalida (1802) Kozlovskiy moxir va jasur xarbiy qo‘mondon obrazini yarata olgan. Antik davr kaxramonlariga o‘xshagan,

kuch-qudratga to‘la yosh jangchi obrazi orqali Suvorovdagi fazilatlarni ochishga intilgan. Bu xaykal rus klassisizmining so‘nggi namunalaridai biridir.

XVIII asr ikkinchi yarmida Rossiyadagi iqtisodiy rivojlanishi, savdo-sotiqning O‘SISHI, fan va madaniyatdagi yutuqlar rus badiiy san’ati rivojlanishiga ijobiy tasir qildi. Xalq amaliy va dekorativ san’ati xam ravnaq topdi. Bu davrda rus san’ati dastlab, memorchilikda shakllangan klassisizm uslubiga xos fazilat - shakl aniqligi, kompozisiya soddaligi va simmetriyaga etibor berdi. Antik san’atga qiziqish va uning shakllaridan ijodiy foydalanishga intilish rus amaliy san’atida ko‘proq, rangli toshlarni o‘yish, mebel, chinni va shishalardan yasalgan buyumlar yasash san’atida seziladi.

Xalq amaliy san’ati shu davrga kelib, yangi motiv va shakllar bilan boyidi va o‘zida davr ruxini ifoda etdi. yog‘och o‘ymakorligi, rang naqqoshligi, kulolchilik, o‘yinchoqlar, tikish-bichish nafis yodgorliklari shu davrning boy rang-barang badiiy xayotidan dalolat beradi.

## II. XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BIRINCHI YARMIDA YeVROPA SAN’ATI

### KIRISH

XVIII asr oxiriga kelib Yevropada feodal tuzumi inqirozi tezlashdi. Fransuz burjua inqilobi (1789-1794) bilan boshlangan bu inqiroz XIX asrda Yevropada kapitalizm xukmronligiga olib keldi. Yevropa mamlakatlari iktisodiy jixatdan tez o‘sa boshladi, texnika taraqqiy etdi. Ijtimoiy xayotda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar san’atning G‘OYAVIY-badiiy mazmunini o‘zgartirdi. Rassomlar ijodida ishchilar inkilobi bilan bog‘liq asarlar paydr bula boshladi, san’at asarlarining mafkuraviy jixatiga etibor kuchaydi. Rassom va san’at nazariyotchilari san’atning zamon va ij-timoiy xayot bilan alokdsini, sodir bulayotgan muxim voqea va xodisalarni real shaklda ifodalash, yangi badiiy til ustida izlanish masalasiga etibor berdilar. Shu yillarda birin-ketin paydo bo‘lgan badiiy yo‘nalishlar davr masalalarini keng va atroflicha yoritishga intilish sifatida maydonga keldi. Klassisizm o‘zining yangi qirralarini namoyon eta berdi. Neoklassisizm inqilobiy rux bilan sug‘orilgan asarlarni yuzaga keltirdi. U asta akademizmga aylana bordi. Natijada, akademizmga qarshi kurashda romantizm shakllandi. Realizm keng ko‘lamda rivojlanib, yetakchi yo‘nalish bo‘lib qoldi. Bu jarayon fransuz va rus, ingliz manzara janrida o‘zini ifodasini topdi. Real tabiat va inson mexnati go‘zalligi san’atkorlar asarlarida aniq ko‘rina boshladi. Davrning ziddiyatlari, odamlar orasidagi munosabatlar, rivojlanib borayotgan kapitalistik dunyo illatlarini ochib tashlash, xayotni go‘zallik qonunlari asosida qayta qurish ishtiyoqi shu davr realistik san’ati uchun yetakchi mavzu bo‘ldi. Ayni tu davrda tanqidiy realizm kamol topdi. Adabiyot, musiqa o‘zining gullagan davri boshidan kechirdi.Tasviriy san’atda esa rangtasvir, ayniqsa, uning dastgox turi, grafika xamda qisman xaykaltaroshlik san’atda muxim o‘inni egallab, o‘zida davr izlanishlarini namoyon etdi. Satirik grafikada xam sezilarli jonlanish bo‘ldi.

Portret san’ati ravnaktopdi, maishiy va manzara janrlarida milliy o‘ziga xoslik namoyon bo‘ldi. Demokratik yo‘nalish tarafdorlari O‘Z asarlarida birinchi bo‘lib jaxon tarixi taraqqiyotida ommaning buyuk kuchini ko‘rsatishga muyassar bo‘ldilar. Ular san’atning ommani tarbiyalashda tutgan o‘rniga etibor berib, butun ijodlari davomida inqilobiy demokratik va milliy ozodlik xarakatlariga xay-rixoxlik bildirdilar. Shu asrdan boshlab, Rarbiy Yevropada Fransiya san’at soxasida yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Milliy san’at va madaniyat yaratish ishtiyoqi san’atkorlarda o‘z xalqi tarixiga, tevarak-atrofdagi xayotga, tabiatga mu-rojaat qilish ishtiyoqini kuchaytirdi. Bu esa san’atda rea-lizm yo‘nalishining yanada kuchayishiga olib keldi.

XVIII asrning oxirgi choragida Yevropa tasviriy san’atidagi klassisizm uslubi O‘ZINING to‘liq moxiyatini, ko‘proq Fransiyada namoyon qildi. Klassisizm vakillari bu yerda inkilobiy mazmun bilan sug‘orilgan asarlar yaratib, burjuaziya inqilobi g‘oyalarini tarrib etishdi,

## XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHLARIDA FRANSIYA SAN’ATI

1769 yil burjua inqilobi Yevropa tarixida yangi davr-ni boshlab beribgina qolmay, u san’at taraqqiyotida xam MUXIM yangi o‘zgarishlar yasadi. Inqilobga tayyorgarlik yillarida san’at muxim rol o‘ynadi. Klassisizm uslubi inqilob arafasida burjua inqilobiy g‘oyalarini ifodalsvchi badiiy yo‘nalish darjasiga ko‘tarildi. Asarlar mazmuni uning o‘ziga xos shaklini xam belgilab berdi. Klassisizm vakillari O‘Z obrazlarining aniq jiddiy, yorqin bo‘lishiga etibor berdilar. Ular antik san’at asarlari, ayniqsa, xaykaltaroshlik shakllarini taqlid namunasi qilib oldilar va O‘Z ijodlarida undan foydalandilar. Inkilobiy klassisizmning eng yaxshi namunalarida rassomlar real xayot ruxini ko‘rsatishga muyassar bo‘ldilar. Bu yillarda grafika, ayniqsa, uning satirik ko‘rinishlari keng yoyildi. Grafika asarlarida tarixiy voqealar O‘ZINING badiiy ifodasini topdi. Inqilob yillari bayramlar munosabati bilan ko‘cha va maydonlarni bezash san’ati paydo bo‘ldi. Bu san’at san’atlar sinteziga asoslangan edi. San’atdan ko‘zda tutilgan maqsad inqilob g‘oyalarini xalq ommasiga yetkazish edi. Muzeylar xam shu maqsadga bo‘ysundirilib, ulardan inqilob yutuqlarini mustaxkamlashda foydalanildi.

**Memorlik.** Klassisizm tamoyillari dastlab memorlikda ko‘rina boshladi. Memor va xaykaltaroshlar, rassom va amaliy san’at ustalari xamkorlikda ishlab, kishilarning ideal dunyo, orzudagi shaxar yaratish xaqidagi orzularini ruyobga chiqarish uchun xarakat qildilar. Bu intilish shaxarsozlik san’atida ko‘zga tashlandi. Masalan, memor Klod Ledu (1736-1806) loyixalarida, jumladan, Sho shaxri majmuasi, Mark Gabrielning "Kelishuvlar maydoni" memorlik majmuasi loyix;alarida shu seziladi. Klassisizm xususiyatlari, ayniqsa, tasviriy san’atning ranggasvir turida o‘zini to‘liq namoyon qildi. Aql go‘zallikni tushunish va bilishning asosiy mezoni deyildi. San’at asarlari shunchaki ko‘ngil ochish uchun yaratilmaydi. Ular odamlarning burch, insoniylik, davlat uchun xizmat qilish xissiyotini oshiradigan kuchli vosita deb karaldi. Bu qarash san’at asarlarini baxolashning bosh mezoni bo‘lib xizmat qildi.

Jak Lui David (1748-1825). Inqilobiy klassisizm yo‘lboshchisi, inqilobiy *xukumat* a’zosi Jak Lui David birinchi bo‘lib, ilg‘or g‘oyalarni san’at orqali talqin etishga intildi. U antik san’at shakllariga murojaat qildi. Bu xu-susiyat uning ijodida inqilobga qadar shakllangan edi. Uning "Andromaxa Gektorga aza tutmokda" asari ilk ijodi namunasi xisoblanadi. Gomerning "Iliada" dostonidan olingan syujetga asoslangan bu asarda rassom tul qolgan ayolning Troyaki ximoya paytida qaxramonlarcha xalok bo‘lgan eriga ta’eim qilishni odamlardan iltimos qilayotgani tasvirlanadi. Rassomning Torasiyolar qasami" (1764) asari xam inqilobiy klassisizm tamoyillarining uziga xos jig‘atlarini namoyon etadi. Kartinaning syujeta Rim respublikasi tari-xidan olingan. Asarda otaning o‘z o‘g‘illarini dushmanlarga qarshi jangga borishga da’vat etib, ularga qilich tutkazayotgan vaqti tasvirlanadi. Rassom bu asarida fukdrolik burchini xar qanday shaxsiy manfaatdan ustun ko‘yadi. Yuksak ideallar uchun xdr sanday qiyinchilikdan, kerak bo‘lganda, kurbon bulishdan xam qo‘rkmaslikka da’vat etadi.

David ijodining cho‘qqisi "Maratning o‘limi" (1793) asaridir. XVIII asr Yevropa tasviriy san’atining nodir namunasiga aylanagan bu asarida rassom fransuz inqilobining doxiysi Maratniig o‘ldirilishini tasvirlaydi. Mazkur voqeani u yuksak badiiy obraz darajasiga ko‘taradi. Unga inqilobiy rux beradi. O‘z davrining ideal kishisi obrazini yaratadi. "Maratning o‘limi" inqilob qurbonlari uchun yaratilgan yodgorlik sifatida ommani inqilobiy ruxda tarbiyalashga xizmat qiladi, ularni kurashga chorlaydi. David

portret janriga xam murojaat qildi. Inqilob qatnashchilari, oddiy kishilar portretlarini ishladi. Ularning katiyati, bukilmas irodasi, ruxiy xolatini ochib beradi. Bu o‘rinda "Ko‘kchi ayol" (1795) portreti diqqatga sazovor. Unda ayolning jiddiy turishi, ichki kuchi va irodasi ishonarli talqin etilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida klassisizm va romantizm orasida KIZG‘IN kurash ketdi. Klassisizm avvalgi g‘oyaviy kuchi va tasirchanligini yo‘qotib, reaksiyey akademizmga aylana bordi. Davidning shogird va taqlidchilari sunib borayetgan an’analarni qayta tiklash, davom ettirishga xarakat kqldilar. David maktabining shunday jonbozlari orasida, ayniqsa, Pyer Narsis Geren (1774-1833) xamda Fransua Jerar (1770-1837) mashxurdir. O‘z ustozi ananalariga sodiq qolgan Geren imperiya o‘zgarishi chog‘ida ilg‘or g‘oyalardan chekinib, asarlarida reaksion-romantik kayfiyat va motivlarga keng urin bera boshladi. Jerar esa imperiya davrida taniqli portretchilardan biriga aylandi va umrining oxirigacha shunday bo‘lib qoldi. U portretlanuvchini aynan o‘xshatardi. Shuningdek, u portretlanuvchi istagi aso-sida uning tashk>1 siyofa kurinishini ideallahtirishga usta edi. Bu aristokratiyaga, ayniqsa, saro ayollariga yoqar edi. "Rekamye portreti" (1802) shu ji^atdan diqqatga sazovor-dir. Buyurtmachining xoxishiga binoan uning ko‘rinishi yosh, go‘zal ayol qiyofasida ishlangan.

Imperiya davrida Davidning shogirdlaridan biri Jan Antuan Gro (1771-1835) xam samarali ijod qildi. U butun umri davomida O‘Z ustozi prinsiplariga sodiq qoldi. Bonopart yurishlarida katnashib, tarixiy va batal janrlarida qator yirik polotnolar yaratdi. Uning "Bonapart Arkal ko‘prigida" (1796) shunday asarlaridan biridir. Bu asar Groga shuxrat keltirdi. Unga rasmiy buyurtmadar ko‘paydi. Rassom tarixiy va mifologik asarlar ustida xam ishlashni davom ettirib, ularni xayotiy detallar bilan boyitib bordi. Ayrim asarlarida (masalan, "Nazaryotdagi jang", 1801) bulayotgan voqeani xaqqoniy tasvirlashga xarakat qiladi. Uning asarlari rangdor, kompozisiyasi jo‘shqin, qatnashuvchilar serxarakat. Gro ijodining ana shu jixatlari keyingi davr san’ati taraskiyotiga katta tasir qildi. Ko‘pgina yoshlar uni O‘Z ustozi deb tan oldilar.

Klassisizmning yirik vakili, uning yo‘lboshchisi, Davidning shogirdi Jan Ogyust Domenik Engr (1780-1867) XIX asr Yevropa san’atining ko‘zga ko‘ringan rassomlaridan xisoblanadi. Enf asarlari Rafael maktabi vakillari-ning kompozisiya tuzish tamoyiliga asoslanadi. U O‘Z obrazlarini eski ustalar yaratgan obrazga o‘xshatishga intiladi. Lekin ularga xotirjamlik va garmonik nafislik kiritadi, nozik nur-soya xisobiga ularning xajmini oshiradi, sillik chiziqlar plastikasidan foydalanadi. Bular uning asarlariga o‘ziga xos oxang beradi. Ideal shakl va plastik guzallik uning ijodiy izlanishlari asosini tashkil etadi. Bu xususiyat "Gomer apofezi" (Gomerning tantanasi), "Bulok" (1807-1656) kartinalarida namoyon buladi. Jumladan, "Bulok." deb nomlangan asari yaxlit rangda ishlanishi, gavda plastikasi guzalligini yuksak tasvirlay olishi x.amda chizik. ritmikasining tasirchanligi bilan dikdatni jalb etadi. Engr ijodida portret muxim Urin tutadi. U UZINI tarixiy janrda ishlovchi rassom deb hisoblab, portretlariga ikkinchi darajali deb karasa xam, lekin shu portretlari (qalam va moybuyokda ishlangan) musavvirning tevarak-atrofni ziyrak idrok eta olishi va vok.yelikni chusur x.is etib, tasvirlay olishini kUrsatadi. Engr ijodining shu xususiyati uni realist rassom sifatida tanitadi. Ayniqsa, qalamda chizgan portretlari, uni portret qalamsurat san’atining ustasi ekanligidan dalolat beradi. Uning" Rivyer xonim portreti" (1806)dd nafis chiziklar uyini, ranglar sillik surtmasi, kompozisiyaning ifodaliligi asarning badiiy tasirchanligini kuchaytiradi. Yosh juvonning xumor bokishi, uning aslli kuzlari, UZINI erkin va tabiiy tutishida ayollarga xos nazokat va guzallik poetik talkin etilgan. Aksincha ,"Katta Lui Fransua Bergen por-treti"da (1832) UZ kuchiga ishongan, aklli, ishbilarmon, kupni kurgan shaxe siyofasi gavdalanadi. Bu xususiyat portretlanuvchilarning k$llari xrlati va karashida namoyen buladi. Engr fransuz klassisizmining sunggi vakillari-dan edi.

Davidning sevimli shogirdi bulgan bu san’atkor butun umri davomida shu ok.imga sodir bulib krldi.

1824 yili Burbonlar xukumati Engrni akademik maktab obr^sini kutarish uchun Parijga taklif etadi (Bungacha u Italiyada yashagan). Bu yerda u akademik maktab va rasmiy san’atning yo‘lboshchisiga aylanadi va shu yo‘nalishni umrining oxirigacha xikoya qiladi. Lekin klassisizm o‘zining avvalgi g‘oyaviy Yo‘nalishini yo‘qota boradi va u rasmiy akademik san’atga aylanib qola boshladi. Bu esa yoshlarda noroznlik tuyg‘ularini uyg‘otdi. Ana shu akademizm uslubiga qarshi kurashda yangi romantizm uslubi rivojlanadi. Uning eng gullagan davri XIX asrning 20-30 yillariga to‘g‘ri keladi. Jeriko va Delakrua ijodida bu yo‘nalishning xarakterli jixatlari namoyon bo‘ldi. Klinok, extiroslilik va nixoyatda x.ayajonlilik ularning ijodiga xos xususiyat x.isoblanadi. Ularni qadimga Yunoniston yoki Rim emas, balki o‘rta asr qarshi, o‘z xalqining o‘ziga xos xayoti, mumtoz adabit (Dante, Servantes, Shekspir, Gyote, Bayron) xamda ilxom va ijod manbai bo‘lgan tabiat ko‘rinishlari qiziqtiradi. Romantizm vakillari voqelikni yorqin ranglar majmuida xarakat vaqtida tasvirlashga aloxida axamiyat berdilar. Ular klassisizm vakillariga nisbatan real voqeaga ko‘proq etibor bera boshladilar.

Romantizm yo‘nalishining o‘ziga xos jixatlari uning yirik vakili va asoschilaridan biri **Teodor Jeriko** (1791-1824) ijodida o‘z ifbotini topdi. Uning "Meduza soli" kartinasi shu yo‘nalnshning o‘ziga xos asarlaridan biridir. Bu kartinada voqea "Meduza" kemasining Atlantika okeanida falokatga uchrashi xikoya qilinadi. Qugqarish uchun xech qanday vositalar yo‘q edi. Shu boisdan kema a’zolari kema qoldiqlaridan sol yasab, uning ustiga 149 kishi chiqib oladi. Sol ochiq okeanda 14 kun kezadi va faqat 15 odam sog‘ qoladi, Tasodifan o‘tib ketayotgan kema bu odamlarni qugqarada. Asarda rassom ana shu voqeani - soldagi odamlarning uzoqqa suzib borayotgan kemani ko‘rib, undan najot so‘rayotgan vaqtini ko‘rsatadi. Rassom bo‘lib o‘tgan voqeani tasvirlar ekan, bu orkali dastlab, xukumat raxbarini tanqid qiladi, ularning ochiq kenglikda suzishga tayyor bo‘lmagan ekspedisiyami chiqarganliklarini qoralaydi.Romantizmning yana bir yirik vakili Ejen Delakruadir. Uning " Barrikadadagi ozodlik " (1831, Luvr) polotnosi xom bevosita aniq voqeani aks ettirishga qaratilgan asar bo‘lib, u 1830 yil iyul oyidagi inqilob tasirida yaratilgan (24-rasm). Rassom, inqilobda qatnashgan kishilar obrazin i chizgan. Rassom asarida bo‘layotgan jangning shid-datiny, kizginligini, bu inqilobda xalqning xamma tabaqasi qatnashganini (ziyoli, ishchi, qari va yosh), bu xalq inqilobi ekanini ishonarli ko‘rsata oladi. Qo‘lida bayroq ushlagan ayol siymosi ozodlik ramzi bo‘lib, qolganlar esa unga intilgan. Ularni ozodlik ramzi olga boshlamoqda.

XIX asr o‘rtalarida fransuz plastikasida xam romantizm yetakchi o‘ringa chiqib oldi, realistik tamoyillar kuchaydi. **Fransua Ryud** (1784-1855). Uning Yulduzlar maydonida o‘rnatilgan Zafar arkiga ishlangan "Marsel’yeza" (1833-1836) burtma tasviri O‘z xarakteri jig‘atidan Delakruaning "Barrikadadagi ozodlik" asariga yaqin turadi(25 - rasm). Bu kom-pozisiyada allegorik obrazlar bilan real obrazlar qo‘shilib ketgan. Kompozisiyani ko‘tarinki ruxda ishlanganligi uning o‘tkir dinamikasida ko‘zga tashlanadi. Tasvirda ozodlik g‘oyalaridan ilxomlangan xalq lashkarlari jadal qadamlar bilan ilgarilab borayotgan payt tasvirlangan. Kompozisiyaning yuqori qismida esa g‘alaba xomiysi, ilxomchisi tasviri bo‘lib, kurashchilarga yo‘l ko‘rsatmoqda. Relyef - nur-soya kontrastga boy. U asar dinamikasini oshirishga, xar bir obrazning burtma, yanada ifodali kurinishiga xizmat qilgan. Relyef fakturasi g‘am rang-barang va boy. Bu bo‘layotgan voqeada juda kupchilik qatnashayotgandek bo‘lib ko‘rinishiga xizmat qilgan. Ryud ijodida keyinchalik realistik jarayonlar kuchaya bordi. Uning Marshal Nep xaykali (1852-1853) shundan dalolat beradi.

Shu davrning yana bir xaykaltaroshi Antuan Lui Bari (1795-1875) ijodida animalistik janr yetakchi o‘rin egallaydi.

Bari xayvonlar tasviri orqali ularning tabiiy kuch-qudratini romantik planda tasvirlaydi ("Timsox bilan olishayotgan sher", (1831-1836). Bari rangtasvir san’atida xam ijod qilgap. Bu san’at turida xam u xayvonlar xayotiga bag‘ishlangan suratlar ishlagan.

## XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHLARIDA ISPANIYA SAN’ATI

Bu davr ispan tasviriy san’atida xam klassisizm yetakchi o‘rin egalladi. Uni 1761 yildan Ispaniyada yashay boshlagan nemis rassomi Anton Rafael Mengs boshqardi. Le-kin bu davr san’atida aynan bir xil yo‘nalish mavjud edi,-deb xukm chiqarib bo‘lmaydi. Bu davr san’atida bir tomondan Mengs, ikkinchi tomondan 1767 yildan Ispaniyada yashab ijod qila boshlagan Tyepolo ijodiga taqlid qilishni, shuningdek, milliy rassomlik an’analarining davomini g‘amda realistik jarayonlar rivojini ko‘rish mumkin.

**Fransisko Goyya** (1746-1828) xam XIX asrning yirik rassomi. U Yevropa realistik san’atining yo‘lboshchisidir. Ispan xalqining fojiali taqdiri va qaxramonligi, ij-timoiy xayotdagi real vokealar rassom uchun ijod manbai bo‘lib xizmat qildi. Shu voqealarni tasvirlash orqali u o‘zining xodisalarga munosabatini, xukm chiqaruvchi san’-atkor ekanligini namoyon qildi. Uning asarlarida inson xissiyoti, uning xis-tuyg‘ulari va kechinmalari o‘z ifoda-sini topadi. Goyya Saragos yaqinidagi qishloqda xunarmand oilasida dunyoga keldi. Tasviriyot asoslarini dastlab shu yerdagi maxalliy rassom ustaxonasida o‘rgandi. Keyin tax-silni Madridda akademik maktabining yirik vakili Fransisko Bvye qo‘lida davom ettirdi. Italiya bo‘ylab safarda bo‘lib, *o‘z* bilimini kengaytirdi. Goyyaning ilk ijodida shu davr ispan san’atida yetakchi bo‘lgan klassisizm uslubi tasiri borligi uning "Oyoq-qo‘li mixlab ko‘yilgan Iso" su-ratida namoyon bo‘ladi. Bu asari uchun rassom akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Goyya cherkov uchun devoriy suratlar xam ishlagan. Goyyaning rassomlik iste’dodi qirol Shpaler manufakturayei uchun ishlagan suratlarida yorqin ko‘rindi. 43 kartonga ishlangan bu suratlarda rassom xalq xayotidan olingan lavxlarki - xosil o‘rimi, o‘yin, bayramlarni tasvirlaydi. Xalq sayli i shodiyonasini aks ettiradi. Shpalerlar uchun surat ishlash jarayonida u akademik kanonlar va shartliklardan qutulib, xalq xayotiga bag‘ish-langan rralistik asarlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi. U maxoratini oshirish borasida ishlashni davom ettirib, Velaskes, Rembrandt ijodlarini o‘rgandi. Ularning asarlaridan ko‘chirmalar oladi. Goyya ijodiga xos fazilatlar XVIII asrning 90 - yillarida shakllanib buladi. Uning ijodida tanqidiy realizm kuchaydi. Rassom asarlarida zamonasining eng muxim voqealarini ko‘rsatish orqali davr moxiyatini ifodalashga intiladi, illatlarni, ziddiyatlarni ochib tash-laydi. Shuning uchun asarlari ko‘rinishi jixatidan jo‘shqin va xayajonli. Ulardagi nur va soya orasidagi keskinlik asar dramatizmini oshiradi. Kora fondagi yorsin buyoklar bu dramatizmga xamoxang keladi. Goyya ijodidagi bu xususiyat uning portretlarida xam O‘Z ifodasini topadi. Rassom oddiy kishilarni, ularning ma’naviy dunyosi go‘zalligini mexr bilan tasvirlaydi. Uning saroy axllari portretlarida esa tanqidiy yo‘nalish seziladi. Rassom saroy axllari qimmatbaxo liboslarga o‘rangan bo‘lsada, ma’naviy qashshoq ekanligini ustalik bilan tasvirlaydi. "Karl IV oilasi portreti" da bu xususiyat, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Goyyaning O‘Z xalqiga muxabbati, vatanpyrvarlik g‘issi 1808-1814 yillarda ispan xalqining milliy-ozodlik ku-rashi paytida yorqin namoyon bo‘ladiL808 yil 2 mayga o‘gar kechasi Madrid ko‘zg‘olonchilarini otish$^{n}$,"Kltl etish" kabi ishpari rassomning yirik asarlaridandir (26-rasm). Ular ispan xalqining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini aks ettiruvchi voqealariga bag‘ishlangan. Rassom bu voqealarni tasvirlar ekan, ularda O‘Z kechinmalari va bosqinchilarga kuchli nafratini aks ettiradi, xalqning jasoratini ulug‘laydi. Jumladan, "2 mayga o‘gar, kechasidagi otish" asarida bir gurux

ko‘zg‘olonchilarni Monkloa sax-rosida qatl etilishi ko‘rsatilgan. Ayear kompozisiyasi qurolsiz ommani qurollangan soldatlarga karama-qarshi qo‘yish prinsipida tuzilgan bo‘lib, shu orqali xalqning jasorati va jallodlarning toshbag‘irligi ochib beriladi. Asar markazidagi oq ko‘ylakli ko‘zg‘olonchi kompozisiyaga tugallik baxsh etib, bo‘ysunmas jasur xalq timsoli sifatida tasavvur turdiradi. Asardagi nur va zulmat kurashi odamlarning dushmanga bulgan kuchli nafratini ifodalashda muxim o‘rin tutadi, asarning dinamikasini oshiradi. Goyya Yevropaning taniqli ofortchilaridandir. Uning ofortlarida xam davr voqealari o‘z ifodasini topgan. Uning 90 - yillardagi yaratgan "Kaprichos" (1893-1897) grafik asarlari turkumi feodal katolik Ispaniyani kattiq kulgu ostiga
oladi, kiborlarning o‘zgalar xisobiga yashashga intilishini, ularning kalta faxmligini kattiq qoralaydi. " Kaprichos " da rassom xalkning maqol, masallaridan foydalanadi. Allegoriyaga murojaat kiladi. Turli real va afso-naviy xayvonlarni (eshak to‘tikush, ko‘rshapalak, ajdarxo, va Xokazo) kompozisiyaga kiritish orqali rassom o‘z maqsadini bildiradi.

## XIX ASR BIRINCHI YARMIDA ANGLIYA SAN’ATI

XVIII asr oxiri **XIX** asr boshlarida Angliya san’atida realizm uyining gullagan davrini boshidan kechirdi. Shu davrda yashab, ijod etgan ko‘pgina rassomlar ingliz san’atini boyitib Yevropa san’atiga xam samarali tasir o‘tkaz-dilar. Rassomlar jamiatda sodir bo‘layotgan illatlarni ro‘yrost ochishga xarakat qildilar, xalqning og‘ir axvolini tasvirlab, turmush mashakkatlari, odamlarni jismoniy va ma’naviy mayib qilayotganligkii achinish bilai aks ettir-dilar. Vir qator san’atkorlar esa o‘rta asr afsona va obrazlariga murojaat qildilar.

Memorchilikda turli davr va uslublarga taqlid qilish namoyon bo‘ldi. Binolar ko‘rinish jixatidan gox gotika, *gox* Xitoy motivlarini, gox Rim memorchilignni eslatib turadi. Bu xususiyatlar tasviriy san’atda yanada ochiqroq ko‘rinadi. Bu davrda portret va karrikaturada, kitob fa-fikasida yetuk asarlar yaratildi. Lekin katta mifologik plandagi asarlarda, qayotiymaishiy janrdagi kartinkalarda g‘oyaviylik yo‘nalish sustligi seziladi.

Vatanparvarlik ruxi bilan sug‘orilgan realistik man-zara janrida ingliz san’atining yutuqlari namoyon bo‘ldi, Ingliz realistik manzara janrining taraqqiyoti akvarel rangtasviri rivoji bilan uzviy borliqdir. Ingliz akzz-relchilari bu texnikaning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, berubor, serzavq ingliz tabiatining ajoyib kuinishlarini yarata oldilar. Ingliz manzara janrining taraqqyotini Noriche maktabining asoschisi Jon Krom (1768-1821) tasiri, ayniqsa, sezilarli bo‘ldi. Oddiy xayot go‘zalligidan, tabiatning ulugvorligi va bitmas-tuganmas boy-ligidan xayajonlanish, ularni tasvirlashga intilish uning moybo‘yoqda ishlagan asarlarining asosini tashkil etadi.

Ingliz manzarachilarining yutuqlarining umumlashtirgan, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tara olgan va Yevropa rea-ayastik san’atiga tasir kursatgan rassom Jon Konstebl (1776-1837) bo‘ldi. Konstebl tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Unda juda erga tabiatga qiziqish uyg‘ondi. U Londonda qirol Akademiyasida tasvir asoslarini egalladi. qadimgi usgalar ijodini, Yevropa manzara rassomligini qiziqish bilan o‘rgandi. Ayniqsa, Klod Lorren ijodidan to‘lqnlandi, uning manzara asarlari tasirida bo‘ldi. Bular uning ijodda o‘z mustaqil yo‘lini topishiga imkoniyat berdi. U Angliya janubidagi Solsberi tumani xamda London atrofidagi tabiat ko‘rinishlarini tasvirini ishladi.
Rassom xar bir etyudining tugal bo‘lishiga xarakat qildi. Tabiat xolati, vaqt ko‘rinishlarini real tasvirlashga intildi. Konstebl etyudlari erkin ishlangan. U xar bir buyumning shaklini saqlab, uni muxit bilan uzviy bog‘lab yuborishga intiladi. Rassomning tez va erkin ko‘rilgan rang surtmalari fazo perspektivasini ko‘rishga, tabiat rangla-rining fazoviy kenglik bo‘ylab o‘zgarib borish xususiyatlarini x.is etishga

imkoniyat beradi. Kartina ishlashda esa ishlanayotgan xar bir detalning aniq kompozisiyaning tugaya bulishiga etibor beradi. Lekin tabiat xolaggining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga xarakat qiladi. Konstebl realistik manzara janrini , eng avvalo, tabiatiing o‘zidan barkamollik topishga intilishi bilan rivojlantirdi. U tabiat ko‘rinishini dabdabali va keng kamrovda ko‘rsatishdan vos kechib, sodda, tabiatning bir bulagini ko‘rsatuvchi suratlarida ingliz tabiatiga xos umumiy xususiyatlarni ifodalashga xarakat qildi. U yorug‘lik va soyani ranglar orqali ko‘rsatdi. Uning realistik manzaralari poetik x.issiyot, boy emosional kechinmalar bilan sug‘orilgan. Konstebl manzaralarni muayyan janrlarda ifoda qiladi. Oddiy xayotiy lavxalar, binolar va yo‘llar uning manzaralariga tugallik baxsh etadi. Ular tabiatni yanada serfyayz va jozibador qiladi. Konstebl ijodining eng gul-dagan davri 1820 yillarga to‘g‘ri keladi. Shu yillarda Yaratgan " Pichanga ketayotgan arava" (1821), "Solsberidagi . (1823), "G‘allazor" (1826), "Sakrayabtgan ot" (27 - rasm) asarlari ijodkorning g‘oyaviy-estetik qarashlari professional maxorati yuksakligini namoyon etadi.

Rassom inson va tabiat uyg‘unligini osuda tabiat qo‘ynida yashab, mexnat qilish gashtini ulug‘laydi.

1824 yili Parijda rassom ishlarining ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu ko‘rgazma fransuz rassom va tanqidchilari tomonidan yuksak baxolandi. Parij ko‘rgazmasining shuxrati ingliz rasmiy doiralarini san’atkor bilan xisoblashishga majbur etdi.1829 yil Konstebl akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Lekin shunga qaramay, u o‘z yurtida yetarlicha tan olinmadi. Uning ijodini dastlab fransuz romantiklari e’tirof etishdi. Konstebl ijodi Rarbiy Yevropa realis-tik manzara janri rivojiga kuchli tasir qildi.

Ingliz manzarachisi Richard Parke Boninggon (1801-1828) ning esa ijodiy faoliyati asosan Fransiyada o‘tdi. U Gro ustaxonasida ta’lim oldi. Delakrua bilan yaqin do‘st bo‘ldi.

U "Manzarali joylarga sayoxat" al’bomini tuzishda Fran-siyaning qadimiy shaxar va mashxur tarixiy joilari tasvirlangan asarlari bilan qatnashdi. Bu rassom asarlarida fazo perspektivasi, eski shaxarning o‘ziga xos jixatlari juda tasirchan ishlangan. Tasvirlangan manzaralar rassomning ingliz maktabi ananalariga sodiq qolganligini ko‘rsatadi. Uning janrli manzaralarida esa fransuz roman-tizmiga yaqinlik seziladi.

Ingliz manzarachisi Jozef Mellord Uilyam Terner (1775-1851) O‘Z davrining sermaxsul rassomlaridan bulib, u moybuyoq va akvarelda rasmlar ishlab, shuxrat qozondi. Terner Badiiy akademiyada ta’lim oldi. 1802 yili esa akademik unvoniga sazovor bo‘ldi, Rassom O‘Z ijodini rea-listik manzaralar chizishdan boshlab, keyinchalik antik syujetlarda rasmlar ishlay boshladi. Bu asarlarida rassom ko‘proq Klod Lorrenga yaqinlashib ketadi. Terner kechki quyosh botishi yoki chiqishini tasvirlab, manzaralar chizadi. Ularda ranglar tasirchanligini oshirishga, spektr ranglar-dan foydalanishga xarakat qiladi. Predmetlar shakli esa muxitga ko‘shilib, sustlasha borgandek bo‘lib tuyuladi. "Ja-sur" kemasining so‘nggi reysi" (1839) surati rassomning mashxur asarlaridan biridir. Asarda Terner kompozisiyaning simmetrik yechimidan qaytib, uni assimetrik xolda tuzadi. Xamma tasvirlanayotgan predmstlarni chap tomonga surgan xolda, O‘NG tomonniufqqa bosh ko‘yayotgan quyosh gardishi bilan kompozision muvozanatga keltirib, asar dinamikasini oshiradi. Tanlangan keskin ranglar esa bu dramatizmni yanada chuqurlashtiradi. Ternerning so‘ngi asarlarida voqelik tizimini dinamik xarakat paytida idrok etish yanada kuchayadi. Yomg‘ir, bur va tezlik " (1844) degan asari bu jyurggdan etiborlidir. Mazkur asarda tumanni yorib, vagon, tugun, yomg‘ir va poyezdni yoritayotgan nur tasvirlanadi.

## XIX ASR BIRINCHI YARMIDA GERMANIYA SAN’ATI

XIX asrga kelib, Germaniya madaniyati yuksaldi va u Rarbiy Yevropadagi ilg‘or mamlakatlardan biri bo‘lib qoldi. Gyote, Geyne, Betxoven, Vagner kabi buyuk san’atkorlar xam ana shu davrda yashab ijod etishdi. Gegelning falsafiy qarashlari tizimi xam shu davrda vujudga keldi. Germaniyada adabiyot va musiqa misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan bo‘lsada, tasviriy san’at va memorchilik birmuncha orqada qoldi. Germaniya tasviriy san’atida romantizm, klassisizm va XIX asr o‘rtalaridan realizm yo‘nalishlari o‘zaro kurashda bo‘ldi. Nemis romantizmi XVIII asr so‘nggida klassisizmga qarshi kurashda shakllana boshlagan bulib, uning vakillari ilg‘or g‘oyalardan voz kechish, xayoliy tim-sol tasvirini va shaxsii kechinmalarni tasvirlashga chaqir-dilar. Nemis romantizmidagi bu qarashlar xukmdor sinf tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Albatta, nemis romantizmidagi shaxsiy kechinmalarni ifodalashga intilish va tas-virlanayetgan voqea tasirchanligini oshirishga intilish mavjud badiiy shakllarni yanada mukammallashtirishga, klassisizmning kotib kolgan uslub va metodlaridan qutulishga imkoniyat yaratdi.Nemis romantizmining ilk ko‘ri-nishi XIX - asr birinchi yarmida F.O.Runge, KD.Fridrix ijodida o‘z ifodasini topdi. Romantiklar milliy an’ana-larni qayta tiklashga da’vat etdilar. Ular ona yurt utmi-shini o‘rganishga etibor qaratdilar. XIX asr 10 - yillaridan boshlab, xayot xaqiqatidan uzoq-ros bo‘lish, davr ziddiyatlariga aralashmaslik bir gurux ijodkorlarning san’atga karashlari uchun xos xususiyat bo‘lib qoldi. Ular o‘rta asr diniy monumental rangtasvirini qayta tiklashni maksad qilib oldilar. Ilk uyg‘onish davri san’ati an’analari ular uchun namuna maktabini o‘tadi.Bu guruxga a’zo rassomlar "nazareys", yani "uzun soch" degan nom bilan ataldilar.

XIX asr nemis san’atida davrning ilg‘or g‘oyalari o‘z badiiy ifodasini topganligini e’tirof etish kerak. Bu xususiyat portret va manzara janrida, ayniqsa, sezilarli bo‘ldi. Unda tabiatning ulug‘vorligi, inson qalbi go‘zalligi ulug‘landi. Ana shu xususiyatlar Filipp Otto Runge (1770-181O) kabi rassomlarning realistik portretlarida namoyon bo‘ldi. "Rassom oilasi portreta" (1806), "Avtoportret" (1805) asarlari, ayniqsa, etiborlidir. Rassom tasvirlanuvchi xar bir siymo va detal shaklini aniq va tugal bo‘lishiga in-tilish, inson kalbi go‘zalligini tasirchan ifodalaydi. Umrining so‘nggi yillarida Runge tabiatning abadiyligi, qaytarilmasligi va cheksizligini aks ettiruvchi tabiat ram-ziy obrazno‘y ko‘rsatuvchi triptix ustida ishlashni niyat qiladi. Triptixning saqlanib qolgan va tugallangan "Tong" deb nomlangan qismi uning niyati va izlanishlari G‘OYAT yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi. Unda quyosh ko‘tarilib kelayotgan paytda tasvirlangan baxor manzarasi turli ramzii allegorik shak-llar bilan aralashtirilib yuborilgan. Tabiat ulug‘vorligini kuylash nemis romantizmining ko‘zga ko‘ringan vakili Kaspar David Fridrix (1774-1840) asarlari uchun xam xosdir. U o‘z manzaralarida ko‘pincha gox oy chiqishi paytini, gox kun botishini, gox erga tongni tasvirlaydi. Bu rassom ushbu manzaralardan romantik kayfiyatni ifodalash uchun foydalanadi. Fridrix asarlarida nemis xalqining Napoleon bosqiniga qarshi kurash kayfiyati kuchayib borayotgani o‘z ifodasini topgan.

## XIX ASR BIRINCHI YARMIDA ITALIYA SAN’A GI

XIX asr birinchi yarmida Yevropaning boshqa mamlakat-larida bulganidek, Italiyada xam klassisizm yo‘nalishi asosiy Urin tutadi. Bu yunalish , aynik.sa, xaykaltarosh-lik san’atida O‘ZINI to‘liq namoyon etdi. Bu davrda qator sermaxsul rassomlar va memorlar ijod qilishdi. Biroq ular g‘oyaviy jixatdan ilgarigi san’atkorlardan yuqoriga ko‘garila olmadilar. Xatto, o‘z vaqtida mashxur bo‘lgan rassom Vinchenso Kommuchini (1771-1844) xam vafotidan keyin tezda unutilib ketdi. Axsincha, xaykaltaroshlikda ijod qilgan Antonio Kanova (1757-1822), xaykaltarosh Bertel’ Torval’sen (1770-1844) shu davr Italiya xaykaltaroshligini rivojlantirgani e’tirof etib kelindi. Antik rivoyat va afsonalar syujetlari asosida xaykallar ishlash, ular

gullab yashnadn U xukmdor sinf mafkurasini targ‘ib etdi, burjua va mo narxiya tartiblarini maktab, ko‘klarga ko‘tardi. Kishila] diqqatini ijtimoiy xayotdan chekkaga tortadigan "chiroyl» suratlar" - farishta-maloikalarga bagashlangan allegoriya kompozisiyalar, kungil ochar mavzuidagi turli rasmlar ko‘plab ishlandi. Bu davr burjuaziya salon-akademik san’atiga qarshi kurash jarayonida xayotni to‘laqonli aks etti-rishga qaratilgan realistik san’at toblandi. Albatta, Parij komunnasidan keyingi Fransiya realistik san’ati bir xil xususiyatga ega emas. Unda bir tomondan demokratik yo‘nalish-dagi an’anaviy realistik san’at (Domye, Mille ijodi) mavjud bulsa, ikkinchi tomondan, burjua- kibor, salon-akademik san’atiga qarshi chiqqan, uning qonun va qoida-larini tan olmagan, ifoda vositalarini yangilashga intil-gan rassomlar guruxi bor edi. Shunday rassomlardan biri Eduard Mane (1832-1883) keyingi davr realistik yunalish mofiggini belgilaydi.Uning ijodi, bir tomondan XIX asr o‘rtalarida *fransuz* realistik san’ati an’analarini, ikkinchi tomondan, fransuz san’atiga kirib kelayotgan yangi jarayon-larni mujassamlashtiradi. Mane ilk asarlaridan boshlab fransuz realistik san’ati an’analarini davom ettirgan xolda, uni zamonaviy mazmun va rux bilan boyitdi. "Maysazordagi nonushta" (1863), "Olimpiya" (1863) kabi asarlarida bu seziladi. Manening "Olimpiya" asari o‘zining kom-pozision tuzilishi jixatidan avvalgi rassomlar (M.Tisian, Jorjone, Goyya) kompozisiyalariga uxshaydi, lekin ruxdn yangi davr mazmuni bilan sug‘orilgan. Bu "Olimpiya" dagi kiyimsiz ayolning o‘zini erkini tugishi va qarashida, uning atrofidagn buyumlarida, asar uchun olingan ranglar gammasida ko‘rinadi. Asar fakturasi, xolst yuzasida rang surtmalarining erkin va ochik joylanishi uni go‘yo bevosita shturaning o‘zidan ishlangandek ko‘rishshshga xizmat qiladi. Sulrang sarrish va kuk ranglar esa qoramtir fonda yanada xvlanib, asarning eamonaviy ruxlni kuchaypfadi. "Impe-qator Maksimilianning katl etilishi" (1867), "Kommunar-arning qatl etilishi" (1871) kabi asarlarnda mumtoz ompozisiyaga taqlid seziladi. Lekin rassom o‘z asarlarini xayotga tanqidiy munosabatlari rassomning satirik asar-larida o‘z ifodasiii topa boshladi. "Yangi kuyov" ("Birinchi orden olgan chinovnikning ertasi" (1846) shunday asar* laridan dastlabkisi. Unda rassom kaltabin, takabbur, maq-tanchokq chinovnik ko‘p yillik xizmatlari uchun orden bilan tavdirlanganligi munosabati bilan katta ziyofat berganinig (xonada shishalar, tori uzilgan gitara, yerda sochilib yotgan kartalar, ag‘darilib yotgan stullar va boshka detallar, ziyofatning quyuq va uzoq davom etganidan dalolat beradi) aks ettiriladi. Ziyofat allaqachon tugagan. Ziyofat sababchisi bulgan xujayin endigina uyg‘onib, xali yuvinishga ulgurmay eski togani(toga qadimgi Rim oqsuyaklari kiy gan plash tipidagi libos) kiyib, unga ordenini taqib olgan. Uning o‘arshisida qo‘lida yirtiq etik ushlagan ayol turibdi. U guyo shunday katta ziyofat berib, boringizni ichkilik, kayfu safoga sarf qilgandan ko‘ra, etigingizni tikdirib olsangiz bo‘lmasmidi, endi nimani kiyasiz, degandek unga etikni ko‘rsatib turgani, xizmatkorning bu suzlari chinovnikka qattiq botib, "Sen bilasanmi, kim bilan gaplashayapsan" - degandek unga zarda va jaxl bilan boqib turgan payti tasvirlangan. Fedotov O‘Z asarlarida qaxramon xarakterini uning tashkl ko‘rinishi, xatti - xara-kati orqali ochib beradi. Agar yukoridagi asarda chinovnik-ning takabbur va maqtanchokdagi, kaltabinligi uning xat-ti-xarakati, kiyinishi, ko‘z, lab va ma’nosiz boqishida namoyon bo‘lsa, "Zodagonning nonushtasida" (1849) asarida bosh qaxramonning shoshilib qolgan xolati uning xarakterini yoritishda **muzdim rol** o‘ynaydi. Ushbu asarda qashshok,, lekin maqtanchoq odam qiyofasi ochib beriladi. Fedotov "Mayorning uylanishi" (1848) asari uchun akademik un-vonga sazovor bo‘lgan. Asarda dvoryanlar xayoti ishonarli ifodalangan. Kambag‘allashib borayotgan aristokrat boy savdogar qiziga uylanish xisobiga o‘z sharoitini olishga intilishi asarda ishonarli detal’ va obrazlari xatti-xarakati , mayorning o‘zini tutishi va unga nisbatan bulajak kelinning munosabati orqali gavdalantiriladi. "Beva qolgan ayol" (1851), "Ankor va yana ankor" (1851), 'Ximorbozlar" (1852) kabi k.ator asarlarida x.am davr il-

latlarini tanqid qiladi. Fedotov portretlar xam ishladi. "Pianino chalayotgan N.P.Jdanova portreti" (1849)da yoshlik, umidsizlik xolatlarini tasvirlanadi "Absent" (1876), "Kir dazmollovchilar" (1884) asarida kundalik bir xil mexnatdan charchagan ayollar obrazini ko‘rsatadi. Dega ijodida keyinchalik tushkunlik psimistik kayfiyatlari paydo bo‘la boshlaydi. U xayotni bir tomonlama tasvirlashga, asarning formaldekorativ jixatlariga etibor qaratadi. Rassom ko‘proq pastelda ishlaydi.

**XAYKALTAROSHLIK.** San’atning bu turida realistik jarayon sekin kechdi. Maxobatli xaykaltaroshlik esa tanazzulga uchradi. Xaykaltaroshlikka akademik salon san’atining tasiri kuchli bo‘ldi. Memorlikning susayishi bilan monumental-dekorativ xaykaltaroshlik xam orqaga keta boshladi Bu davr fransuz xaykaltaroshligida Jan Batist Karpo va Jyul’ Dalu ijodi ajralib turadi. Ular realistik san’at tarafdorlari edi. Jumladan, Karponing realistik xaykallari, monumentaldekorativ kompozisiyalari va zamondosh-larining portretlari uzining xayotiyligi va ifodaliligi bilan etiborni jalb etadi. Dalu O‘Z ijodi bilan Mille va Kurbelarga yain turadi. Uning ijodida meg‘nat mavzusi yetakchi, o‘rin egallaydi. Dexqonlar, temir erituvchilar, oddiy ishchilar uning bosh qaxramonlaridir. Dalu birinchilar qato-rida xaykaltaroshlikda mexnat axli obrazini yaratib, bular mexnatining go‘zalligini ko‘rsata oldi. 1871 yili u Komunna tomoniga utdi. Luvr kolleksiyasi saspovchi etib saylandi. Komunna inkirozidan keyin u kamoqqa olindi. Lekin u yerdan Angliyaga qochishga muvaffaq bo‘ldi. Bu yerda afv kilin-gunga qadar yashab, 1879 yili Parijga qaytib keldi. "Respublika yodgorligi" xaykalini yaratishni boshladi va asar ustida 20 yil ishladi.**Opost Roden** xam Yevropaning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi yirik xaykaltaroshidir. Uning ijodi ipressionistlar ijodi bilan yaqin. U xam rasmiy san’atdagi mavjud sxemalarni buzib, xaykaltaroshlik san’atida yangi yo‘llar ochdi.U o‘z ijodida xalkdarvarlik va qaxramonlik g‘oyalarini ulug‘lash, inson ichki dunyosini, xis-tuyg‘u-larini ifodalashga intildi. Uning bu intilishlari "Burni pachoqlangan kishi" (1864) xaykalida namoyon bo‘ldi. Unda xo‘rlangan, lekin irodasi bukilmagan inson obrazi yaratilgan. "Bronza asri" (1876) asarida O‘ZINI tanib, kuchiga isho-nib kelayotgan, yangi xayotga kuchg‘ayrat bilan kirishayotgan insonlar obrazi gavdalantirilgan. Kompozisiadagi g‘ar bir obraz anatomik aniqlikda yuksak maxorat bilan ishlangan. Rodenning "Mutafakkir" (1880-1911), "Kale shaxrining fuqorolari" (1886-1895) uning yirik asarlaridandir. Kale shaxrining fuqorolari" kompozisiyasida XIV asrda sodir bo‘lgan voqea Kale shaxrining obro‘li 6 kishisi damalda qolgani xamshaxarlari xayotini saklab qolish uchun o‘z jonlaridan voz kechib, lagerga shaharning ramzii kalitiii olib ketayotgan payti tasvirlangan. Kompozisiyadagi xar bir obrazning xattixarakati, uzini tutishi va yuzidagi mimikasidan uning ulim oldidagi kechinmalari, mardligi va ichki xavotiri ishonarli ishlangan. Unda mardlik, jasorat obrazlar kiyofasida anik, kUrsatilgan. Kompozisiya past taglikka o‘rnatilgan. Bu uning odamlarga yanada yaqin bo‘lishiga xizmat qilgan. 90 - yillardan boshlab Roden ijodida tashqi go‘zallikka etibor berish asosiy planga chiqa boshladi.

1880-90 yillarda fransuz san’atida qator yo‘nalish va oqimlar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligi impressionistlarning tajribalariga asoslangan edi. Pol Sin’yak (1863-1935), Jorj Sera (1859-1891), Anri Edmon Kross kabi rassomlar ranglarning optik qo‘shilishi xususiyatini ilmiy asoslashga intildilar. Asarlarini kichik kubsimon yoki yuma-lok nuqta shakldagi spektr rang surtmalarida ishlab, ular-ni bir-biriga tegizmaslikka xarakax qildilar. Bu rang sur-tmalar aloxida aloxdda bo‘lib, optik qo‘shilish xdoobiga yangicha yaxlit rang tizimini yaratadi. Bunday asarlar ma’lum masofadan idrok etish uchun muljallangan.Bu uslub puant,yaьni nuklnuqgalash uslubi yoki puantilizm deb.uning vakillarini esa puatilistlar deb yuritila boshlandi.
Jorj Syoraning Trant Jattdagi dam olish kunidagi sayd", Sin’yakning "Avin’ondagi qasr" asarlarida shu us-lubning o‘ziga xos jixatlari ko‘rinadi.

## IMPRESSIONIZM.

1874 yili Parijdagi qaxvaxonalarning birida "Xo‘rlanganlar" (Rasmiy tan olinmagan rassomlarni nomlashgan) asarlari ko‘rgazmasi ochildi. Unda xamma , ko‘z o‘rgangan san’atga o‘xshamaydigan, bir qarashda "xaqiqiy san’atga" zid bo‘lgan rasmlar qo‘yilgan edi. jamoasining katta qismi bu rasmlarni norozilik kutib oldi. Bir jurnalist esa shu ko‘rgazmaga atab yozgan kolasining sarlavxasini Klod Monening ko‘rgazmadagi chiqishi oldniagi taassurot" deb nomlangan asari asosida taasurotchilar" (taassurot fransuzcha impression) deb 1 di. Dastlab bir gurux, rassomlarning ijodini ta’riflash} ishlatilgan bu ibora keyinchalik xaykaltaroshlik, adabiyot va san’atning boshqa turlariga nisbatan boshlandi. Bu uslub O‘Z mazmuniga kura realistik ( uning imkoniyatlarini yanada boyitdi. Impressionistlar O‘Z tevarak-atroflarida sodir bulayogan voqealarga xona, xiyobonlardagi xayotni tasvirladilar. Tabiatninp o‘zgaruvchan xolati (erta, peshin, kech, nam xavo, bulutli kun, qyoshli kun kabi), shaxarning jo‘shqin va! jum xayoti lavxalari rassomlarni qiziqtirdi. Rasoomlar ] surtmalaridan erkin va unumli foydalanishga xarakat 1 boshladilar. Natijada, rang surtmalarining kompoz borliq turisida, uning buyumlari tutrisida umumiy tasavvur beruvchi vositalardan biriga aylandi. Impressioь ijodining yana bir o‘ziga xos jaxati shundaki, ular o‘z palitralaridan ko‘ra buyoqlarni chiqarib tashlashdilar, spektr ranglari orqali xayotdan, tabiatning o‘zidan taassurotlarini ifodalashga xarakat qildilar. U o‘zidan plenerda rasm ishlash ularning asosiy ijodiy; biga aylandi. Bu ularning politralarini yanada boy» ishlagan asarlarining tasirchanligini yanada kuchaytir Impressionistlar san’at tarixida novator rassom namoyon bo‘ldi. Ular O‘Z asarlarida quyosh nuri, yangi sa, tinik suv go‘zalligini maxorat bilan tasvirladilar,, larni, olamning rang-barangligini ifodaladilar, yukeal chuqurroq xis etishga da’vat qildilar. Lekin ularning 1 dida ijtimoiy masalalariga bagishlangan, davrning 1 muammolariga jamoatchilik etiborini qaratgan kamayib ketdi. Ko‘pgina rassomlar naturaning o‘zidan etyudlarida O‘Z kechinmalarini ifodalash bilan chekinib qola boshladilar.

Bu ularning ijodining cheklangan jixati Impressionizm XIX asrdagi yirik badiiy yo‘nalishlardan biri edi. U qotib qolgan, dogmatik akademik – salon san’atiga zid ravishda maydonga keldi va rivojlandi. Bu vakillari (K. Mone, K. Pisarro, A.Sisley, O.Re-1 boshqalar) san’atda ifoda vositalarining tasir-1I oshirishga, bevosita zamonaviy vokealar moxirona ochishga, borliqni chuqur bilish va o‘zlashtirishga . Fransiyada shakllanib kamol topgan bu yo‘nalish tezda Yevropa, Amerika, Osiyo san’atiga tasir qildi.Bu yo‘nalish realistik san’at imkoniyatlarini yanada boy-, rassomlarni yangi yangi izlanishlarga chorladi, turli guruxlar paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratdi. ; Mone (1840-1926). Impressionizm maktabi yulboshchi-Klod Moiye asarlarida buyumlar nur va xavoga o‘ralib, uni yo‘qota boradi va ular ranglar garmoniya-(mutanosibligiga) aylanadi.Rassom bir ko‘rinish yoki qayta-qayta ishlaydi. Ularning turli payt va x.olatini rang va nur o‘zgarishida taxlil uning Ruan soberi,pichan g‘aramiga bag‘ishlangan | turkumi , ayniqsa, mashxur. Mone toza ranglardan angan xolda, O‘Z politrasidan ko‘ra ranglarni chisatashladi,soyalar xam rangli bo‘lishini O‘Z asarlarida *b berdi ("Londondagi Temza va parlament ko‘rinishi(1871), "Parijdagi kapusinklar xiyoboni", 1873 - rasm), "Bel’-Il’dagi qoyalar" (1886) kabi rassom asar-kompozisiya jixatidan puxta uylangan,ularda ranglar mutanosibligi me’yoriga stkazilgan. Asardagi xdo bir rang BI asar mazmunini ochishga xizmat qilgan. Kamil Pisarro (1830-1903) xam impressionistik yo‘nalish izlanishlarini manzara janrida ifoda qiladi. jig xajman katta bo‘lmagan manzaralari kompozisiya jixatidan tugal, tabiat go‘zalligi jonli va tasirli bo‘lishiga erishilgan ("Monmartr xiyoboii",1897).

**Alfred Sisley** (1839-1899) manzaralari esa mayin va lirizm bilan sug‘orilgan. Ayniqsa, Il’ de Fransga bag‘ishlangan asarlari jozibali ("Arjanteyedagi kichik maydoncha",1872).

Pyer Opost Renuar (1841-1919) xdm impressionizmning yirik vakili. Uning ijodida portret yetakchi o‘rinni egallaydi.U o‘smirlik yillarida chinniga gul solish bilan shug‘ullanib, yiqqan pullarga Gleyr ustaxonasiga o‘qishga kirdi. Shu yerda K. Mone va A.Sisley bilan tanishdi. Renuarning ilk asarlarida Kurbe tasiri seziladi. Rassom kuchli yorursoya yordamida obrazlvrni ifodali bo‘lishiga erishadi.1870-yildan boshlab, uning ijodida impressionns yo‘nalish kuchaya bordi, manzaralari yorqinlashib, kompozisiyalarida nur va xavo ustuvor bo‘la boshladi. Asarlaridagi nur va xavo borliqni birlashtiradi va kompozisiyatugalligini ta’minlaydi. Renuar obrazlarining murakkab psixologik xolatlarini ochishga intilmasa xam, lekin da yoshlik, jismoniy go‘zallik va xushchaqchaqlik yun maxorat bilan tasvirlanadi. Ayniqsa, u yaratgan ayollar ob razi nafis va latofatlidir. Aktrisa Samari portrete uchi ishlangan etyudda rang gammasi juda nafis va jozibali. asarning emosional jixatini belgilaydi. Sarg‘ish, qizil pushti va ko‘kimtir yashil ranglar munosabati juda uyg‘un-lashib ketgan. Ishlash uslubi xam asarga uziga xos jozif baxsh etgan. Rassom bu portretda soyalarni sovuq ranglar xisobiga ochadi. Bu rang asar emosional jozibasiga xamo-xang keladi. 1880 yildan boshlab Renuar asarlarining maz-muni o‘zgara boshladi. Rassom shartli dekorativ uslubda asarlar yarata boshlaydi. ,

**Edgar Dega** (1834-1917) kundalik shaxar xayoti, kiborlar, raqqosalar va musiqachilar turmushini tasvirlab, kuylab suratlar ishlagan. Kir yuvuvchilar, dazmol bosuv-chilar xayoti to‘g‘risida qator kompozisiyalar yaratgan. Ajoyk ib {dyalamtasvir ustasi, o‘z zamoni voqealarini to‘g‘ri xis qila olgan rassom Dega realistik san’at ananalariga sodik qolgani xolda, uni impressionistlar yutuqlari bilan boyiyda. Uning kompozisiyalari bir qarashda sodda tu-yuyaishnga so‘ramay, ular puxta o‘ylangan va ma’lum g‘oya yu Xis – tuyg‘uni ifodalashga bo‘ysungan. Xar bir personaj tabiiy va eryush *xolda* tasvirlangan. Ular o‘z yumushlari, tashvishlari bilan band. "Raqs darsi mashg‘uloti" (1874), "Moviy raqqosalar" (1897), "Fotograf oldida[i] (1897) kabi asarlari diqqatga sazovordir. Dega shaxar xayotining 1 jushdimyaipshi o‘ziga xos kompozisiyalarda kursatadi Jumladan, "Graf Lepik o‘z qizlari bilan" (1873) asarida ob-razyaarni biroz markazdan chekkaroqda tasvirlagan xolda shaxar manzarasini ochib beradi. Shu bilan birga, portretlanuvchilar qiyofasini xam ochib gavdalantiradi. Rassomning 1Yrim asarlarida kishilar orasidagi munosabatlar, yolg‘iz qizning pok qalbi va beg‘uborligini shoirona talqin eta olgan. Asar uchun tanlangan yoqimli rang gammasi, nozik qalamchizgilari uning emosional jixatini kuchaytiradi. Asarning tasirchanligini oshiradi, uning mazmunini chu-qurlashtiradi. Fedotov qalamsurat borasida xam talay asarlar yaratib qoldirgan. Ularning har biri san’atni o‘rganuvchilar uchun katga maktab vazifasini o‘tay oladi.

**"Postimpressionizm".** Bu ibora shartli bo‘lib, odatda, imprssionizmdan keyin yuzaga kelgan va uning yutuqlarini o‘zgartirilgan xolda. san’at tarixida o‘z yo‘llarini belgilagan' Puant so‘zi fransuzcha bo‘lib, "nuqta* mao‘yusshsh bildiradi.Bu usyaubda rang surtmalari to‘rtburchak yoki dumaloq nuqta shaklida bo‘ldi. Ushbu uslub nami shundan kelib chiqqan mazkur usyaubmna divi-zionizm (fransuzcha) "ajratish" deb urm yurshtiadi
gilab olgan rassomlar ijodini ta’riflash uchun kullaniladi. Bu ijodkorlar impressionistlarning yutuklarini e’tirof etganlari xolda, vokelikni etyudnamo ishlashga, tasviriyot asosi bulgan qalamsuratga etibor bermaslikka, ijtimoiy mavzulardan krchishga k;arshi chivdilar.

**Vinsent Van Gog** asli gollandiyalik bulib, uning ijo-di XX asr san’ati tarakdiyotida mug‘im rol uynadi.

**Van Gogning** ilk ijodi xurlangan, turmush tashvishla-ridan ezilgan oddiy xalq xayotiga bag‘ishlangan. U 1886 yili Fransiyaga ko‘chib keldi. Impressionistlar tasirida buddi. Lekin impressionist bo‘lmadi. Van Gog emosional va ta’-sirchan san’at tarafdori edi. Uning asarlarida rang o‘ta to‘yingan, rang surtmalari esa o‘ta xayajonli, serxarakat va dinamik xislatga ega. U O‘Z asarlari tasirchanligini oshi-rish uchun fazoviy perspektiva, predmetlarning deformasiyasi imkoniyatidan foydalanadi. Rassom asarlarini natu-raning o‘zidan ishlagani xolda ularni O‘Z fantaziyasi bilan boyitadi,chiziq va shakllar ifodaliligiga etibor beradiS'Arledagi kulbalar manzarasi".

**Pol Sezann** postimpressionizmning yirik vakilidir. U O‘Z ijodini murakkab dinamik kompozisiyalardan boshladi. Bu asarlarida Delakura, Domye, Kurbe taьsiri seziladi. 1870 yil boshlarida impressionistlar tasirida plenerga, yorqin politraga murojaat kila boshlaydi, lekin ularning buyumlar shakli va materialligini xisobga olmay, faqat ko‘rish taassuroti bilan chegaralanib kolishlariga qarshi chiqadi. U O‘Z oldiga borliqni tasvirlashni asosiy maqsad qilib olgani xolda, uni tasvirlashning o‘ziga xos badiiy tizimini yaratishga intiladi. Rangtasir uning uchun O‘Z xissiyotini tasvirlashga yordam beruvchi vosita buladi. 1870-1890 yillarda rassomning eng yaxshi asarlari yaratilgan. Bulardan ko‘pchiligi manzara yoki natyurmort janriga oid asarlardir. Bu yillarda yaratilgan manzaralarida raosom tabiatning ichki ziddiyatlar, uning rangga boy jilvasini va ulug‘vorligini yuksak maxorat bilan tasvirlaydi. Shu maqsaqda shakllarni soddalashtirishga, ularning doimiy va o‘zgarmas shaklini topishga xarakat qildi. Bu uning ishlariga o‘ziga xos ifodalilik va monumental yaxlitlik baxsh etdi.

XX asr rassomlik san’atiga O‘Z tasirini o‘tkazgan ras-somlardan yana biri Pol Gogendir (1848-1905). Bu rassom impressionizm gullagan paytda ijod qildi, uning yutuq-laridan tasirlandi ("Arldagi manzara", 1888). Lekin bu tasir uzoqqa cho‘zilmadi. Rassom monumental rangtasvir san’atida ishladi, inson va tabiat uyg‘unligidagi go‘zallikni ochishga xarakat qildi. Ayni chog‘da, davrning ijtimoiy ziddiyatlaridan o‘zini tortdi.Kapitalistik munosabatlar-dan uzoq xalqlar turmushini tasvirladi. Taiti orolidagi maxalliy axolining xayoti uning bu izlanish va istaklariga mos keldi. Bu yerdagi xayot rassom tomonidan  dekorativ shakllarda ifodalandi. Taitidagi xayotga bag‘ishlangan asarlari o‘zining yorqin buyoqlari bilan ajrapib turadi. Sariq zarg‘aldoq ko‘k va qizil ranglar uning bu yerda ishlagan ko‘pgina asarlari koloritini belgilaydi.

XIX asr oxirida fransuz grafika san’atida ijtimoiy masalalarga murojaat qilish kuchaydi. Fransuz demokratax grafikasining yirik vakili Teofil’ Ayeksandr Steylsn (1859-1923) O‘Z asarlarida Parij xayoti, oddiy kishilarning turmushi va mexatini aks ettirdi. Sgeylin grafika-ning deyarli barcha turlarida ishladi. Uz ijodida Domye an’analarini davom etgirib, ijtimoiiy tengsizlikni kora-ladi, xalqning O‘Z xaq xuquqlari uchun olib borgan kura-shiga atab, qator asarlar yaratdi. Uning asarlari davrning ilg‘or g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular G‘arbi i Yevropa progressiv san’ati taraqqiyotida muxim o‘rin tutadi.

## XIX ASRDA GERMANIYA SAN’ATI

XIX asrda nemis madaniyati gullab-yashnadi. Germaniya madaniyat tarakkiyot jix.atidan Yevrolada yetakchi uringa chikib oddi. Ayni shu davrda Gegel’ falsafiy tizimi vujudga keldi. Gyote, Betxoven, Vagner asarlari maydonga keldi. Lekin tasviriy san’at va memorchilik musikd va adabiyot singari yuksak rivojlanmadi. Shunga qaramay, bu davr tasviriy san’ati va memorchiligida xam o‘ziga xos jixatlar mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Bu dastlab klas-sisizmni romantizm siqib chiqarishi, xamda realistik san’atning rivojlanib borishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat A.Mensel’, VLeybl’, MLiberman ijodida O‘Z ifodasini topdi. XIX asr oxirlarida nemis san’atida xam impressionizm keng yoyildi (Liberman.Korint). Rassomlar **simvolizm**

yo‘nalnshida ijod qildilar. Germaniyada yugendstil komi bilan mavjud bo‘lgan modern uslubida asarlar yaratildi (F.Shtuk, M.Klinger).

Memorchilik. Texnika taraqqiayoti temir ko‘prik va per-ronlarni, karkasli katta xona va zallarni qurish imkoniyatini berdi. Shu davrda klassisizmga xos ko‘rinishlar go-tika tasirida o‘zgara bordi. Asrning ikkinchi yarmida esa etiborni jalb etadigan badiiy barkamol asarlar deyarli yaratilmadi. Yangi qurilgan binolar eklektik ko‘rinish olib, kosmopolitik xarakter kasb eta bordi.

## X1XASRDA SKANDINAVIYA MAMLAKATLARI VA FINLYANDIYA SAN’ATI

XIX asr Skandinaviya mamlakatlari, Norvegiya, Daniya, Shvesiya uchun milliy badiiy maktab yaratish davri buldi. Milliy o‘ziga xos san’at yaratish shu davr yetuk rassomla-rining dasturiga aylandi. Bu an’ana XIX asr o‘rtalari va uchinchi choragida, ayniqsa, yaqqol O‘ZINI namoyon qildi. Bu maktab vakillarining ijodi realistik yo‘nalish bilan bog‘liq bo‘lib, avvalgi mavjud va chegaralana boshlagan klas sisizmga qarshi kurashda shakllandi.

## XIX ASR NORVEGIYA (NORVEGIYA QIROLLIGI) SAN’ATI

Shimoliy Yevropa xududida, Skandinaviya yarim orolida joylashgan bu davlat san’ati XIX asrga kelib, umumevropg san’ati tasirida rivojlandi. Memorlik. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida ilk klassisizmga xos uslubda binolar qad kutardi.tasviriy san’atda barokko va rokoko uslubi interyer bezaklarida o‘z ifodasini topdi. XK asr ikkinchi yarmida memorlixda ko‘proq eklektizm mux^sh urinni egalladi (psevdoroman, ingliz neogotikasi). XOS asr Norvegiya tasviriy san’atidagi yirik rassomlaridan biri Yu.KDayaь bo‘lib, u ranggasvir va grafikada samarali ijod qildi, ijtimoiy xayotda faol ishtirok etdi. Uning qator tashabbuslari milliy san’at ravnakdsa *muxim* axamiyat kasb etdi**. UKunyayayaan**, uning tashabbusi bilan Oslo shaxrida milliy gallereya tashkil etdi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab, xorijda badiiy ta’lim olib qaytgan qator rasoomlar xisobiga norveg tasvirriy san’ati tez rivojlandi. 80-yillarda qator yirik ras-somlar, jumladan, **Kristian Krog (**1852-1925) Erik Verenshel’ (1855-1938) ijodi mavjud ilg‘or realistik san’-at an’analarini Lilliy o‘ziga xos rux bilan boyitdi. Bu rassomlar ijodiying bosh mavzusi Vatan, uning tabiati, kishilarining mexnati bo‘ldi. *xar* bir rassom bu mavzularni o‘zicha talqin etdi. Krogning baliqchilar xayogiga bag‘ishlangan kompozisiyalari samimiyligi bilan etiborni tortadi. ("Rulni chapga",1879).Uning ijoddsa tanqidiy ruxdagi asarlar xam mavjud ("Al’bertine polisiya uchastkasida",188b). Norvegiyaning yirik rassomlaridan yana biri Verensheldir.Uning asarlarining syujeti sodda. Rassom kundalik voqealarini o‘z xolicha ko‘rsatadi. Lekin uning kompozisiyalari voqelikni real talqin etganligi va rassomning xistuyg‘ulari bilan tuldirilganligi bilan ajralib turadi. Verenshel’ grafikada xam ijod qildi. Uning xalq ertak-lari xamda Andersen asarlari uchun ishlagan illyustrasiyalari etiborlidir.

XIX asr so‘nggida ijod q-ilgan yirik rassomlardan yana biri **Edvard Munk** (1863-1944) dir. Uning nomi nafaqat Norvegiya, balki Yevropada xam mashxurdir. Munk O‘Z ijodini fransuz realizmi tasirida boshladi. Postimpressionizm tasirida xam asarlar yaratdi. Lekin 90-yillardan boshlab, uning ijodida mistika va simvolizmga burilish yuz berib, asarlarida Yevropada paydo bo‘lgan "modern "' uslubiga xos fazilatlar ko‘rina boshladi ("Rassom opa - singill-ri" (1892), "Ko‘prikdagi qiz" (1891). U tezda Yevropa eksp-ressionizmning - yirik vakillaridan biriga aylandi ("Kichkirik," 1893). Munk maxobatli-dekorativ rassomlik bo‘yicha xam asarlar yaratdi (Oslodagi universitetning akt zali uchun ishlagan rasmlari). U, shuningdek ksilografiya ustida ish olib bordi.

Shvesiya (Shvesiya sirolligi) san’atning keskin kutarilishi 1870 yildan keyin boshlandi.Parijda ta’lim olgan xamda usha yerda ijodini boshlagan rassomlar asarlari bu taraqqiyot asosini tashkil etdi. Ular portret, manzara, maishiy janrlardagi asarlarida o‘z davri va zamondoshlarining xis tuyg‘u va orzularini ifodaladilar. Xayotning yangi qirralarini ochishga xarakat qildilar, Bruno Lil’ye-fors (1860-1939) ko‘proq xayvonlar dunyosi, parranda va Qushlarni tasvirladi. U xayvon va qushlarning tashqi ko‘ri-nishini aks ettirish bilan chegaralanmay, ularning xayot uchun kurashini xam ko‘rsatishga intildi. **Karl Larson** (1853-1919)asarlarida esa bolalar dunyosi gavdalantirilgan. Oddiy odamlar va, burjua xonadonlaridagi bolalar xayoti katta maxorat bilan tasvirlandi. Zamondoshlari uning ijodidagi "tabiiy va soddalik" ni yuksak baxrlashgan edi. Skandinaviyaning yirik rassomlaridan biri Andreye Sorn (1860-1920) xam uz davrida shuxrat krzondi. Uning asar xam Yevropa san’ati tarixida muayyan izini srldirdi. U ilk ijodini akvarelda asarlar ishlash bilan boshladi, keyinchalik gravyura bo‘yicha shug‘ullandi. Rassomning 80-90-yillarda yaratgan asarlarida oddiy kishilarning turmushi va mexnatiga bag‘ishlangan asarlar ko‘p. Shu yillarda u moxir portretchi sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Rassom qaysi mavzu va janrda ijod qilmasin, u realist san’atkor sifatida gavdalandi. Impressionizm yutuqlarini o‘z ijodiga tatbiq etgan xolda, tugal shaklda ishlangan asarlar yaratishga xqarakat qildi.

**Fin** milliy maktabining shakllanishi XIX asrning birinchi yarmidan boshlandi. Shu davrda sator fin rassom va xaykaltaroshlari milliy, o‘ziga xos san’atni yaratishga xdrakat qildilar. Ularning ko‘pchiligi Fransiya, Italiya va Rossiya badiiy makgablarida ta’lim olgan san’atkorlar edi. Lekin ular xalq san’ati an’analarini o‘rganish asosida o‘z bilimlarini yangi mazmun va shakl bilan boyitishga intildilar. Fin tabiati, kishilar turmushi va mexnatiga bag‘ishlangan asarlar yaratishib , fin badiiy xazinasini boyitdilar.

**Albert Edelfelt** (1854-1905) Finlandiyaning jaxon-ga mashxur bo‘lgan birinchi rassomidir. Asli shved bo‘lgan bu san’atkor o‘z ijodini tarixiy janrda boshlab, xalq xayotiga bag‘ishlangan asarlar yaratib ijodiy kamolotga erishdi. Fin rassomchiligining yana bir yirik vakili Aksel Galeyen Kallela (1865-1931) bo‘lib, uning ijodida XIX asr oxiri va XX asr boshlari rassomchiligidagi ziddiyatli yo‘nalishlar o‘z ifodasini topdi. U o‘z ijodini realistik yo‘na-
lishdagi asarlar yaratish bilan boshlab (" Birinchi mashg‘ulot", 1889), keyinchalik modern uslubiga berilib kstdi va uning yirik vakillaridan biriga aylandi. Birok umrining so‘nggi ikki O‘N yilligida yana realistik san’atga qaytdi.

.

## XIX ASR MARKAZIY VA JANUBI-SHARQIY YeVROPA MAMLAKATLARI SAN’ATI

XIX asr o‘rtalariga kelib, Gollandiyada x,am milliy, o‘ziga xos san’at yaratish xarakati boshlandi. Milliy tarixga qiziqish, san’at an’analarini qayta tiklashga intilmsh O‘SDI. Ayniksa, XVII asr Gollandiya san’ati ananalariga qiziqish kuchaydi. Bu qiziqish maishiy va manzara janrida namoyon bo‘ldi. Manzara janrini rivojlantirishga xarakat qilgan birinchi rassom Iogan (Yan) Bartold Iongkind (1819-1891) bo‘ldi. Rassom ijod cho‘qqilariga ona yurt man-zarasini gasdalantirish orqali intiddi. Ko‘pgina zamondoshlari singari galland manzara san’atini rivojlantirihda fransuz rassomlari yutuqlaridan foydalanishga xarakat qildi ("Delft ko‘rinishi" (1844), "Rotterdamdagi kema to‘xtash joyi" (1844) kabilar).

Bu davrga kelib, Golland maishiy janri xam katta yutuqlarga erishdi. Bu dastlab yirik golland rassomi Iozef Izraels (1824-1911) ijodida O‘Z ifodasini topdi. Izrael’sning ilk asarlari tarixiy mavzuga bagashlagan. Keyin-gi yillarda yaratgan asarlarida ("qabristonda[i]( 1856), "Bo‘rondan so‘ng" 1858) dramatik syujetlarga murojaat qilib, asarlarining dekorativ tasirchanligini oshirishga etibor berdi.

Rassomning xayotga kirib borishi, uning asarlarini suniylik va ortiqcha dekorativ tasirchanlikdan xalos kila boshladi. Rassomning ochiqlikda (plenerda) ishlashi esa, uning politrasi yorqinlashishiga, asarlariga nur va xavo-ning keng ko‘lamda **kirib** kelishiga imkoniyat tug‘diradi. Lekin bu rassom qaysi mavzuda asar yaratmasin, avvalo, *o‘z* kechinma va kayfiyatlarini ifodalashga intiddi. Izraels rassomlikda golland milliy maktabini yaratishda jonboz-lik qilgan rassomlardan biridir. U milliy ruxdagi asarlar yaratishga intilish bilan birga, o‘z atrofiga ilg‘or ras-somlarni to‘pladi, realistik san’at pozisiyasini mustaxkamlashga xarakat qildi. Gaagada uning fikriga xayrixox rassomlar guruxi bilan uchrashdi. Ular Gaaga makgabiga asos solishdi.

XIX asr 80 - yillarida Gollandiya va Belgiya rassom-lari orasida munosabat yaxshilandi. Ularning demokrata qarashlari mexnatkash odamlar turmushini o‘rganishga ish-tiyoqni kuchaytirib yubordi**. Vinsent Van Gog** (1853-1890) ning Gollandiyada bo‘lgan vao‘tidagi ijodi (1878-1881) shu mavzuga bag‘ishlangan. Uning asarlarining bosh qaxramoni oddiy kishilar bulib, rassom ularning xar birining o‘ziga xos siyofasini ochib berishga xarakat qilgan.

1830 yil inqilobchilobi natijasida Bel’giyaning mustaqillikka erishishi uning Yevropadagn san’ati rnvojlangan mamlakatga aylanishiga imkoniyat yaratdi. Shu davrdan boshlab, demokratiyaga asoslangan madaniy *xayot* ravnaq topdi. Inqilob arafasida maydonga kelgan, mamlaxat taraqqiyogiga xizmat qilishni asosiy maqsadi deb bilgan vatanparvarlik y^nalishidagi tarixiy janr vakillari Belgiya san’atini yevropaliklarga tanitdilar. Shunday rassomlardan biri **Lui Galle** (1810-1887) edi. Yevrolaliklar orasida mashhur bo‘lgan bu san’otkor tarixiy va maishiy janrda qator asarlar yaratdi. Uning "Egmont va Gon bilan vidolashuv " (1854), "Baliqchi oilasi" (1848) asarlarida ijodkorning o‘ziga xos uslubi namoyon bo‘ldi.

XIX asr o‘rtalarida ijod qilgan rassomlardan yana biri **Xendrik Leys** (1815-1869) bo‘lib, uning dastlabki asarlari tarixiy-maishiy janrga mansubdir. Bu asarlarida rassomning Rembrandt asarlariga taqlid qilganligi sezilib tu-, radi. 60-yillardan boshlab esa ko‘p figurali kompozisiyalar yaratishga intilib, Shimoliy o‘yg‘onish davridagi vo-deadarni tyasvirlashga eьtibor berdi, 60- yillardan boshlab, Belgiya san’atida maishiy janr yetakchi o‘rinni egallay boshladi. Rayesomlar oddiy kishilarning turmushi, menatiga bag‘ishlangan asarlar yaratdilar. Manzara janrida xam realistmk asarlar paydo bo‘ldi.

**Konstanten Man’ye (1831-1905).** Zamonaaiy mavzularning keng ko‘lamda €rntndishi va realizmning kamolotga erishishida Bel’giyaning yirik rassomk va xaykaltaroshi Men’yening xizmati katta. Uning ijoda mamlakatdagn in-demokratii xarakat asosida kamol topdi. Ilk ijodini Bryussel Badiiy akademiyasida xaykaltaroshlik bilan shug‘ullana boshlagan Men’ye tezda rassomlik san’-atiga o‘tib oldi.Rang tasvirda ko‘plab barkamol asarlar yaratdi. 70-yillar oxirida Men’ye Belgiya sanoat rayonla-rida bo‘ldi. Bu uknng asarlari mavzusini kengaytirdi. Sanoat mavzusi asarlarda asosiy o‘rin tutdi. Ko‘mir qazuvchi erkak va ayollarga, ularning og‘ir mexnatiga atab ko‘plab asarlar yaratildi. Bu asarlarida rassom mexmat axliga achi-nish bilan, qaramagan, balki ularning zabardastligi, x.ayot-sevarligidan zavqlangan. Rassomning novatorligi uning shaxtyorlarga bag‘ishlangan asarlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. 80-yillar o‘rtalaridan boshlab, Men’ye xaykaltaroshlikda xam o‘zining yetuk asarlarini yarata oldi. Uning xaykallari xam mexnatga, mexnat axliga bakishlangan. San’atkor xaykaltaroshlikdy mexnat jarayonini tasvirlab, yanti an’-analarni boshlab berdi. Men’yening xaykaltaroshlik kompozisiyalari sodda va xayotiy. San’atkor o‘z qaxramonlari-ni ideallashtirmaydi. Ularning charchagan, ba’zan dag‘allash-gan ko‘rinishlarini tasvirlahsan xam cho‘chimaydi. Uning obrazlari o‘zlarining plastik guzalligi bilan zavqlanti-radi. Men’ye o‘z ijodi bilan XIX asr Belgiya san’ati taraqqiyotiga yakun

yasadi. Uning ijodi Belgiya realizmining yuksak cho‘qqisi bo‘lib qoldi. Menyening ajoyib xaykalta-roshlik asarlari jaxon plastikasi taraqqiyotiga xam katta tasir o‘tkazdi.

Markaziy va Janubi-Sharsiy Yevropadagi mamlakatlar - Chexoslovakiya, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya xalqlari san’ati burjuaziyaning shakllanishi, mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog‘lis. XIX asrda bu mamlakatlarda milliy - ozodlik x.arakati ko‘taril-gan davr buldi. Buning natijasida ayrim mamlakatlar mu-(ggakillikka erishdi (masalan, Bolgariya, Ruminiya). San’at va madaniyat xalklarning ongini ustirishda, milliy g‘urur-ni yuksaltirishda xamda chet el bosqinchilari zulmiga qarshi kurashga chorlashda muxim rol o‘ynadi. Milliy san’at va madaniyat namoyandalari o‘z asarlarida milliylikka, o‘ziga xoslikka xarakat qilishar. Millatning o‘tmishi, xalq san’ati, jonajon tabiat ular asarlarining g‘oyaviy va badiiy yo‘nalishini belgiladi. Bu mamlakatlarda demokratiya va madaniyat yuksaklishining boisi xam shunda.

Chexiya san’ati. 1848 yil inqilobi davrida chex burjua -ziyasi shakllanib bo‘lgan edi. Yetuk ijodkorlar asarlarining mazmuni esa davrning ilg‘or g‘oyalari bilan bog‘liq xolda rivojlandi. Milliy tarix, dexqonlar turmushi, jonajon ulka tabiatiga bag‘ishlangan asarlar yaratishga intilish ko‘pgina san’atkorlar ijodida muxim o‘rin egalladi. Yirik chex rassomi **Jozef Manes** (1820-1871) shunday rassom-lardan biri edi. Inqilob yillarida bu rassom milliy gvardiya bayroqlarini ishladi, yetuk siyosiy arboblarning portretlarini chizdi. Inqilobdan sung dexqonlar xayotiga bag‘ishlangan ko‘tarinki ruxdagi poetik asarlar yaratdi, xalq ertaklariga illyustrasiyalar ishladi. Chexiya va Chernogori-yaning tarixiy o‘tmishi, janubiy slavyan xalklarining chet el bosqinchilariga qarshi milliy ozodlik xarakatlari **Yaroslav Chermak** (1830-1878), Mikolash Alesh (1852-1913) kabi rassomlar ijodi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Chex san’atida realistik manzara janri xam keng rivojlandi, Adolf Kosarek (1830-1859), **Antonin Xitgussi** (1847-1891) kabi rassomlar o‘zlarining ona yurtini to‘la-qonli aks ettiruvchi asarlari bilan chex san’atini boyit-dilar. Xaykaltaroshlik xam bu davrda sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritdi.

Yirik chex realist xaykaltaroshi **Yozef Vaslav Mislbek** (1848-1922) bu san’atni yuksaklikka kutardi. Uning o‘tmishga bag‘ishlangan fykallari (M. Avliyo Vaslavrning otdagi xaykali, 1888-1912), zamondoshlarining portretlari keyingi chex realistik plastikasi uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi.

XIX asr pol’yak san’atida xam sezilali siljishlar bo‘ldi.Asr boshlarida Varshava universiteti qoshida nafis san’at bo‘limi, Krakovda esa uning filiali tashkil etildi. Fuqaro memorchiligi soxasida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Lekin 1830-1831 Yillarda bulgan kuzgolon va uning maglubiyati reaksiyaning kuchayishiga olib kedsi. Varshava va Vilno universitetlari bpiyadi. Kupgina 1fro-lonchilar, ular qatorida ijodkorlar fm boshkd mamlakat-larga ketishga majbur bo‘ldilar. Ular ichida **Genrix Radakov-skiy** (1829-1894), **Petr Mixaylovskiy** (1800-1855) kabi rassomlar bor edi. Ular Parijda yashab ijod qildilar. Milliy mavzuda asarlar ijod qildilar. Jumladan, Radakovs-kiyning mashxur portretlaridan biri polyak inqilobiy ko‘shinlariga qo‘mondonlik qilgan general Dembinbkiyga bag‘ishlangan. Pol’shaning yirik rassomi **Yan Mateyko** (1838-1893) ijodida xam vatanparvarlik G‘OYASI yetakchi o‘rin tutadi. U O‘Z asarlarvda Pol’shaning tarixiga murojaat qilib, feodalxukmdorl ar davrini ulug‘laydi. Masalan, "Skverchi, nasixati " (1864) asarida va’zchining polyak xukmdorlari-ni birlashishga undayotgan payti tasvirlangan. Rassomning yetuk asarlari O‘ZINING dramatikligi xamda obrazlarining kuchli psixologik xolati bilan etiborni tortadi.

60-yillarda Polshada burjua mafkurasi mustaxkamlandi. San’atda esa tanqidiy realizm taqaqqiyoti uchun imkoniyat tug‘ildi. Bu **Iozef Xelmonski** 1849-1914) ijodida xo‘m namoyon bo‘ldi. U dexqonlar xayotiga bag‘ishlangan, o‘lka man-zarasini aks ettirgan, Tengsizlikni qoralovchi asarlari bilan shuxrat qozondi. Polsha san’atidagi

tanqidiy yo‘na-lish aka-uka Maksimilyan va Aleksandr Gerimskiy (1846-74,1855-1901) lar ijodida O‘Z ifodasini topdi. Ular asar-larida kapitalistik shaxar, ishchilarning og‘ir xayotini aks etgiruvchi asarlari bilan tanildilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida venger san’atida dastlab impressionizm, so‘ngra modernizm va simvolizm keng yoyila boshladi.Realistik an’analarga sodik; qolgan rassomlar xalq xayotiga bagishlangan asarlar yaratishni davom ettirdilar. Milliy ozodlik xarakatining kuchayishi xamda 1848 yildagi ralayon xalqning ijtimoiy va siyosiy ongini O‘STI-rib, ijodkorlarning faolligini yanada oshirdi. Milliy tarixga qiziqishni kuchaytirdi. Ularning asarlarida 1848 yil qaxramonlari va muxdish voqealari xam O‘Z ifodasini topdi. **Munkachi Mixay** (1844-1900). Bu ijodkor venger rangtasvir ustasi, demokratik realizm tarafdoridir. Uning ijodida tarixiy va maishiy mavzudagi asarlar, portret va manzara janridagi suratlar aloxida o‘rin tugadi. Rassomning asarlari rang va nur kontrastining kuchliligi, yozish uslubining erkin va shiddatliligi xamda kdlamining o‘tkirligi bilan etiborni tortadi. Uning ijodiga xos bu xususiyatlar" Motam uyi " (1878, iyusinchi variant), ayniqsa," ^qo‘zg‘olon " (1895) asarida yorqin namoyon bo‘ladi. "Qo‘zg‘olon" deb nomlangan asarida rassom venger san’atida birinchi bo‘lib ishchilar obrazini tasvirlaydi. Munkachi ijodi venger realistik rangtas-viriga kuchli tasir qildi. Uning ijodi tasirida Imre Reves (1859-1945), **Shandor Bixari** (1856-1906) kabi rassomlar yetishib chiqdi. Ular tarixiy va maishiy xamda portret janrida davr ruxi xaqqoniy aks ettirdilar.Rumin rassomi **Konstantin Rozental’** (1820-1851) yaratgan " Inqilobiy Ruminiya " deb nomlangan, allegorik planda ishlangan asarda go‘zal ayol timsolida davrning ziddiyatlari, kishilarning kurashga tayyor ekanligi ifodalanadi.1859 yili mayda knyazlarning yagona Ruminiya davlatiga birlashgandan keyin uning san’atining gullagan davri boshlandi. Mamlakatda qator badiiy maktablar ochildi. Bu maktablar iste’dodli yoshlarni O‘Z atrofiga birlashtirib, keyingi davr rumin san’at tarayediyotiga zamin yaratdi.

50-yillarda badiiy xayotning jonlanishi va dastlabki maktablarning tashkil etidishida **Teador Aman** (1831-1891) aloxida rol o‘ynadi. Aman tarixiy va maiishy janrda asarlar yaratdi. Xalq milliy ozodlik xarakati, dexqonlar xayoti-ga bagishlangan asarlari uning stuk realist rassom sifatida tanitdi.

**Nikolaye Grigoresku** (1838-1907) ijodida xam tarixiy va maishiy mavzudagi asarlar asosiy o‘rinni tutadi. O‘z ijo-dini cherkovlar uchun surat ishlash bilan boshlagan Grigo-resku Mille va barbazonlar tasirida kamol topib, *xar*biy mavzularda xam asarlar yaratdi. Jumladan, uning " Smerdinani zabt etilishi " (1885) asarida oddiy jangchi-larning ozodlik uchun olib borgan kurashidagi jasorati tarrannum etiladi. Keyinchalik uning ijodi dexdonlar xayotidan olingan lavxdlar, manzara janri va dexqonlar portretlari bilan boyidi. Ion Andrssku (1850-1882) ijodida xam dexqonlar xayoti mavzusi yetakchi o‘rin egallaydi. Bu mavzudagi asarlarida oddiy xayot poeziyasini ko‘rsatish bilan birga, ijtimoiy to‘qnashuvlarni xam ochib o‘tadi. Oktav Benchilla (1872-1944) asarlari dexqonlar qo‘zg‘oloniga bag‘ishlangan. Benchilla o‘z ijodida realistik san’at an’anasini davom ettirib, keyingi davr san’aty rivojiga yo‘l ochdi.

XIX asr o‘rtalarida Bolgariya san’atida xam realistik milliy san’at maktabiga asos solindi. Bolgar realistik san’aty taraqqiyotiga munosib xissa qo‘shgan rassomlardanbiri Nikolay Pavlovich (1836-1894) bo‘lib, u bolgar ta-rixiy janrining asoschisi va yirik portretchi rassom si-fatida mashxur. Pavlovich uzining tarixiy mavzudagi asar-larida vatanparvarlik royalarini targib etdi ("Aspa-rux"(1867), "Kram" (1867) kabi). Bolgar san’atining key-ingi tarakdiyoti 70-80 yillardan boshlandi. 90-yillar esa uning eng gullagan davri buddi. Bolgar san’atidagi reali-yetik va demokratik tendensiyalar mustaxkamlandi.

**Ivan Mirkvichka** (1856-1938), **Ivan Angelov** (1864-1924), **Anton Mitov** (1862-1930) kabi rassomlar o‘zlarining mai-shiy janrdagi mashxur asarlarini yaratdilar.

Asli chex bo‘lgan rassom Yaroslav Veshin (1859-1915) bolgar san’ati taraq-qiyotiga samarali xissa qo‘shdi.Xorvat, serb, slavyan va boshqa janubiy slavyan xalqla-rining XIX asr boshlaridagi miplii mustakillik uchun olib borgan kurashlari tufayli ularning san’ati xam ravnaq topdi. Ular san’atida dastlabki paytda klassisizm, sungra romantizm xukmron bo‘ldi. Shu tarzda xalq turmushini real talqin etuvchi, g‘oyaviy barkamol asarlar yaratildi. XIX asrning uchinchi choragidan boshlab, xalk xayotini aks eggiruvchi realistik san’at yetakchilik qila boshladi. Xorvatiyalik Vekoslav Kara (1821-1850), Ivan Meshgrovich (1838-1862), serbiyalik Jorj Kristich (1851-1907) va boshqa rassomlar ijodida davrning ilg‘or g‘oyalari o‘z aksini topdi.

## XIX ASR IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHIDA ROSSIYA SAN’ATI

XIX asr ikkinchi yarmidan Rossiya taraqqiyotining yangi davri boshlandi. 1861 yilda krepostnoy tuzumining islox qilinishi Rossiyada kalitalistik munosabatlar rivojini tezlashtirdi. Ommaning ijtimoiy o‘tdagi faolligi orta bordi. Ilg‘or demokratik g‘oyalar ommani o‘ziga torta boshladi. Rus inkilobiy-demokratlari N-GLernishevskiy va N. A. Dobrolyubovlar xalqni ozodlik royalari ruxda tarbiya-lashda san’at *muxim* vosita bo‘ladi, deb chikdilar. N. G. Cher-nishsvskiyning "San’atning voqeligkka estetik munosabati" deb nomlangan falsafiy asari materialistik estetiaga asos bo‘ldi. Uning "go‘zallik bu xayotdir[i] degan so‘zlari keyingi davr demokratik san’ati tarakdiyotini belgiladi.

Chernishevskiyning xar bir rassom va yozuvchi uz xalqi xayotini to‘g‘ri tasvirlash bilan chegaralanmay, zamonaviy voqelikka jamoatchilik etiborini qaratishi lozim, degan fikri 60-yillarda shakllangan rus inqilobchi-demokrat ijodkorlarining nuqtai nazariga aylandi.

Bu g‘oyalar yoshlar ijodining shakllanishida g‘am mux.im o‘rinni egalladi. 1863 yili 9 noyabrda sodir bo‘lgan "O‘n turtlar g‘alayoni" xam buni yaqqol ko‘rsatdi. Badiiy Akademiyami tugatayotgan 14 talaba mifologiyadan olingan mavzuda diplom ish yaratishdan bosh tortib, erkin mavzuda xalq xayotidan olingan syujetlar asosida surat ishlashga ruxsat surashdi. Akademiya kengashi bunga qarshilik bildirganidan so‘ng, bu talabalar I.N. Kramskoy boshchiligoda O‘Z norozi-liklarini bildirib, Akademiyami tashlab chiqib ketishdi..Ular (I. N. Kramskoy boshchiligida) Peterburg rassomlar arteliga birlashdilar. Birgalikda yashab, birgalikda bu-yurtmalar olib ishladilar, tushgan mablag‘ni o‘zaro teng taqsimladilar. San’at va siyosat borasida munozaralar olib bordilar. o‘z asarlarida xalq xayotini tasvirladilar. Birok "Artel" uzoq yashamadi. U 1870 yilda taqalib ketdi. Bunga sabab, artelning puxta reja va dasturi yo‘qligi va uning davr ruxiga xos emasligida edi. Lekin shunga qaramay "Artel "keyingi davr rus demokratik san’ati taraqqiyotida muxim rol o‘ynadi.

**Ko‘chma ko‘rgazmalar** uyushmasi (birodarligi). Rus demokratik san’ati taraqqiyotida 60-70-yillarda tashkil topgan "Ko‘chma kurgazmalar birodarligi " **muxim rol** o‘ynadi. Moskva va Peterburg rassomlari tashabbusi bilan G.Myasoyedov, V.Perov va I. N. Kramskoylarning faol xarakati natija-sida yuzaga kelgan bu badiiy tashkilot o‘z atrofida rus san’atining ilg‘or vakillarini tuplab, Moskva, Peterburgdan tashkarida xam ularlarining asarlarini namoyaish etdi. Uyushma nizomi 1870 yil 2 noyabrda sabul silindi. Uning birinchi ko‘rgazmasi 1871 yil 29 oktyabrda Peterburgda ochildi. Sungra bu ko‘rgazma mamlakatning O‘N uchta yirik shaxarlarida ko‘rsatildi. Uyushma ko‘rgazmalari 50 yildan ortiq davr mobaynida ko‘pgina yerlarda namoyish etildi. U 1923 yili tugatildi. "Sayyor rassomlar" (peredvijniklar ko‘chma ko‘rgazmalar uyushmasi a’zolari shunday nom bilan atalgan) xalq xayotiga bag‘ishlangan asarlar yaratishni o‘zlarining boshmaqsadlari deb bildilar. Ular O‘Z asarlarida xalq turmushini xaqqoniy tasvirlashga, jamiyat qusurlarini ro‘yi rost ochib ko‘rsatishga xarakat qildilar.

Zamonning dolzarb ma-salalarini ko‘tarib chiqib, jamoatchilik fikrini uyg‘otdilar. Uyushma tasirida Rossiyaning ko‘pgina shaxarlarida shunday birlashmalar yuzaga keldi. Uyushma i il sayin O‘Z safini kengaytirib bordi.

70-80-yillarda uning safida tanikli rus rassomlari I. Repin, V. Surikov, V. Vasnesov, K. Saviskiy, N. Ka satkin, I. Levitan, V. Polenov, ukrainlik rassom S. Svetoslavskiy, latish rassomi K. Gun va boshqalar bor edi.
Uyushma a’zolari ijodida zamonaviy mavzu yetakchi o‘rin egallagan. Ular xayotiy-maishiy janrda, uning dastgox shakllarida xalq xayotini atroflicha aks ettiradigan asarlar yaratishgan. Portret janrida axloq muammolari yoritilgan bo‘lsa, manzara janrida milyami mavzular yetakchi o‘rin egallagan.
Uzida ijtimoiy masalalarga xam etibor qaratilgan. Tarixiy janrdagi asarlarda realistik unsurlar ortib borgan.
Xaykaltaroshlikdagi yutuspar dastgox plastikasida mavzu kengayganida ko‘rinadi. Memorlikda esa elektizm namoyon bo‘lat boshladi.

**Vladimir Vasilyevich Stasov** (1824-1906). "Ko‘chma ko‘rgaz-malar birodarligi" faoliyati va rus san’atidagi yangi demokratik yo‘nalish ravnaki yirik rus tanqidchisi V. V. Stasov ijodi bilan bog‘liq Stasov rus san’atidagi yangiliklarning birinchi targ‘ibotchisi edi. U rassomlarning faoliyatini kuzatar, ularga mavzu tanlash va material to‘plashda ko‘maklashar edi. Stasov uyushma a’zolari san’atidagi xalqchillikka yuksak baxr berib, uning yuksak g‘oyaviy-ligini qadarlar, milliy o‘ziga xos san’at yaratilishining jonkuyar edi.

U rassomlarning goyaviy usishlariga aloxida etibor berar, yetilib kelayotgan yoshlar ijodiga qilib qarab, ularning o‘sishlariga g‘amxo‘rlik qilar edi. O‘z maqolalarida, bevosita suxbatlarida yoshlar ijodini targ‘ib etishga intilar edi. U bugun umrini san’atga, unda realizm chuqurlashuviga bag‘ishladi.

**Pavel Mixaylovich Tretyakov** (1832-1893) nomi Ko‘chma ko‘rgazmalar uyushmasi bilan uzviy bog‘liq. Rus milliy muzeyiga ailangan galereya asoschisi, yirik korxona egasi, O‘Z davrining ilg‘or fikrli kishisi bo‘lgan Tretyakov 1856 yildan boshlab, rus san’ati namunalarini yiga boshladi. Keyinchalik u uyushmaning xaqiqiy jonkuyariga aylandi. Natijada, sayyor rassomlar moddiy jixdtdan ta’minlandilar va erkin ijod qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Tretyakov kolleksiyasi astasekinlik bilan kengayib bordi. Uning ruxsati bilan 1874 yildan boshlab, surat galereyasiga ayrim tomoshabinlar kira boshladilar. 1881 yili esa keng jamoatchilik galereyaga aylantirildi..

